O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2024-yil
3-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ushbu sonda

O‘quv lug‘atining dunyo tilshunosligidagi o‘rni 9-bet

Paremiyalarda zidlikni ifodalovchi tushunchalarning lingvosotsiomadaniy xususiyatlari 23-bet

O‘zbek jadid hikoyalarida ramziylik 29-bet

“Baliq ovi”ni o‘rganamiz 34-bet

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2024-yil
3-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MAS’UL MUHARRIR
Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova
Nargiza Sotvoldiyeva
Muxlisa Do‘stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Akmal Farmonov

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.10.2024 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi
“Til va adabiyot ta’limi”
davlat korxonasi

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

TAHRIR HAY’ATI:

Hilola Umarova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari

Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov
“Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” jurnali bosh muharriri

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori

Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori

Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Svetlana Im
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Ranusha Atayeva
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Salima Jumayeva
Alfraganus universiteti Sharq filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori

Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Gulruh Bahodirova. Kashtachilik leksikasi tadqiqi 3
Sabohat Qahharova. Elektron lug‘at yaratishda semantik domenlarning ahamiyati xususida 6
Dilmurod Eshanqulov. O‘quv lug‘atining dunyo tilshunosligidagi o‘rni 9
Чжан Хан. Поэтика как литературоведческая категория 12
Rahmatullo Ro‘ziqulov, Maysara Eshniyazova. O‘zbek tiliga oid ko‘nikmalarning veterinariya va chorvachilik sohasidagi roli 15
Xurshidaxon Abdusalomova. Arab tilida atf 19
Otabek Xidirov. So‘z birikmalarini sintaktik teglash tizimi va modellari 21
Shahnozaxon Komolova. Paremiyalarda zidlikni ifodalovchi tushunchalarning lingvosotsiomadaniy xususiyatlari 23
Наргиза Мадаминова. Некоторые особенности композитов-существительных в поэзии акмеистов 25
Murodjon Mustofayev. “Devonu lug‘otit turk” – turkiy xalqlarning bebaho xazinasi 27
Xoliyor Safarov. O‘zbek jadid hikoyalarida ramziylik 29

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Nasiba Erhanova. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqini rivojlantirishga oid dolzarb masalalar va ularning yechimlari 31
Surayyoxon Kipchakova. “Baliq ovi”ni o‘rganamiz 34
Turg‘unoy Kaziyeva. Matnni anglashda germenevtik dialog ahamiyati va mustaqil fikrlashni shakllantirish omillari 37
Саодат Исмаилова, Азиза Бедилова. Использование игр при изучении русского языка 39
Nozimaxon Mamajanova. Ingliz tilidagi “Guess what!” darsliklarida fonetik interferensiya hodisasi 41
Mohira Xalikova. VUCA-dunyo va lifelong learning ta’lim modellari tahlili 44
Саодат Магдиева. Образовательная направленность стратегии рефлексии на занятиях по литературе в вузе 46

Gulruh BAHODIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

KASHTACHILIK LEKSIKASI TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek kashtachiligiga doir leksemalar tasnifi ifodalangan. Kashtachilik terminlarini tizim sifatida o‘rganishda genetik asos va tarixiy-etimologik tarkib, leksik-semantik xususiyat, grammatik, derivatsion tarkib va nomlanish mezoni tasnif asosi sifatida olingan.
Kalit so‘zlar: kashta, sohaviy leksika, kasb-hunar leksikasi, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, kashtado‘zlar.
Annotation. In this article, information related to Uzbek national art of needlepoint is calirified. In the study of embroidery terms as a system, the genetic basis and historical-etymological structure, lexical-semantic features, grammatical, derivational structure and naming criteria are considered as the basis of classification.
Keywords: embroidery, field lexicon, professional lexicon, own layer, mastered layer, embroiderers.
Аннотация. В статье описывается классификация лексики, относящейся к узбекской вышивке. В основе изучения терминов, относящихся к вышивке, лежит их классификация по генетической и историко-этимологической структуре, лексико-семантическим особенностям, грамматической, словообразовательной структуре и критериям номинации.
Ключевые слова: вышивка, отраслевая лексика, профессиональная лексика, собственный слой, освоенный слой, вышивальщицы.

Amaliy san’at namunalari xalqning turmush madaniyati, estetik didi, ma’naviy taraqqiyotidan darak beradi. Mamlakatimizning har bir viloyati, tumanida shu hudud tabiati, iqlimi, joylashuv o‘rni, turmush tarzi, kundalik kasb-kori bilan bog‘liq holda qaysidir amaliy san’at turi taraqqiy etgan. Aniqrog‘i, biror amaliy san’at turining takomillashishi hududiy xoslangan bo‘lib, muayyan joyda qadimdan u bilan shug‘ullangan o‘z kasbining mohir ustalari yashagan va kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, me’morchilik, o‘ymakorlik, naqqoshlik, temirchilik, kosibchilik, zardo‘zlik, zargarlik, misgarlik, to‘qimachilik, do‘ppido‘zlik, gilamchilik kabi san’atlarning sir-asrorlari, an’analari avloddan avlodga o‘tib, mahorat maktablari yaratilgan. Shundan kelib chiqib, soha egalari nutqida har bir kasb-kor bilan bog‘liq bir qator atamalar ham yuzaga kelgan.

Milliy kashtachilik ham o‘ziga xos farqlovchi xususiyatlarga ega. Garchi qadimiy kashtachilik namunalari saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, arxeologik topilmalar dunyo xalqlarining aksariyatida tabiiy muhit, yashash sharoiti bilan bog‘liq holda kashtachilik san’ati qadimdan rivojlanib kelganini tasdiqlaydi. Qolaversa, ular haqidagi tasvirlar turli tarixiy asarlarda ham uchraydi. Masalan, XI asrga oid ingliz kashtalarida ko‘proq jang lavhalari aks etgani, XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san’atining ta’siri ko‘zga tashlanib turishi, Xitoyda XIV asrda “syuxua” (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo‘lgan kashtali buyumlar uslub jihatidan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqinligi, Yevropada Uyg‘onish davrida buyuk rassomlar kashtado‘zlar uchun andozalar tayyorlab berishgani haqida ma’lumotlar uchraydi [1: 238]. Jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarida ham XIV–XV asrlardayoq kashtachilik keng rivojlangan bo‘lib, o‘zbek, tojik, turkman ayollari kiyimlarga bezak berish, badiiy buyumlarni tayyorlashda kashtachilikdan keng foydalanishgan. Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozadi. Hirot miniatura maktabining dong‘i ketgan rassomi Kamoliddin Behzod tomonidan “Zafarnoma” qo‘lyozmasiga ishlangan “Temur taxtda” miniaturasida ham kashtali chodir aks etgan [2: 264–265].

O‘zbek kashtalari betakrorligi, nafisligi, bezak-naqshlarining turli-tumanligi va qadimiyligi bilan boshqa millatlarning kashtachiligidan farqlanadi. Ushbu soha asosan savdo-hunarmandchilik shaharlarida, yirik qishloqlarda hamda O‘zbekistonning qadimiy dehqonchilik madaniyati markazlarida (Xorazmdan tashqari) keng tarqalgan. Kashtachilik asarlari mahalliy xalqning bayramlari, to‘y marosimlarining ajralmas qismi sanalib, turmushga chiqayotgan qizlar uchun beriladigan sepni bezagan [3].

XIX asrda Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Farg‘ona va Toshkent shaharlari badiiy kashtachilikning yetakchi markazlari hisoblangan. Mazkur kashtachilik maktablari naqsh-bezak shakllari, chok uslubi, ranglarning tanlanishi va kashtachilikka oid buyum, naqsh, asbob-anjom, ipak, rang turlarining nomlanishiga ko‘ra bir-biridan farqlangan. Masalan, kashtachilikning asosiy mahsuloti, adabiy tilda *palakso‘zana, choyshab, kirpich* deb nomlangan badiiy buyumlar Shahrisabz, Kitob tumanlarida umumiy holatda *kashta* deb yuritiladi. Uyni bezash maqsadida devorga osiladigan kashtaning hajmi, vazifasidan kelib chiqib, xalq tilida *joypo‘sh, joypatto* (taxmon yoki sandiq ustiga yig‘ib qo‘yilgan ko‘rpa-to‘shaklarning ustiga yopiladi), *ro‘yijo* (kelin-kuyovlar uchun ko‘rpa-to‘shaklardan baland qilib to‘shal-

gan taxtni berkitib turadi, ustiga yopiladi), *yostiqpo‘sh* (yig‘ib qo‘yilgan yostiqlar ustiga yopiladi), *bo‘xchapo‘sh* (kiyim-kechak va boshqa narsalar taxlab, tugib qo‘yilgan tugunchaklarni berkitadi) kabi nomlardagi turlari mavjud.

Kashtachilik terminlari genetik asosi va tarixiy-etimologik xususiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) o‘z qatlamga mansub kashtachilik terminlari;

2) o‘zlashma qatlamga mansub kashtachilik terminlari.

O‘zbek kashtachilik leksikasining tarixiy-etimologik tahlili, avvalo, ontologik, genetik jihatdan o‘zbek tiliga mansub, o‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lgan terminlarni aniqlab olishni taqozo etadi. O‘z qatlamga oid kashtachilik terminlariga o‘zbek adabiy tilining turli bosqichlari – qadimgi turkiy til, eski turkiy tilda va keyingi bosqichlarda ichki imkoniyatlar asosida paydo bo‘lgan kashtachilik terminlari kiradi. Bunday terminlarni aniqlashda xalq og‘zaki ijodi namunalari, qadimiy leksikografik manbalar, lug‘at-grammatikalar, ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar asosiy manba vazifasini o‘taydi.

O‘z qatlam leksikasiga mansub kashtachilik terminlari uchragan ilk lingvistik manba sifatida Mahmud Koshg‘ariyning XI–XII asrlar oralig‘ida yaratilgan, o‘z davri madaniy, maishiy hayotida muhim rol o‘ynagan “Devonu lug‘otit turk” asarining roli muhim. Ushbu asarda turkiy tillarga mansub bir qator kasb-hunar nomlari bilan birga, kashtachilik leksikasiga bevosita va bilvosita aloqador bo‘lgan leksik birliklar ham uchraydi. Masalan, birgina ***chëknädi*** (rasm solib tikdi) so‘ziga keltirilgan illustratsiya – *qiz chekin cheknadi* (*Qiz oltin iplar bilan ipak kiyimlik ustiga rasmlar solib tikdi*) jumlasi orqali, **birinchidan**, ushbu kasb bilan shug‘ullanuvchilar – kashtado‘zning jinsi, xotin-qizlar tomonidan bajarilishi (qiz); **ikkinchidan**, tikish vositasi (oltin ip bilan); **uchinchidan**, tikish asosi (ipak matoga); **to‘rtinchidan**, kashtali buyum turi (kiyim); **beshinchidan**, kashta naqshi (rasmlar solib)ga doir qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin.

“Devonu lug‘otit turk”da kiyim yoki maishiy buyumlarga ipak, oltin, zarli iplar bilan kashta tikish, uni munchoq, dur, marvarid, oltin, kumush bilan bezash, hatto qalpoqdo‘zlikda keng ishlatiladigan andaza asbobi nomining izohlanishi ham ushbu kasb bilan turkiy xalqlar qadimdan yuksak saviyada shug‘ullanganidan darak beradi. Asarda kashtachilikka bevosita va bilvosita aloqador bo‘lgan buyum nomlari, kashtachilik asbob-uskunalari, ipak nomlari va shu kasb bilan bog‘liq harakat fe’llarini ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, kiyimga zarli ip bilan kashta tikilgan va ushbu ip turi *burta,* qizil rangli zar bilan kashtalangan mato *chuz* deb nomlangan. Shuningdek:

batg‘a – qalpoq tikish uchun ishlatiladigan namat va yungni qo‘yib qirqib olinadigan taxta [1: 400];

chikin – ip turi; zarli qubbani tikishda foydalanilgan;

chëknädi – qïz chëkin chëknädi. *Qiz oltin iplar bilan ipak kiyimlik ustiga rasmlar solib tikdi* [3: 316].

Umuman, “Devonu lug‘otit turk”da kashtachilik leksikasiga oid ip va uning turlari nomi, masalan, *yigirilgan ip* ma’nosida ishlatiluvchi ***ëgrik, tashratmish jip,*** *yigirilmagan xom ip* ma’nosini anglatuvchi ***taxtu*** hamda ipni tayyorlash, u bilan ishlash jarayonlari bilan bog‘liq turli turkumga mansub birliklarni uchratish mumkin:

egrindi: *urag‘ut jip egrindi* – xotin o‘zi uchun ip yigirgandek ko‘rindi, aslida u yigirmagan edi [1: 253];

o‘zto‘rdi: *ol jip o‘zturdi* – u ip o‘zdirdi [1: 226];

Urag‘ut ***jip*** *egirdi* – xotin ip yigirdi [1: 88];

ag‘urshaq – ip yigiriladigan charx dugini tutib turadigan ayirli cho‘p-chalmak [1: 165];

basbal – bir taqim ip [1: 445].

Shuningdek, Koshg‘ariy ushbu asarda kashtachilikdagi chok turlari va chok tikish jarayoni xususida ham ma’lumotlarni keltiradi. Masalan, kiyim choki ***ji***, *tikuvchi* esa ***jichi*** so‘zi bilan ifodalanishi aytiladi.

Bugungi kunda ham kashtachilik leksikasida keng ishlatiladigan *jiyak* so‘zining etimologiyasi turkiy ***ji*** bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Negaki, o‘zbek tilida hozir ham kiyimning chekka qismiga bezak maqsadida o‘rnatiladigan kashtali element jiyak deb yuritiladi. “Devonu lug‘otit turk”da jiyak tikish, jiyakni o‘rnatish bilan bog‘liq boshqa jumlalarni ham uchratish mumkin:

jedishdi – u menga to‘n chalmasi, jiyagini tikishda yordam qildi [3: 78];

qirg‘ag‘ – to‘n jiyagi, chalmasi [2: 333];

ko‘njuklandi – chalmali, jiyakli bo‘ldi [2: 322];

qidishdi – jiyak tikishdi, choklashdi [2: 361];

qidig‘landi – jiyaklandi [2: 361].

Bundan tashqari, chokning *tafchïtti* – ko‘klab tikdi, *qiditti* – qayirib tikdi, *qizig‘ladi* – chetlarini tikdi kabi bir necha turdagi nomlari ham uchraydi. Umuman olganda, “Devonu lug‘otit turk”da ellikdan ortiq bevosita va bilvosita kashtachilik leksikasiga aloqador bo‘lgan quyidagi umumturkiy nomlarni uchratish mumkin:

1) kashtali kiyim va badiiy buyum nomlari – *chuz, burunchuk, tarinchak, kerim, qur, qurshag‘, qirg‘ag‘, qotirma bo‘rk, suvluq, ulatu, jutgak, qaftan, mundaru, sachu, artig‘, iqurshag‘, ichqur, terinchak* va boshqalar;

2) kashta tikish usuli va chok turlari bilan bog‘liq nomlar – *ji, jichi, bo‘rkchi, chikin, chiknadi, cheknadi, tafchïtti, jedishdi, ko‘njuklandi, qidishdi, qidig‘landi, qiditti, qizig‘ladi, osmado‘zi* va boshqalar;

3) ip turlari va bezak vositalari bilan bog‘liq nomlar – *burta, chikin jipi, ëgrik, tashratmish jip, taxtu, ag‘urshaq, egrindi, o‘zto‘rdi, jip egirdi, basbal, ig/jig, boz munchoq, sata marjon, kimsan* va boshqalar.

Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tilida kashtachilik terminlarining aksariyatini o‘zbek xalqi qadimdan ijtimoiy, siyosiy, madaniy, maishiy aloqada bo‘lgan boshqa tillar, masalan, arab yoki rus tillariga qaraganda sof fors-tojikcha o‘zlashmalar va shu o‘zlashmalar asosida yasalgan o‘zbekcha so‘zlar tashkil etadi. Buning bir necha sabablari mavjud. **Birinchidan**, ushbu hudud aholisining katta qismini fors-tojik tilida so‘zlashuvchilar tashkil qiladi. Tojiklar qadimdan O‘zbekistonning

bir necha yirik madaniyat markazlari – Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Toshkent atroflarida o‘zbeklar bilan birga yashab kelgan. Ushbu millat vakillari tabiatan hunarmand va ishbilarmon bo‘lib, dehqonchilik, chorvachilik bilan birga, kasb-hunarning bir necha sohalari – yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, kashtachilik, cho‘ptaroshlik (tovoq, cho‘mich va qoshiqlar yasashning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan [5: 867]. **Ikkinchidan**, hududda o‘zbek-tojik hamda tojik-o‘zbek bilingvizmi yaxshi rivojlangan. Bu esa fors-tojik va o‘zbek tillariga mansub *kashtado‘zlik, kashtachilik, belqars, lo‘lapo‘sh* kabi aksariyat terminlarning bir-biri negizida yasalishiga sabab bo‘lgan. **Uchinchidan**, qadimdan Samarqand, Buxoro kabi yirik madaniyat markazlarida feodal aristokratiya, shuningdek, badiiy adabiyot, ijod tili sifatida fors-tojik tilining maqomi baland bo‘lgan. Kashtachi xotin-qizlar xirgoyi qilib kelgan fors-tojik tilidagi xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari ham ushbu terminlarning ommalashishiga sabab bo‘lgan. Ya’ni badiiy adabiyot, san’at va urf-odatlardagi mushtaraklik ham bunga zamin hozirlagan. Shu nuqtayi nazardan kashtachilik terminlarini genetik jihatdan quyidagi ichki guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1) umumturkiy so‘zlar – *qalpoq, qars, boshqars, to‘yqars, xatnaqars, kuyovqars, itqars, belqars, qiyiq(-cha), qizqalpoq, qur, tepa, kizak, ova, g‘arib qalpoq, qiyomat qiyiq, belbog‘, yengcha, kirpich, choyshab, gulko‘rpa, bo‘g‘joma, do‘xta, qopchiq, oynaxalta, do‘xta, qoshiq xalta, bodomgul, beshgul, gilosak, qo‘shbodom, qalampir, butador, bulbul ko‘zi, bosma chok, sanama, terma sanama, chizma sanama, to‘ldirma chok, yetalatma gul, tagdo‘zi (qalpoq), chakmato‘r (qalpoq), ilmaqalpoq, tish, taroq, oy, kanava, ipak, bo‘z, doka, surp, chit, avra, astar, ko‘knori, shirozi, jiyak (jahak), iroqi;*

2) fors-tojikcha so‘zlar – *kalapo‘sh, peshanavat (peshonaband), ro‘yparto, kulo‘ta, zehak, karj, poycha, kultapechak (kultapo‘shak), izmak, lachak, so‘zana, dorpech, darparda, sandalpo‘sh bo‘xchapatto, bo‘xchapech (bo‘xchapo‘sh), takyapo‘sh, shabpo‘sh, morpech, ro‘yijo, joynamoz, dasturxon, shonaxalta, gulishashbarg, sebarga, mo‘hja/mo‘g‘ja, paxtagul, rayhon, dastagul, chorbarg, shox, gulinor (gulianor), bachki, lola, chordona, chashmiqush, qushpanja, parri kusho, parri bofta, pargori, guldo‘zi, zamindo‘zi, zardo‘zi, piltado‘zi, xomdo‘zi, ovado‘zi, dannon, kandaxayol, kamkashta, serkashta, mohtob, mohi, sitora, angish (angishvona), nimdo‘z (tevana), oshxo‘rak;*

3) arabcha so‘zlar – *palak, po‘ta (fo‘ta);*

4) ruscha so‘zlar – *mulina, kurjuk (kryuchok);*

5) genetik aralash so‘zlar – *nimcha, nimtanailmado‘zi, oypalak, zaldevor, yostiqpo‘sh, joypo‘sh, lo‘lapo‘sh, choynakpo‘sh, xamirturush dasturxon, qoziqlengi*.

Xullas, kasb-hunar terminlari tadqiqiga faqat bir tomonlama yondashish soha terminlari mohiyatini ochish va leksikografik izohlash uchun yetarlicha dalil bera olmaydi. Shu sababli soha leksikasi tadqiqiga kompleks – ham kasb-hunar turiga xos xususiyliklar, ham uning genetik qatlamlari, ham tarixiy-etimologik tarkibi, ham hududlar kesimida adabiy til, areal va dialektal aspektlarda qiyosiy yondashish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-5/461-kashtachilik.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. K harfi – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
3. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi, 2024. http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-5/461-kashtachilik.
4. Bahriddinova B. O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari: Filol. fan. dok... diss. – Samarqand, 2020.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T harfi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

Sabohat QAHHAROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti

ELEKTRON LUG‘AT YARATISHDA SEMANTIK DOMENLARNING AHAMIYATI XUSUSIDA

Annotatsiya. Rivojlanayotgan tillar hamjamiyatida so‘zlarni to‘plash va nashr etish ma’lum millatning o‘z tillarini qanday qadrlashini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Chunki bugungi kunda zamonaviy elektron formatdagi lug‘atlar qaysi tilda ko‘plab yaratilgan bo‘lsa, o‘sha millat tilining mavqeyi yuksalgan. Shu bois amaldagi lug‘atlarni takomillashtirish va uning yangi namunalarini yaratishimiz zarur. Bu borada semantik domen lug‘aviy birliklarni yig‘ish va lug‘at yaratish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu maqola mazkur masalaga bag‘ishlandi.

Kalit so‘zlar: semantik domen, semantik uya, domenlar ro‘yxati, lug‘atni ishlab chiqish jarayoni.

Annotation. Collecting and publishing words in developing language communities is a reflection of how they value their languages. Because today, in the language in which many dictionaries in modern electronic format have been created, the position of the language of that nation has risen. Therefore, it is necessary to improve existing dictionaries specific to our language and create new examples of it. In this regard, the semantic domain is of great importance as a means of collecting lexical units and creating a dictionary. Therefore, this article was devoted to this issue.

Keywords: semantic domain, semantic net, list of domains, dictionary development process.

Аннотация. В развивающемся сообществе сбор и публикация слов родного языка отражают то, как общество ценит свой язык. Создание множества словарей в современном электронном формате способствует улучшению позиций языка. В связи с этим большое значение имеет семантический домен как средство сбора лексических единиц и создания словаря. Этому вопросу и посвящена данная статья.

Ключевые слова: семантический домен, семантическая сеть, список доменов, процесс разработки словаря.

Xalqaro fonetik alifboning mavjudligi fonologik tizimlarni tillararo taqqoslash, standartlashtirilgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi esa grammatik universaliyalarni izlash imkonini berdi. Antropologiyada madaniy materiallar konturi, kimyoda esa universal davriy jadval mavjud. Semantika nimaga ega? “Men semantik domenlarning standartlashtirilgan ro‘yxatini ishlab chiqish uchun hamkorlik qilishni taklif qilaman”, – deydi so‘zlashuvchisi kam bo‘lgan tillarni targ‘ib qilish va rivojlantirishga bag‘ishlangan ko‘ngillilar tashkiloti – SIL (The Summer Institute of Linguistics) International tadqiqotchisi, tilshunos Ron Mo [1: 215]. U ingliz tilidagi 1800 ga yaqin so‘zlarning semantik domenlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan veb-sayt namunasini ishlab chiqdi va uning maqsadi dunyodagi istalgan til uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan domenlarning to‘liq ro‘yxatini tuzish edi. Ron Mo: “Men boshidanoq so‘zlarni to‘plash uchun semantik domenlar ro‘yxatidan foydalanish mumkinligini bilardim, “suv havzalari”ning semantik domeniga tegishli so‘zlar (masalan, okean, ko‘l, daryo, qirg‘oq, to‘lqin va boshqalar)ni ro‘yxatlashni boshladim, o‘n besh daqiqa ichida 169 ta so‘z bo‘ldi, shu sabab menga kerak bo‘lgan narsa semantik domenlar ro‘yxati ekanligini angladim va til so‘zlarini yillar emas, balki bir necha kun ichida to‘plashim mumkinligini his qildim” [1: 216], – deydi.

Kognitiv nazariya tamoyillariga asoslanib, Ron Mo Dictionary Development Process – DDP (lug‘atni ishlab chiqish jarayoni) nomli texnikani yaratdi, uning birinchi bosqichi – tezkor so‘zlarni yig‘ish. Ongimizdagi so‘zlarni ulkan munosabatlar tarmog‘ida tashkil qilishimiz haqida jiddiy dalil sifatida ularni “semantik domenlar” deb nomlangan guruhlarga to‘plash kerakligini ta’kidladi. Ko‘p yillar davomida leksikograflar so‘zlarni to‘plash uchun semantik sohalardan foydalanish mumkinligini taklif qilishdi. Lekin bu domenlarning keng ro‘yxatini talab qiladi. Shu sababdan Mo so‘zlarni to‘plash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan domenlar to‘plamini ishlab chiqdi. Shuningdek, insonlarning tafakkurini kengaytirish va mushohada qilishlari uchun har bir domen uchun savollar va unga namuna shaklda javoblarni taqdim qildi.

Semantik domen ichidagi har bir so‘z bir-biri bilan sintagmatik va paradigmatik kabi leksik munosabatlar orqali bog‘lanadi. Shu nuqtayi nazardan tilshunoslikda semantik domen semantik uya, semantik maydon tushunchalariga yaqin termin sanaladi. Ron Mo tadqiqotida har bir domen o‘z ichida qaysi elementlarni olishi keltiriladi [2: 3] (1-jadval).

Ro‘yxat ingliz tili misolida dunyoning istalgan tili uchun mo‘ljallanganini inobatga olgan holda, shu tilga mansub leksik birliklarning semantik jihatdan o‘xshash domenlarini iyerarxik shaklda to‘qqizta asosiy sarlavha ostida birlashtirdi (2-jadval).

Xuddi shu modelda o‘zbek tiliga xos leksik birliklarning denotativ va nutqiy jarayondagi turli xil konnotativ ma’nolarini to‘plab, muayyan tilda zamonaviy elektron lug‘atlar yaratish uchun semantik domenlarni ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat til rivoji uchun zarur, balki tarjimonlar, ijodkorlar, til o‘rganuvchilar uchun ham bir qator afzalliklar beradi. Bundan tashqari, unda kompyuterdagi ma’lumotlar bazalarini alifbo tartibida yoki domen bo‘yicha saralash ham mumkin. Semantik domen

1-jadval



2-jadval

Semantik domenlar	1	Koinot, yaratilish	quyosh, havo, dunyo, suv, tuproq, atmosfera, tirik mavjudotlar (o‘simlik, hayvon), tabiat, atrof-muhit
	2	Insoniyat	tana a’zolari va funksiyalari, sezish, idrok etish, tana holati, sog‘lik, hayot
	3	Til va tafakkur	shaxsiyat, ruhiy holat, o‘ylash, xohish-istak, hissiyot, muloqot, ta’lim
	4	Ijtimoiy axloq	shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faoliyat, xulq-atvor, farovonlik va qiyinchilik, vakolat, hukumat, qonun, huquq, janjal, diniy e’tiqod
	5	Kundalik hayot	uy jihozlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, chiroyli ko‘rinish, yong‘in, tozalash, uxlash, yashash
	6	Ish va kasb	mehnat, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, bino va qurilish, kasb-hunar, asbob, mablag', biznesni tashkil etish
	7	Jismoniy harakatlar	durum *(ushbu domenda inson tanasining holati yoki pozitsiyasini ko‘rsatadigan umumiy so‘zlar (o‘tirish, yotish, tiz cho‘kish, ta’zim qilish, suyanish, egilish kabi) o‘rin olgan*), ko‘chirish, biror narsani siljitish, ega bo‘lish, tartibga solish, yashirish, jismoniy ta’sir etish, bo‘laklarga bo‘lish, buzilish, eskirish
	8	Holat, shakl	miqdor, qiymat, katta, xususiyat, xarakter, taqqoslash, umumiylik, namuna, model, taqlid qilish, nusxalash
	9	Grammatik terminlar	harf, undosh, unli, bo‘g‘in, tuslanish, turlanish, hol, kelishik, paradigma, qoida, birlik, ko‘plik, ot, fe’l, sifat, ergash gap, bog‘lovchi, bosh gap, yuklama, artikl, so‘z, kesim, bo‘lishsizlik, gap bo‘lagi, birikma, hosila

3-jadval



shunday xususiyatga egaki, u til birliklarining ma'nolarini alohida, nutqiy qurshovdan ajratilgan holda tadqiq etmaydi, balki o'z semantik uyasiga bog'liq holda yaxlit ifodalaydi. Zero, leksik mazmuniy to'da a'zolarini alohida o'rganishdan ko'ra ularni birgalikda o'rganish ancha samaraliroqdir [4].

Leksemalarni semantik domen shaklida tadqiq etishda aynan so'zni turkumlarga ajratib, uning ma'noviy guruhlarini belgilash yo'lini asosiy mezon qilib olish kerak emas, albatta. Bu morfologik sath, shundoq ham, ot yoki fe'lning ma'noviy guruhlari shaklida qayd etilgan. Masalan, yuqorida keltirilgan jadvaldagi "jismoniy harakatlar" domeni yorlig'ida domenga tegishli so'zlar: *harakat, harakat qilmoq, faol, faoliyat, hodisa, jarayon* kabilarda turli turkumga oid birliklar keltirilgani va u ham to'qqizta kichik semantik domenlarni o'zida jamlaganini ko'rish mumkin (3-jadval).

Ana shu kichik semantik domenlarning har biri ustiga kompyuter sichqonchasi olib borib tegilsa, yana unga mansub domen birliklari ekranda namoyon bo'ladi (4-jadval).

4-jadval



Shu domen yorlig'i tarkibidagi "ko'chirish" deb nomlangan kichik domen ma'lum bir jism yoki tanani boshqa joyga ko'chirish mazmunini o'zida ifoda etuvchi birliklarni jamlaydi. Harakat fe'llarida ko'plab ma'no komponentlari mavjud. Ular joylashuv manzili (-dan), maqsad manzili (-ga), yo'l (bo'ylab, yoqalab), usul (yurish, yugurish), tezlik (poyga, emaklash), yo'nalish (bor, kel, ket, qayt)ni o'z ichiga oladi.

Harakat qilish uslubi domeni "yurish" semali barcha lug'aviy birliklarni o'z ichiga oladi. Undagi semantik uyalar ham umumiylikdan xususiylikka qarab bir nechta guruhlarga bo'linib ketadi, shu sababdan semantik domenni so'zning potensial ma'nolari qatoridir, deyish mumkin. So'zning potensial ma'nolari doirasini tushunish ma'lum bir nutq parchasida so'z nimani anglatishini aniqlash uchun boshlang'ich nuqtani beradi. Ma'nolarni izlash esa semantik sohalarni o'rganishga yordamlashadi.

Inson miyasi leksik munosabatlar bo'ylab so'zdan so'zga sakrab, semantik sohaga tegishli so'zlarni tezda eslab qolish qobiliyatiga ega [5]. Demak, kimdandir *"quyosh"* so'zi bilan bog'liq so'zlarni sanab berishini so'rasangiz, u sizga *"oy, yorug', quyosh nuri, yorug'lik, quyosh chiqishi, kunduzi, quyosh botishi, oftob urishi"* kabi bir qancha so'zlarni tezda aytib tashlashi mumkin. Bu, birinchidan, o'sha tilni mukammal bilganidan bo'lsa, ikkinchidan, bu mukammal bilim ortida shu til lug'atlarining zamon talabi darajasida turli xil elektron shakllari mavjudligidan dalolat beradi. Bu kabi lug'atlar imloni standartlashtirish, adabiyotni rivojlantirishga yordam beribgina qolmasdan, tarjimachilikda ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun har bir tilning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, namuna shaklda qayd etilgan domenga asoslanib, millat tili uchun semantik lug'atlarni yaratish zarur. Semantik lug'atlar tezauruslar yaratish, tabiiy tilni qayta ishlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moe Ronald. Compiling Dictionaries using semantic domains. Lexikos 13 (AFRILEX-reeks/series 13: 2003): 215-223.
2. Moe Ronald. What is a semantic domain? Semantic domains. Retrieved 12 July 2014.
3. Ron Moe. Semantic domains. http: // semdom.org 2013. (Accessed 2013-04-01).
4. Wierzbicka Anna. Semantics, primes and universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
5. What is Rapid Word Collection? https://rapidwords.net/.

Dilmurod ESHANQULOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
stajor-o‘qituvchisi

O‘QUV LUG‘ATINING DUNYO TILSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida o‘quv lug‘atlarining yaratilishi va o‘quv lug‘atlarining ilm-fan rivojidagi tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: leksikografiya, o‘quv lug‘atchiligi, antik maktab lug‘atlari, o‘quv-ideografik lug‘atlar.
Annotation. This article discusses the creation of dictionaries in world linguistics and the role of dictionaries in the development of science.
Keywords: lexicography, educational dictionary, antique school dictionaries, educational-ideographic dictionaries.
Аннотация. В данной статье рассматриваются создание учебных словарей в мировой лингвистике и их роль в развитии науки.
Ключевые слова: лексикография, учебная лексика, античные школьные словари, учебно-идеографические словари.

Lug‘atlar ilmiy lingvistik adabiyotlar ichida tillararo munosabatni ta’minlash, tilning grammatik qurilishini tadqiq etish, til me’yorlarini belgilash, jamiyat a’zolarining milliy tafakkuri, nutq boyligini o‘stirish, ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirishdagi bebaho xizmati bilan alohida ajralib turadi. XX asr boshlariga kelib lug‘atlar ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi e’tirof etila boshlandi va tilshunoslikda yangi lingvodidaktik yo‘nalish – o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i paydo bo‘ldi. Natijada jahonning ilg‘or davlatlarida maktab uchun maxsus lug‘atlar yaratilib, ta’lim kompleksining to‘laqonli a’zosiga aylantirildi.

Ma’lumki, har qanday lug‘at jamiyatga nimanidir o‘rgatish maqsadida yaratiladi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug‘atlargina o‘quv lug‘ati toifasiga kiritiladi va ular o‘quv lug‘ati parametrlariga muvofiq tuziladi. O‘quv lug‘ati tarixini o‘rganish harakatlari Yevropa tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham umumiy lug‘atchilik masalalarini o‘rganishdan ikki-uch asr keyin boshlandi. Biroq lug‘atchilik tarixi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar ilk lug‘at namunalarining maktab uchun yaratilgani, barcha umumiy lug‘atlar maktab lug‘atlarining takomillashgan ko‘rinishi ekanini tasdiqlaydi.

Lug‘atchilikning tadrijiy taraqqiyoti haqida gap ketar ekan, ko‘p o‘rinlarda tarjima lug‘atlari – lingvistik lug‘atlar – qomusiy lug‘atlar – ta’limiy o‘quv lug‘atlari – elektron lug‘atlar ketma-ketligi keltiriladi. Jahon tilshunosligida lug‘atchilik tarixi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar lug‘atlarning ilk ko‘rinishlari ta’limiy maqsadlarda yaratilgan degan xulosaga olib kelmoqda. Eramizdan avvalgi IV–III asrlarda qadimgi Mesopotamiyada – shumer va akkad davrida – ikki tutqun uzoq vaqt bir xonada saqlanadi. Ular mutlaqo boshqa-boshqa tilda so‘zlashsalar-da, doimo o‘zaro muloqotda bo‘la olganlar. Bunga qanday erishdilar? Uzoq davom etgan tutqunlik ularning olamshumul kashfiyot yaratishlariga sabab bo‘ldi. Mahbuslar o‘simliklar, mevalar, tog‘, tosh, daraxt, charm, sopol, xudolar, ibodatxona va turli buyumlar rasmi tushirilgan ro‘yxatlar tuzib, o‘z tillarida qanday yozilishini belgilab chiqadilar va shu asosda har ikki tilni o‘rganishda yordam beradigan bo‘g‘in belgilari tushirilgan sillabik yozuvli so‘zlashgichni yaratadilar. Ushbu ilk so‘zlashgich namunasi Nippur shahridagi qadimgi shumer ibodatxonasi kutubxonasida saqlanib, til o‘rganuvchilar uchun dastlabki o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishiga turtki bo‘ldi.

Hozirgi zamonaviy maktab o‘quv lug‘atlari tadrijiy taraqqiyotini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:

1. Antik maktab lug‘atlari.
2. Ko‘p tilli o‘quv lug‘atlari.
3. Takomillashgan lingvouslubiy o‘quv lug‘atlari.

Birinchi bosqich lug‘atlariga jahon lug‘atchiligining ilk namunalari kiritiladi. Fransiya, Italiya, Angliya, Rossiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida keng yoyilgan o‘quv lug‘atchiligi an’anasining shakllanishi va taraqqiy etish o‘choqlari qadimgi Rimdan Vizantiyagacha bo‘lgan hududlarga to‘g‘ri keladi. Aniqroq aytganda, bu ma’naviy yuksalishlar qadimgi Sharq madaniyati bilan uyg‘unlashgan yunon-lotin lingvistik an’analari qurshovida kechadi.

Eng qadimiy lug‘at namunalari Misr, Mesopotamiyadan topilgan bo‘lib, Aristofan Vizantiyskiy (eramizdan avvalgi III–II asrlar) va Dionisiy Frakiyskiy (eramizdan avvalgi II asr)ga tegishli. Vizantiyskiyning lug‘ati antik davr klassiklari asarlaridagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlar izohiga bag‘ishlangan bo‘lsa, Frakiyskiy lug‘ati bevosita maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan. U grammatik xarakterdagi lug‘at bo‘lib, so‘zlar turkumlarga ajratib chiqiladi. Qaysidir ma’noda bu lug‘atni ideografik lug‘atning antik ko‘rinishi sifatida ham baholash mumkin.

Eramizdan avvalgi IV–III asrlarda qadimgi Mesopotamiyadagi akkad va shumer qabilalari tamo-

man boshqa-boshqa tilda gaplashishsa-da, bir-biri bilan nihoyatda chatishib ketishgan edi. Ular uchun til o‘rganish dolzarb muammoga aylangani sababli akkad va shumer tillarini o‘rgatadigan turli maktab qo‘llanmalarini yaratish talabini o‘zlari o‘rtaga tashlaydilar. Bu talabni amalga oshirish maqsadida davlatlar, tog‘ va toshlar, o‘simliklar, mevalar, daraxtlar, charm va sopol buyumlar, xudolar, ibodatxona nomlarining qadimiy, sodda ro‘yxatlari tuzilib, har ikki tilni o‘rganishda yordam beradigan bo‘g‘in belgilari tushirilgan sillabik yozuvli so‘zlashgichlar yuzaga keladi. Yuqorida tilga olingan qadimgi shumer shahri Nippurdagi ibodatxona kutubxonasidan ilk ibtidoiy maktablarda til o‘rganuvchilar uchun tuzilgan bir qancha dastlabki o‘quv qo‘llanmalari va turli grammatik mashqlar to‘plamlari topilgan.

Yunonlar rimliklarda ham lug‘at-qo‘llanmalar tuzishga nisbatan ishtiyoq uyg‘otadilar va natijada rimliklar ham lug‘atchilikdagi izlanishlarini maktablar uchun xizmat qiluvchi lug‘atlar yaratishga qaratadi. 12 dan 16 yoshgacha bo‘lgan rimlik o‘spirinlar maktablarda ellinistik ruhda tarbiyalanar, ularga yunon-rim madaniyati, tili va adabiyoti o‘qitilar edi. Qadimgi rimlik pedagog va notiqlik san’ati ustasi Kvintilian (miloddan avvalgi I asr) 12 kitobdan iborat “Notiqning savodxonligi haqida” deb nomlangan asarida notiqlik san’ati tadqiqi davomida tarjima nazariyasi haqida ham to‘xtaladi. Yunon tilidan lotinchaga tarjima qilish misolida o‘z tavsiyalarini berar ekan, tarjimani “kundalik o‘quv mashqlari” deb nomlaydi. Sanskritcha lug‘atlar ichida eng mashhuri Amarasingxning (VI–VIII asrlar) “Amarakosha” o‘quv-ideografik lug‘ati hisoblanadi. Hind lug‘atchiligi bilan birga arab, fors lug‘atchiligi ham nihoyatda takomillashib, madaniy va ma’naviy yuksalishda katta ro‘l o‘ynadi.

Kuzatishlardan ilk yaratilgan lug‘atlar asosida ta’limiy maqsadlar yotgani ma’lum bo‘ladi. Ularning ba’zilari matndagi ma’nosi notanish so‘zlar izohiga bag‘ishlangan (glossariy) bo‘lsa, ayrimlari boshqa tilni o‘rganish, nutq madaniyatini o‘stirish yoki muayyan davlat so‘zlashuv tilining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatish uchun xizmat qilgan. Lekin ilk lug‘atlar, hatto ularning nomlanishi ham, o‘quv jarayoniga moslangan, ta’limga yo‘naltirilgan. Xususan, 1500-yilda yaratilgan birinchi lotincha-inglizcha lug‘atning “Bolalar uchun xazina” (“Promptulorium parvulorum”), 1487–1507-yillarda yaratilgan fransuz va lotin tillaridagi dastlabki tarjima lug‘atlarining “Yoshlar uchun izohnoma” (“Seminarium et planetarium fructiferarum”), “Bolalar uchun ixcham lug‘at” (“Diktionariolum puerorum”) deb nomlanishi buni isbotlaydi.

Lug‘atlar tillararo munosabatda muhim o‘rin tutib, o‘rta asrlarda (Yevropada) lotin, yunon, qadimgi slavyan tillari bo‘yicha tarjima lug‘atlarini yaratish leksikografiyaning asosiy vazifasiga aylangan edi. Yevropa o‘quv maskanlarida lotin tili bir necha asrlar mobaynida Yan Amons Komenskiyning “Мир чувственных вещей в картинках” (8 ming so‘z, birinchi nashri 1658-yilda chiqqan) nomli lug‘at qo‘llanmasi asosida o‘qitib kelingan. O‘z davrida bu kitob “словарь-минимум” (kichik lug‘at) deb yuritilib, zamonaviy ta’limotda yuksak baholangan. Komenskiyning tinimsiz mehnati samarasi o‘laroq, mavzuiy rasmli o‘quv lug‘atlari seriyasini yaratishga keng yo‘l ochiladi.

O‘quv lug‘atlari takomillashuvining ikkinchi bosqichi tarixdagi “Bosib ol va hukmronlik qil” siyosati bilan bevosita aloqador. Lug‘atlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim xizmatini birinchilardan bo‘lib payqagan inglizlar undan o‘zlari mustamlakaga aylantirgan hududlarda ingliz tilini tez va samarali o‘qitishda keng foydalanadi. Shuningdek, rus tilshunosligida o‘quv lug‘atlarining paydo bo‘lishiga ham sobiq imperiya tasarrufidagi millatlarga rus tilini samarali o‘rgatish ehtiyoji sabab bo‘ladi.

Milliy maktablarda rus tilini o‘qitish uchun xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy qo‘llanmalarni yaratish va ularni tadqiq etish harakatlari XIX asrning oxirlaridan boshlanadi. “O‘quv lug‘ati” termini rus leksikografiyasida ilk marta Yevgeniy Polivanovning 1926-yilda nashr etilgan “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at”iga yozgan kirish so‘zida qo‘llanilgan. Muallif lug‘atni tavsiflar ekan, “… lug‘at hajmiga ko‘ra o‘quv lug‘ati tipiga mansub...” deb o‘quv lug‘atlarining hajman kichik bo‘lishiga ishora qilib o‘tadi.

Lug‘atlarning til o‘rgatish va o‘rganish jarayonida yuqori samara berishi, natijalarning kutilganidan ortiq bo‘lishi o‘quv lug‘atchiligi qamrovining yanada kengayishiga sabab bo‘ldi. Asosiy vazifasi begona tillarni o‘qitish yoki ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni izohlash bo‘lgan lug‘atlar XX asr boshlaridan ona tili o‘qitishning muhim vositasi sifatida e’tirof etila boshlandi. Bu esa o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyotining uchinchi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat berardi.

Zamonaviy maktab uchun maxsus lug‘at yaratish harakatlarining paydo bo‘lishi ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritish, xususan, retroskopik ta’limdan verbal kognitiv ta’lim usuliga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, kognitiv ta’lim retroskopik ta’limdan o‘quv materialining darslik materialidan bir necha marotaba kattaligi, o‘quvchining o‘z ustida mustaqil ishlashi, zaruriy ma’lumotlar axborot banklari – lug‘atlar – ona tili xazinalaridan izlanishi bilan farqlanadi. Darslikdan barcha zaruriy ma’lumotlarni olgan o‘quvchida izlanish, mustaqil ishlashga ehtiyoj qolmaydi.

O‘quvchini izlab topish, mustaqil xulosalar chiqarishga yo‘naltiradigan bu texnologiya zamonaviy pedagogik amaliyotda eng samarali usul deb topilgan va jahonning qator ilg‘or davlatlarida XX asr boshlaridayoq ta’lim tizimiga joriy etilgan. Xususan, rus maktablari uchun yigirmadan ortiq mavzuiy o‘quv lug‘ati yaratilib, katta tirajda ommalashtirilgan va ta’lim jarayonining tarkibiy qismiga aylantirilgan. Shuningdek, rus tilini chet elliklarga o‘rgatishda ham o‘quv lug‘atlaridan keng foy-

dalanilgan. O‘quv lug‘atchiligining shakllanishi o‘zbek tilshunosligida birmuncha keyingi davrlarga to‘g‘ri kelib, ancha sust kechgan. Maktab o‘quvchilari uchun yaratilgan birgina “Imlo lug‘ati”ni e’tiborga olmaganda, boshqa maxsus o‘quv lug‘atlarini uchratmaymiz. To‘g‘ri, o‘quv lug‘ati tipiga yaqin bir necha kichik lug‘atlar ham yaratilgan, biroq ular o‘quv lug‘atlarining barcha talablariga javob bermaydi. Mazkur qo‘llanmalarni ommabop cho‘ntak lug‘atlari sifatida baholash o‘rinliroq. Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, milliy o‘zligini tanitish, ongida ma’naviy-ma’rifiy inqilob hosil qilish, tafakkur mahsulini yozma va og‘zaki usullarda savodli bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi ona tili ta’limi zimmasiga yuklatiladi. Shu bois mustaqillikdan keyin ona tili ta’limi mazmuni va tadriji tubdan isloh qilinib, uning bosh maqsadi ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish, har bir maktab bitiruvchisining o‘z ona tilida fikrini yozma va og‘zaki shakllarda savodli bayon qilish ko‘nikmasini shakllantirish deb belgilandi.

Kognitiv texnologiya asosida yaratilgan ona tili darsligi bilan ishlash lug‘atlarga bo‘lgan talabni yanada oshirdi. Umumiy ta’limning davlat ta’lim standartida ona tili o‘qitishning zaruriy vositasiga darslik bilan bir qatorda, lug‘atlar ham kiritildi. Tajribalardan ma’lumki, lug‘atlarning umri darslik umriga qaraganda 4–5 marta uzoq bo‘ladi. Lug‘at o‘quvchini o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi, uning doimiy hamrohi, barcha savollariga javob bera oladigan beminnat yordamchisi bo‘la oladi. O‘quvchilar uchun zarur bo‘lgan lug‘atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish vositasi bo‘lgan joriy darsliklar o‘z vazifasini to‘la bajara olmaydi. Ta’limdagi bu yuksalishlar o‘zbek tilshunosligi fani oldiga o‘quv lug‘atchiligining tarixiy ildizlarini va o‘zbek leksikografiyasida o‘quv lug‘ati tipida yaratilgan lug‘atlarni aniqlash, o‘quv lug‘atlarining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, o‘quv lug‘atlarining tavsifiy belgilarini ajratish, o‘quv lug‘atlarining o‘quv-metodik qurilmasini yaratish, o‘quv lug‘atlari yaratishning asosiy mezonlarini aniqlash, o‘quv lug‘atiga material tanlash masalalariga oydinlik kiritish, o‘quv lug‘atlarini tasniflash, jahon tilshunosligida zamonaviy leksikografiya yutuqlariga tayangan elektron lug‘atchilik – Uznet, Uznetz, Uzschats kabilarni yaratish tamoyillarini ishlab chiqish, o‘zbek milliy o‘quv lug‘atchiligining navbatdagi masalalarini belgilab berish vazifalarini qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxriddinova B. O‘zbek o‘quv lug‘atchiligining nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. – Qarshi: Fan va ta’lim, 2020.
2. Normamatov S. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni: Filol. fan. dok... diss − Toshkent, 2019.
3. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida leksik graduonimiya: Filol. fan. nomz. diss... avtoref. – Toshkent, 1996.
4. Omonturdiyev A., Xoliyorov O‘., Qorjovova G. Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi: tahlil va tadqiq – Termiz, 2016.
5. Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.

Чжан Хан,
магистрант II курса Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ПОЭТИКА КАК ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ

Аннотация. “Поэтика” как литературоведческая категория прошла сложную историю развития. Вначале нацеленная на описание наиболее общих свойств художественной формы и представлявшая свод универсальных теоретических положений, впоследствии показала необходимость включения в сферу ее рассмотрения национального, временного, индивидуального, социального, исторического и общекультурного элемента. Для русского литературоведения ключевое значение имели труды ученых, утвердивших в своих трудах принцип историзма для изучения истории русской литературы и поэтики художественных произведений. Наиболее актуальной представляется направление, связанное с исследованием “поэтики” конкретных художников и отдельных произведений.
Ключевые слова: поэтика, теория, национальный, историзм, автор.
Annotatsiya. “Poetika” adabiy kategoriya sifatida murakkab rivojlanish tarixini boshidan kechirdi. Dastlab u badiiy shaklning eng umumiy xususiyatlarini tavsiflashga qaratilgan bo‘lib, universal nazariy tamoyillar to‘plamini ifodalagan. Poetikaning keyingi evolyutsiyasi unga milliy, davriy, individual, ijtimoiy, tarixiy va umumiy madaniy elementni kiritish zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, rus adabiyotshunosligi uchun rus adabiyoti tarixini, badiiy asarlar poetikasini o‘rganish tarixchilik tamoyilini o‘z asarlarida asoslab bergan olimlarning asarlari hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Eng dolzarb yo‘nalish aniq mualliflar va individual asarlarning “poetikasini” o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lmoqda.
Kalit so‘zlar: poetika, nazariya, milliy, tarixshunoslik, muallif.
Annotation. “Poetics” as a literary category has undergone a complex history of its development. At first, it was aimed at describing the most general properties of artistic form and represented a set of universal theoretical provisions. The subsequent evolution of poetics showed the need to include in the scope of its consideration the national, temporal, individual, social, historical and general cultural elements. In particular, for Russian literary criticism, the works of scholars who established in their works the principle of historicism for studying the history of Russian literature and the poetics of works of art were of key importance. The most relevant direction is related to the study of the “poetics” of specific artists and individual works.
Keywords: poetics, theory, national, historicism, author.

Теория художественной словесности прошла сложную историю своего развития. Отрасль, обозначаемая как «поэтика» или «общая поэтика», сложилась в филологии много веков назад. Основываясь на исключении всего частного (индивидуального фактора и т.д.), она была нацелена на описание наиболее общих свойств художественной формы и мыслилась ее создателями как свод универсальных теоретических положений, однако «общая поэтика» сравнительно быстро обнаружила свою ограниченность.

Последующая эволюция поэтики как науки показала, что к универсальности эта отрасль филологического знания может приблизиться не исключением из сферы своего рассмотрения национального, временного, индивидуального, социального, исторического и общекультурного элемента, а, по-видимому, противоположным образом, полноценно привлекая такого рода элементы к рассмотрению. Путь к универсальности состоит не в уходе от конкретики, а в максимальном углублении в нее. Например, Гегель точно подметил, что существенно обогатило поэтику как науку, теорию, ее обращение к литературному опыту неевропейских народов, заключающему в себе, с точки зрения европейца, «нечто чуждое и необычное» в области литературной практики; «это признание художественных произведений, выпадающих из круга и форм тех произведений, которые преимущественно служили основой теоретических абстракций, привело к признанию своеобразного вида искусства – романтического искусства» [1, с. 8]. Итак, позитивные видоизменения принес в поэтику учет национального фактора. Нет нужды напоминать подробно, насколько методологически возвысил данную науку учет исторического фактора (работы А.Н.Веселовского, В.М.Жирмунского и других по «исторической поэтике»).

В частности, Александр Веселовский, ставший основоположником сравнительно-исторической школы, как и его младший брат, Алексей Веселовский, тоже примкнувший к новому направлению в литературоведении, в своих изысканиях опирался главным образом на традиции культурно-исторической школы, стремясь преодолеть ее ограниченность при выработке нового метода. Поэтому можно сказать, что русская сравнительно-историческая школа вышла из недр культурно-исторического направления, ознаменовав на новом этапе истории науки дальнейшее развитие его идей. Что же касается теории заимствования, то Александр Веселовский, придавая огромное значение ее разработке, в то же время считал ее частной гипотезой, не имеющей смысла вне системы иных построений, то есть иными словами, в отличие от Алексея

Веселовского и других он никогда не был ее последователем.

Александр Веселовский солидаризировался с теми, кто видел главную задачу истории литературы в изучении ее народных основ. Он полагал, что историк литературы должен хорошо знать народную жизнь и отнюдь не во внешних ее проявлениях, а в ее внутренней сущности. «Скажите мне, как народ жил, и я скажу вам, как он писал...», – резюмировал он свои рассуждения на этот счет. Ставя изучение литературного развития в зависимость от познания реальной истории, Александр Веселовский, естественно, столкнулся с необходимостью определить свое отношение к различным философско-историческим системам.

Здесь он во многом отмежевался от западноевропейской культурно-исторической школы, которая, опираясь на философский позитивизм, экстраполировала законы природы на общественно-культурную сферу и рассматривала историю только как эволюционный процесс. «Чем ближе к нам, – возражал Веселовский, имея в виду новейшую цивилизацию, – тем ярче выступает система общественных законов в ее противоположности с законами чисто физиологической жизни, которые везде составляют ее подкладку. Но эта подкладка такая далекая, она перешла через целый ряд преданий, успела формулироваться в обычаи и закон, так что дальнейшее ее развитие уже совершается в формах этого закона и обычая». Находясь в Германии в то время, когда наиболее ревностные последователи Гриммов, доведя их учение до крайности, сделались мишенью нападок, особенно со стороны адептов теории заимствования Бенфея, русский ученый, разумеется, не мог пройти мимо этого спора. И любопытно: он сразу же подметил, что обе эти гипотезы, поскольку они пренебрегают возможностью сходства произведений вследствие отражения сходных условий жизни, одинаково несостоятельны. Возражая непосредственно мифологам, которые в противоположность бенфеистам предпочитали объяснять сходство поэтических произведений их происхождением от общего доисторического арийского предка, он писал: «Заимствование, видите ли, оскорбительно, наследство неоскорбительно, хотя наследство то же заимствование, особенно из таких далеких рук, как наши праотцы на Иранской возвышенности». При этом Александр Веселовский опирался на предшествующие западноевропейские концепции.

Изучая доисторический быт, ученый стремится выяснить, какие мотивы могли зародиться в сознании первобытных людей на основе отражения условий их жизни. Так, к явлениям тотемизма, по его наблюдению, восходят мотивы распространенных повсеместно легенд и сказок о происхождении людей от зверей и растений, о браке животных с людьми, о зверях-кормильцах и пр.; на почве матриархата возникали всевозможные мотивы партеногенезиса и боя отца с сыном и т.д.

Устанавливая путем такого сравнительного изучения доисторического быта и его отражений в древнейших поэтических памятниках зачаточные мотивные формулы, Веселовский далее стремится пролить свет на историю их преобразования в сложные композиции, простирающиеся вплоть до современности. Далеко не все одночленные мотивные формулы, возникавшие по какому-либо случаю, удерживались в истории. Но те из них, которые приспосабливались для ответа на многие аналогичные запросы быта и впечатлений, по необходимости развертывались, вбирая в себя новые формулы, и обобщались, схематизировались в более сложные связи.

Схематизация действия естественно сопровождалась схематизацией действующих лиц, выработкой типов, причем такое обобщение соединялось с оценкой действия, положительной или отрицательной. Так как на разных ступенях одно и то же явление оценивалось различно, Веселовский считал этот момент чрезвычайно важным для установления хронологии сюжетности: «если, например, такие темы, как Психея и Амур и Мелюзина, отражают старый запрет брака членов одного и того же тотемистического союза, то примирительный аккорд, которым кончается Апулеева и сродные сказки, указывает, что эволюция быта уже отменила когда-то живой обычай: оттуда изменение сказочной схемы».

Пользуясь таким приемом приурочивания мотивов к разным ступеням человеческой культуры, мы можем разобраться даже в самых сложных сюжетах, которые каждая эпоха, приспосабливая для выражения своего миропонимания, перерабатывала, обновляла их состав, так что на высшем, современном уровне развития сюжетности ее первооснова теряется в пестром многообразии и богатстве накопленных элементов. «И мотивы и сюжеты, – поясняет Веселовский, – входят в оборот истории: это формы для выражения нарастающего идеального содержания. Отвечая этому требованию, сюжеты варьируются: в сюжеты вторгаются некоторые мотивы, либо сюжеты комбинируются друг с другом...». При этом часто «новое освещение получается от иного понимания стоящего в центре типа или типов (Фауст). Этим определяется отношение личного поэта к традиционным поэтическим сюжетам; его творчество».

Таким образом, сам объективный ход эволюции поэтики как филологической отрасли оказался в данном случае живой иллюстрацией философского положения о том, что принцип историзма имеет ключевое значение и для истории русской литера-

туры, и для изучения поэтики художественных произведений.

В последнее время в литературоведении явно переживает своего рода взрыв популярности термин «поэтика», употребляемый, однако, не в том смысле, к которому привыкла филология. В самом деле, на протяжении многих веков слово «поэтика» означало научную отрасль и разрабатывающие ее исследования, прежде всего на основе «Поэтики» Аристотеля. Сравнительно давно слово «поэтика» стало употребляться в ином смысле – как краткий синоним выражения «система выразительных средств литературы». Ныне же происходит нечто новое. Появилось большое количество публикаций о «поэтике» конкретных художников, например, М.В.Ломоносова, В.К.Тредиаковского, Г.Р.Державина, А.С.Пушкина, М.Ю.Лермонтова, Н.В.Гоголя, И.А.Гончарова, И.С.Тургенева, Ф.М.Достоевского, Л.Н.Толстого, И.А.Бунина, А.И.Куприна, А.А.Блока, А.А.Ахматовой, О.Э.Мандельштама, В.В.Маяковского, С.А.Есенина, Е.И.Замятина, А.П.Платонова, М.А.Булгакова и других. Такая «инновация» в употреблении термина прежде всего связана с работой «Проблемы поэтики Достоевского» М.М.Бахтина, который в своем исследовании наглядно показал, как Ф.М.Достоевский, отойдя от старой художественной формы, расширил возможности романного слова. Писатель использовал в своих произведениях совершенно новое литературное мышление, при котором слова героев стали звучать будто из разных, независимых друг от друга источников, создавая определенную полифонию текста.

Исследование произвело настоящую революцию в культурологическом мире и не утратило актуальности и в наше время – оно дает читателям возможность лучше понять творчество и истинный смысл произведений великого русского писателя.

По мнению Ю.И.Минералова, такое употребление термина не является «корректным и плодотворным» [1, с. 9]. В подтверждение своего тезиса ученый приводит работу П.А.Николаева «Снова о творческом методе и стиле (устойчивы ли эти категории в науке)». В частности, исследователь отмечает: «столь же популярным, сколь неясным словом «поэтика»... не выражается ничего иного, кроме стиля» [2, с. 9].

По нашему мнению, следует учитывать тот факт, что развитие поэтики на сегодняшний день свидетельствует о необходимости изучать поэтику отдельного автора и выделять наиболее значимые, существенные, характерные черты проблематики, идейно-нравственных особенностей, композиции, в частности, актуальными являются исследования по поэтике повести А.И.Куприна «Молох».

Литература

1. Минералов Ю.И. Теория художественной словесности. М., 1999.
2. Николаева П.А. Снова о творческом методе и стиле (устойчивы ли эти категории в науке) // Вестник МГУ, серия 9 «Филология», 1984, №5.

Rahmatullo RO‘ZIQULOV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, professor;
Maysara ESHNIYAZOVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILIGA OID KO‘NIKMALARNING VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDAGI ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi o‘rni va mavqeyining til siyosatiga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida mustahkamlanishi, o‘zbek tilining ta’lim tizimida o‘qitilishi, tahsil oluvchilarning og‘zaki va yozma nutqiy savodxonligi darajasi hamda uni oshirish yo‘llari, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining o‘qitilishi, mazkur fanni o‘qitish zarurati va ahamiyati, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, muloqot, nutq madaniyati, nutq texnikasi, og‘zaki va yozma nutq, nutqiy me’yor, no-filologik soha, pedagogik texnologiyalar.

Annotation. In this article, opinions are presented on strengthening the position and status of the Uzbek language as a state language on the basis of legal and regulatory documents related to language policy, teaching the Uzbek language in the educational system, the level of students’ oral and written speech literacy and ways to improve it, teaching the subject “Use of the Uzbek language in the field”, the necessity and importance of teaching this subject and the effective use of modern pedagogical technologies in the organization of practical training.

Keywords: Uzbek language, communication, speech culture, speech technique, oral and written speech, speech norm, non-philological field, pedagogical technologies.

Аннотация. В данной статье представлены мнения об укреплении положения и статуса узбекского языка как государственного на основании нормативно-правовых документов, касающихся языковой политики, о преподавании узбекского языка в системе образования, об уровне грамотности устной и письменной речи студентов и способах ее повышения, о преподавании предмета “Использование узбекского языка в сфере”, необходимости и важности преподавания данного предмета и об эффективном использовании современных педагогических технологий в организации практических занятий.

Ключевые слова: узбекский язык, общение, культура речи, техника речи, устная и письменная речь, речевая норма, нефилологическое поле, педагогические технологии.

Mamlakatimiz insonparvarlik va ezgulik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida yangi bosqichdagi rivojlanish yo‘lida qat’iy davom etmoqda. Uchinchi Renessans davrida o‘z oldiga yurt kelajagini kafolatlaydigan, xalqimizning farovon va erkin yashashini ta’minlashga zamin tayyorlaydigan ulkan maqsadlarni qo‘ygan holda ildamlab bormoqda. Jamiyat hayotining har bir jabhasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, qadriyatlarimiz himoyasi kafolatlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan me’yoriy hujjatda belgilab berilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatning barcha bo‘g‘inlarini salohiyatli kadrlar bilan ta’minlash talab qilinadi. Shubhasiz, bu holat ta’lim tizimi oldiga bilimli, malakali, yuksak salohiyatli, kreativ fikrlovchi, yangilikka intiluvchi yosh avlodni va turli sohalar bo‘yicha iqtidorli mutaxassislarni tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Demak, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli va mukammal ta’lim olishini ta’minlash bilan birga, ularning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish; fuqarolik tuyg‘usini o‘stirish; ularni vatanparvarlik, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida hamda zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash lozim.

Oliy ta’lim uzluksiz ta’limning oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichdan iborat mustaqil turi ekanligi nazarda tutilsa, bo‘lajak kadrlarning sohaga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladigan, kasbiy mahorat sirlarini o‘rganadigan davri aynan oliy

ta’lim muassalarida kechadi. Shu bilan birga, talabayoshlarning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy sohalarda, hayotiy munosabatlarda faol ishtirok etishi ham ularning oliy ta’lim olish davridan boshlanadi.

Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari tilimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Yangi so‘z va atamalar paydo bo‘lmoqda, shu bilan birga, milliy til lug‘at tarkibiga katta miqdordagi chet so‘zlar kirib kelmoqda. Bu esa til siyosatida o‘zgarishlar qilish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbek tili 1989-yilning 21-oktabrida Davlat tili darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni [1] o‘zbek tilining bu boradagi maqomini yana bir marta mustahkamlab qo‘ydi. 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084 sonli Farmon hamda “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi o‘zbek tilining ijtimoiy maqomining yanada barqarorlashuvini ta’minladi.

Mazkur me’yoriy hujjatlarda “o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash” asosiy maqsad qilib belgilangan [3]. “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da nazarda tutilgan vazifalar barcha soha vakillarining, ayniqsa, filolog o‘qituvchilarning mas’uliyatini oshirishi tabiiy. Jumladan, konsepsiyada mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish kabi belgilangan masalalar nafaqat til bilan aloqador soha vakillariga, balki turli jabhalarda faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishli ekani shubhasizdir.

Turli sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalari faoliyati ko‘lamini kengaytirish, ta’lim va ishlab chiqarishni uzviy bog‘lash maqsadida oliy ta’lim muassasalarining nofilologik ixtisosliklar bo‘yicha tahsil oladigan, ta’lim o‘zbek va o‘zga tillarda olib boriladigan yo‘nalishlarda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanini o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur fanning maqsadi talabalarning o‘zbek tilidan egallagan bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, ularning og‘zaki va yozma nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta’minlashga erishish, sohaga oid ish hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishtirishdan iborat. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanini o‘qitish uchun belgilangan o‘quv rejaga asosan, 30 soatlik amaliy mashg‘ulot va 30 soatlik mustaqil ta’lim – jami 60 soatlik yuklama ajratilgan bo‘lib, fanni o‘zlashtirish natijasida talabalar ushbu fan orqali adabiy til va uning me’yorlariga amal qilish fanning asosini tashkil etishi haqidagi tasavvurga, o‘zbek tilining so‘z boyligi imkoniyatlaridan keng foydalangan holda gaplarni to‘g‘ri tuzish, uslubiy qo‘llanishlarni bilish ko‘nikmalariga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda o‘zbek tilining grammatik qoidalari me’yorlariga amal qilgan holda mustaqil ifodalay bilishi, o‘zbek xalqining tarixi, an’analari, urf-odatlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda erkin muloqotga kirisha olishi, davlat tilida yetarli darajada yozma savodxonlikka va rasmiy ish yurita olish malakasiga ega bo‘lishi kerak. Fanning o‘quv dasturlarini tuzishda aynan shu jihatlar hisobga olinadi.

Veterinariya va chorvachilik sohasida ham ona tilining qoidalarini puxta o‘zlashtirgan, so‘z boyligi va nutqiy kompetentsiyalari yuqori bo‘lgan yetuk va malakali kadrlarga ehtiyoj yetarlicha. Aytish joizki, bu sohada mutaxassis bo‘lishni niyat qilgan aksariyat nomzodlar ona tilini bilishni ikkinchi darajali ish deb hisoblashadi. Vaholanki, bugungi kunda veterinariya va chorvachilik sohasida tahsil olayotgan ko‘pgina yoshlarning og‘zaki va yozma nutqi, savodxonlik darajasi, so‘z boyligi, fikrini erkin, tutilmasdan ifodalay olish ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan. O‘zbek tili imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish borasida soha mutaxassislari, hatto pedagog-o‘qituvchilar nutqida ham juz’iy kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Vaholanki, har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazish, ya’ni axborot va his-tuyg‘ular almashishdan iborat. Shu bois har qanday shaxs muloqot madaniyati mezonlari: so‘zlash san’ati, tinglash qobiliyati, suhbatdoshni to‘g‘ri tushunish va xolis baholash ko‘nikmasi, kishilar bilan munosabat o‘rnata bilish, o‘zaro manfaatdorlik asosida unga samarali ta’sir o‘tkaza olishga amal qilishi kerak. Muloqot jarayoni esa o‘z navbatida, nutqning to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, ta’sirchanlik, jo‘yalilik kabi sifatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Mana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutqqina madaniy nutq hisoblanadi. Tilshunoslikda og‘zaki va yozma nutq degan tushunchalar bor, har ikkala nutq ko‘rinishining umumiy va xususiy me’yorlari, qonuniyatlari mavjud. Og‘zaki nutqda fonetik, aksen-

tologik, orfoepik me'yorlarga amal qilish talab qilinadi. Nutq texnikasiga ko'ra, og'zaki nutqda ovozning sifati, nafas, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish – aniq diksiya, mazmuniy-hissiy intonatsiya, urg'u, to'xtam (pauza), temp, ohang (ritm), ovoz tembri, talaffuz kabi asosiy tushunchalar borki, har qanday so'zlovchi ularni bilishi va ularga amal qilishi zarur. Zero, nutq texnikasi talab darajasida shakllangan kishi umumiy nutqiy madaniyatning eng muhim qismini o'zlashtirgan hisoblanadi. Shuningdek, yozma nutqning ham o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlari: imlo (orfografik) va tinish belgilari (punktuatsion) me'yorlari mavjud. Ham og'zaki, ham yozma nutqda amal qilinishi talab etiladigan leksik, grammatik (morfologik va sintaktik), so'z yasalishi, uslubiy me'yorlarni bilish hamda ularga rioya qilish nutqiy savodxonlikni oshiradi, fikrni to'g'ri va aniq ifodalash imkonini beradi.

Nafaqat veterinariya va chorvachilik sohasida mutaxassis bo'lishga intilayotgan va shu yo'nalishda tahsil olayotgan, balki boshqa sohalarni tanlagan talabalar (hatto ishchi-xodimlar) ham nutq madaniyati, nutq texnikasini filologlardan kam bilmagan holda o'zlashtirishlari shart. Faoliyatimizdagi kuzatish va xulosalar asosida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda yosh avlod, jumladan, veterinariya va chorvachilik sohasining bo'lajak mutaxassislari nutqida bir qator kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanmoqda:

– o'zbek tilidagi faol qo'llanuvchi so'zlar ma'nosini bilmaslik yoki ularni qo'llashda mohiyatiga e'tibor qaratmaslik. Bu kamchilik nutq mantiqiyligining buzilishiga olib keladi;

– og'zaki nutqda so'z boyligining yetarli emasligi, so'zlarning ma'nodoshlarini bilmaslik yoki bilganda ham zarur o'rinda qo'llay olmaslik. Bu holat muloqot jarayonida so'zlarning noo'rin takroriga sabab bo'ladi;

– shevaga xos birliklar, o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar), dag'al so'z va iboralar (vulgarizmlar) va "ishlamaydigan" – parazit so'zlardan foydalanish. Bu esa nutqning sofligiga putur yetkazadi;

– talaffuzdosh so'zlarni farqlamaslik. Bu holat fikrni noaniq ifodalashga sabab bo'ladi;

– sohaga oid atamalarni (ayniqsa, o'zlashma qatlamga mansub sohaviy terminlarni) noto'g'ri talaffuz qilish va ma'nosiga mos holatda qo'llamaslik. Bu jarayon rfoepik, imloviy va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga, nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligiga putur yetadi;

– grammatik qo'shimchalarni to'g'ri qo'llamaslik. Bu kamchilik orfologik me'yorning hamda fikrning aniqlik, to'g'rilik sifatlarining buzilishiga olib keladi;

– gap tarkibidagi birliklarni o'z o'rnida ishlatmaslik. Natijada nutqning mantiqiyligi, to'g'riligi, aniqligiga putur yetadi, sintaktik me'yor buzilishiga sabab bo'ladi;

– imlo qoidalariga va tinish belgilarini qo'llash me'yorlariga amal qilmaslik. Buning ortidan nutq to'g'rilik, aniqlik, ifodalilik sifatlarini yo'qotadi;

– matndagi mazmuniy, mantiqiy, kompozitsion bog'liqlikni ajrata bilmaslik. Bu holat sohaga oid matnlarni o'qib tushunish, idrok etish, atamalar va ularning izohini xotirada saqlab qolish, ma'lumotlar asosida mantiqiy fikrlab yangi xulosalar chiqara olishda talabaning oldida turli to'siqlar va qiyinchiliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Talabalar nutqiga oid bunday kamchiliklarni ko'plab keltirish mumkin. Nutqiy muammolar bora-bora talabaning ruhiy holatiga ta'sir qiladi: unda tushkunlikka tushish, ishonchsizlik, jur'atsizlik, qiziqishlarning so'nishi, zerikish holatlari kuzatiladi, buning oqibatida esa dangasalik, befarqlik, loqaydlik kabi salbiy odatlar shakllana boshlaydi, ma'naviy immunitet susaya boradi, o'qib-o'rganish uchun sarflanishi lozim bo'lgan vaqt befoyda ishlarga ketkaziladi.

Talabaga qiyinchilik tug'diradigan asosiy jihat shuki, veterinariya sohasiga oid aksariyat terminlar o'zlashma qatlamga oid bo'lib, ularni albatta to'g'ri yozilishi va ma'nosi bilan birga xotirada saqlab qolish talab etiladi.

Ta'lim – yaxlit bir tizim, unda barcha qismlar bir maromda, o'z vazifasini astoydil bajargan holda ishlashi kerak, aks holda "nosozlik" sodir bo'ladi. Bu holat kelajak avlodlar taqdiri bilan bog'liq ekan, befarq qarab turishga hech kimning haqqi yo'q. Ona tili bu borada xuddi shu tizimning asosiy unsuri, hal qiluvchi boshqaruv pultidir. Ona tilini bilish shunchaki gapirish emas, balki manfaatli muloqotni, iliq muhitni, do'stona munosabatlarni, kafolatli hamkorlikni, keng qamrovli karyerani, ishonchli kelajakni ta'minlash demakdir.

Ona tilini yaxshi bilgan, undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini to'liq egallagan talaba mutaxassislik va nomutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda, garchi ular qanchalik qiyin bo'lsa ham, har qanday muammoni yengib o'ta oladi. Bu borada "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani talabalarga katta yordam beradi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda, topshiriq va mashqlarni tanlayotganida ona tili fani o'qituvchisi mana shu jihatlarni hisobga olishi, talabalar uchun manfaatli bo'ladigan ko'rsatmalarni berishga, ularning bilimini "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani yordamida oshirishga harakat qilishi lozim. Mazkur fanni o'qitishda yuqorida sanab o'tilgan nutqiy kamchiliklarni hisobga olish, ularni bartaraf etishga qaratilgan texnologik xaritalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanini o'qitishda o'qituvchi mavjud o'quv yuklamasi hajmidan kelib chiqib, har bir darsini maqsadli tashkil etishi, dars rejasini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqishi, mashg'ulot texnologiyasini guruhning ta'lim yo'nalishi, belgilangan mavzu ko'lami, auditoriyadagi talabalar soniga muvofiq tuzishi lozim. Bitta amaliy mashg'ulotda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, bir yoki bir necha pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin.

O‘zbek tilining veterinariya va chorvachilik sohasida qo‘llanishiga oid bilimlarni o‘qitishda talabalarni mustaqil va kreativ fikrlashga undaydigan, so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladigan, nutqiy kompetensiyalarini oshiradigan bir qator zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Avvalo, talabalarning o‘zbek tili darsiga qiziqishlarini oshirish, ularning diqqatini jamlash, o‘rganilayotgan bilimlar kelajagi uchun juda zarur ekanligini his qildirish lozim, shunda mashg‘ulot jarayonida befarq o‘tiradigan yoki topshiriqlarni bajarishdan chetda qoladigan biror talaba bo‘lmaydi.

Amaliy mashg‘ulot vaqtida sohaga oid ish yuritish hujjatlari va ularning turlari, mazmuni va vazifasi, rasmiylashtirish tartibi va ularning lisoniy, uslubiy xususiyatlari to‘g‘risida ham talabalarga eng zarur ma’lumotlarni berish lozim. Har qanday oliy ma’lumotli shaxs ish yuritish hujjatlarisiz faoliyatini tashkil eta olmaydi.

Hayotning har bir jabhasida – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yurt tinchligi, jamiyat taraqqiyoti barqarorligini ta’minlashda asosiy aloqa vositasi tildir, insonlar o‘rtasidagi muloqotdir. Shunday ekan, ona tilini bilmay turib, uning imkoniyatlarini to‘liq o‘rgangan holda amaliyotda qo‘llamay turib, jamiyat a’zolarining o‘g‘zaki va yozma nutqiy savodxonligini oshirmay turib, ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi.

Shu ma’noda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining o‘qitilishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki bu fanga hozirgi kunda ehtiyoj juda katta. Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etish uchun amaliy mashg‘ulot vaqtida nafaqat jamoaviy yondashuv, kerak bo‘lganda talaba bilan yakka tartibda ishlash ham talab qilinadi. Shunga ko‘ra zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanilsa, dars mavzusiga mos topshiriqlar, uy ishi va mustaqil ta’lim uchun berilgan adabiyotlar turli-tuman, qiziqarli, foydali, maqsadga muvofiq, eng muhimi, sohaga bog‘liq holda tanlansa, ta’lim oluvchilarning tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish, gapirish, lug‘at bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratilsa, darsdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi, sifat va samaradorlik kafolatlanadi. O‘z navbatida, sifatli dars sifatli kadrlarni tayyorlab berishga xizmat qiladi. Sifatli kadrlar esa soha taraqqiyotiga ishonch va jidd-u jahd bilan xizmat qila oladi, natijada xalqimiz turmush tarzining farovonligiga erishiladi, yurt kelajagi ta’minlanadi.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan “global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish” uchun kelajak bunyodkorlari bo‘lgan yosh avlodni munosib tarbiyalash lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonini ham shu maqsad asosida olib borish kerak. Har bir mutaxassis o‘z sohasining yetuk bilimdoni, o‘z Vatanining munosib fuqarosi bo‘lishi shart, shu bilan birga, ona tilini, Davlat tilini puxta bilishi, erkin muloqot qila olishi, yuqori darajada savodxon bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent, 2019. https://lex.uz/docs/-4561730.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2022. https://lex.uz/docs/-5058351.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida“gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022. https://lex.uz/docs/-5058351.

4. 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni – Toshkent, 2022. https://president.uz/oz/lists/view/4954.

5. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. – Toshkent: Ta’lim, 2009.

Xurshidaxon Abdusalomova,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq tillari va adabiyoti instituti Arabshunoslik oliy maktabi talabasi

ARAB TILIDA ATF

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi atf grammatik kategoriyasiga ta'rif berilib, turlari yoritiladi. Har bir turning o'ziga xos xususiyatlari bilan birga, so'zlarni o'zaro bog'lovchi barcha atf harflarining farqli va o'xshash jihatlari talil qilinadi. Har bir izoh bir qancha misollar yordamida isbot qilinib, maqola so'ngida mantiqiy xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: atf, kelishiklar عطف بيان, عطف نسق, الواو, الفاء, ثُم, حتّى , أو, أم , بل , لكن , لا إما .

Annotation. In this article described the grammatical category of atf in the Arabic language and explained its types. The differences and similarities of all atf propositions that connect words are covered, along with the characteristics of each type. Each explanation is proved with a number of examples, and a logical conclusion is given at the end of the article.

Keywords: atf, conductions, عطف بيان, عطف نسق, الواو, الفاء, ثُم, حتّى , أو, أم , بل , لكن , لا إما .

Аннотация. В данной статье описывается грамматическая категория atf в арабском языке и объясняются ее виды. Рассматриваются различия и сходства всех букв atf, соединяющих слова, а также характеристики каждого типа. Каждое объяснение доказывается рядом примеров, а в конце статьи дается логическое заключение.

Ключевые слова: atf, соглашения, عطف بيان, عطف نسق, الواو, الفاء, ثُم, حتّى , أو, أم , بل , لكن , لا إما.

Arab tilida atflar tavobelarning turlaridan bo'lib, "atf" so'zi lug'atda "moyil bo'lish", "bog'lanish" kabi ma'nolarni ifodalasa, istilohda atf harflaridan birining vositasi bilan so'zni so'zga bog'lash ma'nosida qo'llanadi. Agar so'z bosh kelishikda bo'lsa, unga atf yordamida bog'lanayotgan so'z bosh kelishik (جاءت فاطمةُ و المعلمةُ), qaratqich kelishigida bo'lsa, qaratqich (ذهب محمد مع أبيه و أمِه), tushum kelishigida bo'lsa, tushum holatida (أخذتُ كتاباً و دفتراً) keladi. Agar so'z majrur holatda (sukunlangan) bo'lsa, unga atf yordamida bog'langan so'z ham shu holatda qo'llanadi (لم يحضُرْ خالد أو يُرسلْ رسولاً). Yuqoridagi misollardan ko'rib turibmizki, ism so'z turkumi ism bilan, fe'l so'z turkumi esa fe'l bilan atflanadi. Atf ikki xil holatda ifodalanadi, ular عطف نسق va عطف بيان ya'ni aniq, **oshkor atf** va **tizimli atf** deb nomlanadi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki, atfu bayon aniq holatdagi so'zni tushuntiradi (جاءني محمدٌ أبوك) va noaniq holatdagi so'zni ajratib ko'rsatadi (صَدِيدٍ مَّآ مِن ءٍ) [1]

Atfu nasaq quyidagi o'nta harflardan biri bilan ifodalanadi:

الواو ، الفاء ، ثُم ، حتّى ، أو ، أم ، بل ، لكن ، لا، إما

Bu harflar gapda ikki so'zning o'rtasini bog'lagani sababli atf yoki robita harflari deb nomlangan. Bunday harflardan keyin kelgan so'z ma'tuf, oldingi so'z esa ma'tufun alayhi deyiladi, ma'tuf ma'tufun alayhi bilan bir xil harakatda bo'ladi. Atf harflari hukman ikki turli bo'ladi:

Ma'tuf ma'tuf alayhi bilan hukmda va lafzda sherik bo'lganlari: حتّى .nuhcu losiM : ثُم ، الفاء ، الواو

أكلت خبزا و أرزا ya'ni nonni va guruchni yedim.

Lafzda, ya'ni e'robda muvofiq va hukmda, ya'ni ish-harakatda bir.

Ma'tuf ma'tufun alayhiga faqat lafzda sherik bo'lganlari: لا ، لكن ، بل ، أم ، أو

Masalan: أكلت خبزا لا أرزا , ya'ni nonni yedim, guruchni emas. Lafzda ya'ni e'robda bir xil, hukmda esa farqli.

Har bir atf harfi va uning ma'nolarini misollar orqali ko'rib chiqamiz.

1. الواو – o'zi bog'layotgan so'zlarni bitta hukmda jamlaydi, bunda tartib ham, vaqt ham ahamiyatsiz bo'ladi. Misol uchun:

جاء زيد و محمد , ya'ni Zayd va Muhammad keldi. Yoki

جاء محمد و زيد , ya'ni Muhammad va Zayd keldi. Bu ikki gapda harakat bajaruvchilarining ikkisi ham kelgani ifodalangan, tartibi muhim emas.

صلي الإمام و المأموم , ya'ni imom va iqtido qiluvchi namoz o'qidi. Bu misolda namozni imom va iqtido qiluvchi bir vaqtda o'qigan. Demak, bu harf o'zi bog'lagan ikki yoki undan ko'p so'zlarni umumiy jamlash uchun kelib, ma'tuf va ma'tufun ilayhi hukmda, ya'ni ish-harakatning bajarilish payti bir vaqtda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

2. الفاء – tartibni va kechikishsiz muddatni bildiradi, ya'ni har bir narsa o'zining odatiy vaqtidan kechikmasdan bo'ladi. Tartib va ta'qib bilan birga bo'ladi, lekin o'z vaqtidan kechikkan muhlatda bo'lmaydi.

حضر محمد فزيد , ya'ni Muhammad keyin esa Zayd tayyor bo'ldi. Bu misolda ko'rishimiz mumkinki, avval Muhammad keyin esa Zayd tayyor bo'lgan. Ma'no tartib bilan ifodalangan, ikkisining orasidagi vaqt kechikmagan, ya'ni ketma-ket uzviy bog'langan ish harakat ifodalangan, masalan:

رأيت أباك فسلمت , ya'ni otangni ko'rdim-da, salom berdim.

3. ثم – O'zi bog'lagan ikki so'zni bir xil harakatda kelishini ta'minlash bilan birga tartib va vaqt ma'nolarini ifodalaydi. Masalan:

رعنا القطن ثم جنيناه , ya'ni paxtani ekdik, so'ng uni terib oldik.

4. أو – Bu harf 4 xil ma'noda keladi:

1. Ixtiyor qilish: تخيير – ma'tuf bilan ma'tuf alayhi hukmda jamlanmaydi, balki birini tanlash lozim bo'ladi.

تزوجُ فاطمةَ أو أختها , ya’ni Fotimaga yoki singlisiga uylan. (Ixtiyor uchun, ya’ni bittasini tanla).

2. Muboh qilish: إباحةٌ – ma’tuf bilan ma’tuf alayhini hukmda jamlash ham yoki birini tanlash ham mumkin. كل السمك أو الدجاج , ya’ni baliqni yoki tovuqni yegin. (Muboh uchun, ya’ni xohlaganingni yegin).

3. Tahmin uchun: شكّ ya’ni ma’tuf va ma’tufun alayhining o‘rtasida hukmda shak qiladi. ذهب زيد أو سعيد ya’ni Zayd yoki Said keldi. (Shak uchun, ya’ni qaysi biri kelganida shak qilyapti?).

4. Taqsim uchun:تقسيم اسمٌ أو حرفٌ أو فعلٌ الكلمة. ya’ni so‘z ism, fe’l yoki harfdir.

5. أم – bu harf ma’tuf va ma’tufun alayhini bittasini ta’yin qilishni talab qilish uchun keladi va u ikki xil bo‘ladi:

Muttasil. أم harfi otifadan oldin istefhomiyya yoki tasviya (barobar qilish) hamzasi o‘tgan bo‘lsa, muttasil bo‘lib أو harfining ma’nosida keladi. Birinchi jumlada hamza o‘tgan bo‘ladi va ikkinchi jumla أم ga yaqin turadi. Masalan, أ درست أم لعبت؟ ,ya’ni o‘ynadingmi yoki dars qildingmi? (Hamzasi istehomiyyadir).

أَأَنذَرْتَهُمْ أَمْ لَمْ تُنذِرْهُمْ لَا يُؤْمِنُونَ [البقرة : ٦] , ya’ni xoh qo‘rqiting, xoh qo‘rqitmang, ularga barobardir – iymon keltirmaydilar [3]. (Hamzasi tasviya hamzasidir).

Munqote’. Undan أم dan keyingi narsa أم dan oldin kelgan so‘zdan ajragan bo‘ladi va أم munqote’ بل ma’nosida bo‘ladi va ko‘pincha istefhom hamzasi hazf bo‘lib keladi, lekin ma’noda istefhom sezilib turadi. Masalan,

إنها لإبل أم شاء؟ , ya’ni o‘shalar tuyalarmikin, yo‘q balki qo‘ymikan?

6. إما – bu atf ham o‘zidan olgingi ikki atf kabi yoki degan ma’noda qo‘llanadi.

تزوجْ إما فاطمة وإما أختها, ya’ni Fotimaga yoki singlisiga uylan.

7. بل – bu harf avvalgi so‘zdan hukmni sindirib, ikkinchisiga isbot qiladi. Agar undan keyin gap kelmasa, atf harfi bo‘ladi. Misol:

لا تقرأ الجريدة بل الكتاب , ya’ni gazetani emas, kitobni o‘qi;

جاء زيد بل عمرو , ya’ni Amr emas, Zayd keldi.

Gohida بل dan oldin ta’kid uchun لا zoida bo‘lib keladi:

محمد متعلم لا بل عالم , ya’ni Muhammad ta‘lim oluvchidir, yo‘q balki u olimdir.

8.لا – ikki ismning o‘rtasini bog‘laydi va بل harfining aksi, hukmni o‘zidan avvalgi ishga sobit qilib, o‘zidan keyingi ishdan nafiy qiladi.

لا تقرأ الكتابَ لا الجريدةَ ,ya’ni kitobni o‘qi gazetani emas.

Bu harfda quyidagi 3 ta xususiyat bo‘lishi kerak:

Ma’tuf bir so‘z bo‘lishi kerak, ya’ni jumla emas:

جاءني زيد لا بكر – to‘g‘ri;

Uning oldidagi so‘z bo‘lishli holatda bo‘lishi kerak:

لم يجئْ زيد لا بكر – xato;

و atf harfi bilan birga kelishi kerak emas: جاءني زيد و لا بكر – xato.

9. حتى – bu atf harfi bo‘lishi uchun 4 ta xususiyatni o‘z ichiga olishi kerak:

Ma’tuf zohir ism bo‘lishi kerak, ya’ni zamir ism bo‘lmasligi kerak;

Ma’tuf ma’tuf ilayhining bir qismi bo‘lishi kerak;

Ma’tuf ma’tuf ilayhining g‘oyasi, ya’ni nihoyasi bo‘lishi kerak;

Ma’tuf birlik sondagi ism bo‘lishi kerak, ya’ni jumla bo‘lmasligi kerak.

أكلت السماك حتى رأسه , ya’ni baliqni yedim, hatto boshini ham yeb qo‘ydim.

10. لكن – o‘zidan oldingi hukmni to‘g‘rilash uchun keladi va 3 ta sharti bor:

1. Ma’tuf va ma’tufun ilayhi ism bo‘lishi kerak.
2. Nahiy yoki nafiydan keyin kelishi kerak.
3. لكن dan oldin و bo‘lmasligi kerak.

لا أحب الكسالى , لكن المجتهدين , ya’ni tirishqoqlarni yaxshi ko‘raman, dangasalarni emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, somiy tillar oilasiga mansub arab tili o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shulardan biri tildagi atf grammatik kategoriyasi bo‘lib, bu ham, o‘z navbatida, ikki turga bo‘linadi. Har ikki tur bir nechta jihatlarga ega. Biz har biriga imkon qadar to‘xtalib, misollar orqali o‘xshash va farqli tomonlari, qolaversa, grammatik foydalanish o‘rinlari haqida so‘z yuritdik. Ushbu atf bog‘lovchilari qo‘llanish vaqtiga qarab farq qilsa-da, izlanishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, ayrim grammatik xususiyatlar, shu jumladan, holatda, ya’ni e’robda bir xil vazifada kelishi ularni birlashtirib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. التحفة السنية بشرح المقدمة الاجرمية, محمد محي الدين عبد الحميد ,خ.: مكتب السنه, ٩٨٩١.
2. معاني حروف العطف في سورة الملك وتصميم تعليمها, بجامعة رادين إينتان الإسلامية الحكومية مبونج, 2022.
3. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi. https://quranenc.com/uz/browse/uzbek_mansour/2.
4. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi 1-qism. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997-yil.
5. Rahmatullayeva R. Arab tili darsligi 1-kitob. –Toshkent: O‘zbekiston musulmonlar idorasi “Xadichai Kubro” islom o‘rta maxsus ayol-qizlar bilim yurti, 2008.
6. الدروس النحوية, حفني ناصف ومحمد دياب ومصطف طموم وحمد صالح , دار العقيدة, الإسكندرية٢٠٠٧.

Otabek XIDIROV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SO‘Z BIRIKMALARINI SINTAKTIK TEGLASH TIZIMI VA MODELLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili korpusida so‘z birikmalarining lisoniy-sintaktik qoliplariga asoslangan sintaktik teglash tizimi va modellari tahlilga tortilgan. Bu orqali tilshunoslar va pedagoglarga ilmiy ko‘mak berish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: korpus, sintaktik teglash, model, sintaktik birliklar, so‘z birikmasi, lison-nutq.

Annotation. The article analyses the syntactic tagging system and models based on linguistic-syntactic patterns of word combinations in the corpus of the Uzbek language. The purpose of this work is to provide scientific support to linguists and teachers.

Keywords: corpus, syntactic tagging, model, syntactic units, word combination, language-speech.

Аннотация. В данной статье анализируются система синтаксической разметки и модели, основанные на лингвосинтаксических шаблонах словосочетаний в корпусе узбекского языка. Целью данной работы является оказание научной поддержки языковедам и преподавателям.

Ключевые слова: корпус, синтаксическая разметка, модель, синтаксические единицы, словосочетание, язык-речь.

Morfologik ko‘rsatkichsiz tobe-hokimlik munosabatini aniqlash uchun lisoniy-sintaktik qolip hamda morfologik teglar tizimidan foydalanish o‘rinli. Masalan, *qiziqarli kitob* birikmasida morfologik ko‘rsatkich yo‘q. Kontekstda bu birliklarning so‘z birikma ekanligini lisoniy-sintaktik qolip bilan aniqlash mumkin. Lisoniy-sintaktik qolip (LSQ)da qaysi so‘z turkumi o‘zaro birikishi ko‘rsatib berilgan. Korpus birliklari morfologik teglangan bo‘lsa, teg va lisoniy-sintaktik qolip asosida morfologik ko‘rsatkichsiz sintaktik munosabatli birikmalarni ham avtomatik teglash imkoni paydo bo‘ladi. Ushbu holatni quyida batafsil izohlaymiz.

Boshqa lisoniy hodisa kabi so‘z birikmalari (SB)ning lisoniy-sintaktik qoliplarini tiklash va uning voqelanishi farqlanadi. SB LSQining voqelanishi “lison-nutq” yo‘nalishida bo‘lib, bu yo‘nalish umumiylikdan oraliq ko‘rinish orqali xususiylikka – nutqiy hodisaga qarab boradi. Bu borada Saida Nazarova tomonidan ishlab chiqilgan LSQlarga alohida e’tibor qaratish muhim. Jumladan, Saida Nazarova LSQlarning [$W^{morfologik\ vosita}$ – $W^{morfologik\ vosita}$] ko‘rinishdagi invariant, [$W^{qaratqich\ kelishigi}$ – $W^{egalik\ qo'shimchasi}$], [$Ism^{qaratqich\ kelishigi}$ – $Ism^{egalik\ qo'shimchasi}$], [$Ot^{qaratqich\ kelishigi}$ – $Ot^{egalik\ qo'shimchasi}$], [$Ot_{atoqli}^{qaratqich\ kelishigi}$ – $Ot_{turdosh}^{egalik\ qo'shimchasi}$] kabi variantlarini ajratadi. Albatta, til korpusida so‘z birikmalarini teglash muammosi umumiy (invariant) LSQlar bilan hal etilmaydi, balki so‘z birikmalarini aniqlashda nisbatan aniqroq qoliplar talab etiladi [1: 26].

Nazarova ushbu LSQning quyi bo‘linishlarini uning tegishli so‘z turkumi tomonidan to‘ldirilishi asosida quyidagicha tasniflaydi [1: 27]:

1) [ot $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ot ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *kitobning varag‘i;*

2) [ot $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ sifat $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ot ^{qaratuvchi} + sifat ^{qaralmish}]: *daraxtning mo‘rti;*

3) [sifat $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = sifat ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *gulning/qizilining hidi;*

4) [sifat $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ sifat $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = sifat ^{qaratuvchi} + sifat ^{qaralmish}]: *olmaning/kattasining chuchugi;*

5) [ot turdosh $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ sifat $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ot ^{qaratuvchi} + son ^{qaralmish}]: *gulning bittasi;*

6) [son $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ son $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = son ^{qaratuvchi} + son ^{qaralmish}]: *o‘nning yarmi;*

7) [ot $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ harakat nomi $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ot ^{qaratuvchi} + fe’l ^{qaralmish}]: *Otabekning qaytishi*;

8) [harakat nomi $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = fe’l ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *uyalishning o‘rni*;

9) [harakat nomi $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ harakat nomi $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = fe’l ^{qaratuvchi} + fe’l ^{qaratuvchi}]: *olmoqning bermog‘i*;

10) [ot $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ sifatdosh $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ot ^{qaratuvchi} + sifatdosh ^{qaralmish}]: *yurakning to‘xtagani*;

11) [sifatdosh $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = sifatdosh ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *qo‘rqqanning ko‘zi*;

12) [ot $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ravish $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ot ^{qaratuvchi} + ravish ^{qaralmish}]: *mehnatning kecha-kunduzi*;

13) [olmosh $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = olmosh ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *mening vatanim*;

14) [ravish $^{qaratqich\ kelishigi}\rightarrow$ ot $^{egalik\ qo'shimchasi}$ = ravish ^{qaratuvchi} + ot ^{qaralmish}]: *hozirning huzuri*.

Ushbu qoliplar Nazarova tomonidan tadqiq etilgan: yuzlab nutqiy hosilalarda sinab ko‘rilgan, umumlashtirilgan. Shuning uchun biz ism+ism qolipli so‘z birikmalari modelini shu qoliplar asosida tuzishimiz mumkin. Buning uchun, avvalo, qolip tarkibidagi ismlarning turini anglatuvchi qismlarning, tobelanishni ko‘rsatib turuvchi morfologik vositalarning maxsus belgilarini tanlab olamiz. Bunda ot = N, sifat = Adj, son = Num, turdosh ot = N^{sub}, olmosh = Pr, ravish = Prv, harakat nomi = Ger teglari bilan; qaratqich kelishigi = Case (yoki Ss), egalik qo‘shimchasi = Possessive (yoki Pos) teglari bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, til korpusi uchun so‘z birikmalarini sintaktik teglashning ism+ism qolipi uchun quyidagi modellarni taklif qilish mumkin:

1) [N $^{Cs}\rightarrow$ N ^{Pos}]: *kitobning varag‘i;*

2) [N $^{Cs}\rightarrow$ Adj ^{Pos}]: *daraxtning mo‘rti;*

3) [Adj $^{Cs}\rightarrow$ N ^{Pos}]: *gulning/qizilining hidi;*

4) [Adj $^{Cs}\rightarrow$ Adj ^{Pos}]: *olmaning/kattasining chuchugi;*

5) [N turdosh $^{Cs}\rightarrow$ Adj ^{Pos}]: *gulning bittasi;*
6) [Num $^{Cs}\rightarrow$ Num ^{Pos}=]: *o‘nning yarmi;*
7) [N $^{Cs}\rightarrow$ Ger ^{Pos}=]: *Nabekning qaytishi*;
8) [Ger $^{Cs}\rightarrow$ N ^{Pos}=]: *uyalishning o‘rni*;
9) [Ger $^{Cs}\rightarrow$ Ger ^{Pos}=]: *olmoqning bermog‘i*;
10) [N $^{Cs}\rightarrow$ Adjdosh ^{Pos}=]: *yurakning to‘xtagani*;
11) [Adjdosh $^{Cs}\rightarrow$N ^{Pos}=]: *qo‘rqqanning ko‘zi;*
12) [N$^{Cs}\rightarrow$ Prv^{Pos}=]: *mehnatning kecha-kunduzi*;
13) [Pr $^{Cs}\rightarrow$ N ^{Pos}=]: *mening vatanim*;
14) [Prv $^{Cs}\rightarrow$ N ^{Pos}=]: *hozirning huzuri*.

Shuningdek, zamonaviy sintaksisda so‘z birikmasining [ism$^{kelishik\ qo'shimchasi}$ + fe’l] qolipi ham ajratiladi [2: 67].

So‘z birikmasining bu LSQi birinchi uzvi morfologik shakllangan, shuning uchun SHMJ birikuv omiliga ega va ikkinchi qismda grammatik ko‘rsatkich bog‘lanish uchun nisbatan ahamiyatsiz bo‘lgani bois, birikuv omillarining MSHJ kombinatsiyasi amal qiladi. Qolipning birinchi uzvini ism turkumiga oid so‘zlar to‘ldirib, ular hokim uzvga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari shakllari bilan bog‘lanadi. Birinchi uzvi asosida LSQ quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

1) [ism $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l];
2) [ism $^{jo'nalish\ kelishigi}\rightarrow$fe’l];
3) [ism $^{o'rin\text{-}payt\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l];
4) [ism $^{chiqish\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l].

LSQning har bir ko‘rinishi ism uzvining bo‘linishi asosida yana tarmoqlanadi. Masalan, [ism $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l] qolipi quyidagi bo‘linishlarni beradi [2: 67]:

1) [ot $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l];
2) [sifat $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l];
3) [son $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l];
4) [olmosh $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l];
5) [harakat nomi $^{tushum\ kelishigi}\rightarrow$ fe’l].

Ushbu qoliplarga *kitobni/yaxshini/o‘nni ayir, uni gapirish/o‘qimoq/so‘ramoq/ boshlamoq/ni bas qil* kabilarni misol keltirish mumkin.

Yuqoridagi LSQlar asosida sintaktik teglashning ism+fe’l qolipi uchun [Sub$^{Cs3}\rightarrow$ V]; [Sub$^{Cs4}\rightarrow$V]; [Sub$^{Cs5}\rightarrow$ V]; [Sub$^{Cs6}\rightarrow$V] modellarini taklif etsak, ismning ko‘rinishlariga ko‘ra turlari bo‘yicha [N$^{Cs3}\rightarrow$ V]; [Adj$^{Cs3}\rightarrow$ V]; [Num$^{Cs3}\rightarrow$ V]; [Pr$^{Cs3}\rightarrow$V]; [Ger$^{Cs3}\rightarrow$V] kabi modellar so‘z birikmalarini farqlashga yordam beradi. Bunda ^{Cs3} tushum, ^{Cs4} jo‘nalish, ^{Cs5} o‘rin-payt, ^{Cs6} chiqish kelishigini; Sub – ismni, V – fe’lni ifodalovchi teg hisoblanadi.

Xullas, morfologik ko‘rsatkichsiz va morfologik ko‘rsatkichli so‘z birikmasini aniqlashda lisoniy-sintaktik qoliplar asosida tuzilgan modellardan foydalanish sintaktik teglar tizimining mukammal bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova S. Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari: Filol.fan.nomz.diss...avtoref. – Toshkent, 1997.
2. Mualliflar jamoasi. Zamonaviy o‘zbek tili: Sintaksis. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.

Shahnozaxon KOMOLOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

PAREMIYALARDA ZIDLIKNI IFODALOVCHI TUSHUNCHALARNING LINGVOSOTSIOMADANIY XUSUSIYATLARI (nemis va o‘zbek tillari misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda antitezani keltirib chiqaruvchi holatlar muhokama qilingan. Nemis va o‘zbek tillaridagi zidlikni ifodalovchi tushunchalar lingvosotsiomadaniy jihatdan tahlil qilinib, har ikkala xalqning madaniyati va ijtimoiy hayotini o‘zida mujassam etuvchi paremiologik birliklar orqali ulardagi farqli va universal xususiyatlar ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: antiteza, antonim, lingvomadaniy, sotsial, paremiya, zid ma’no, sotsiomadaniy, madaniyat.
Annotation. This article discusses cases of antithesis in paremia in German and Uzbek. Concepts that represent antithesis in the German and Uzbek languages are analyzed linguosocioculturally. Through the paremiological units that embody the culture and social life of the two peoples, the characteristic and universal features are revealed in them.
Keywords: antithesis, antonym, linguosociocultural, social, paremia, contradictory meaning, sociocultural, culture.
Аннотация. В данной статье рассматриваются случаи возникновения антитезы в паремиях на немецком и узбекском языках. Концепты, представляющие антитезу в немецком и узбекском языках, анализируются лингвосоциокультурно. Через паремиологические единицы, воплощающие культуру и социальную жизнь двух народов, раскрываются их специфические и универсальные черты.
Ключевые слова: антитеза, антоним, лингвосоциокультурный, социальный, паремиях, противоречивое значение, социокультурный, культура.

Har bir xalqning milliy-madaniy va ijtimoiy hayoti uning paremiologik birliklarida (PB) aks etadi. PBlarda tilga xos bo‘lgan turli xil hodisalar mavjud bo‘lib, ulardan biri antiteza hodisasidir. Antiteza tushunchasi paremiologik birliklarda turli xil asoslarga ko‘ra beriladi va ular zidlik, qarshilantirish kabi nomlar bilan ham yuritiladi. PBlarda mavjud komponentlarda tushuncha va fikrning qarama-qarshiligi kabi xususiyatlar so‘zlovchi nutqining yanada ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. PBlarning tarkibidagi qismlar ketma-ket kelib, biri ikkinchisini inkor etishi antitezani yuzaga chiqaradi. Paremiyalarda zidlik tushunchasi yuzaga chiqaradigan asosiy va samarali omillardan biri antonimlardir. Ular o‘zaro antonim bo‘lgan leksemalar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nolar o‘rtasida yuzaga chiqadi. Masalan, *Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi; Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘* kabi maqollarda qo‘llanilgan antonim so‘zlar orqali zidlik ifodalangan. Ular PB qismlarini o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib, asosiy mazmunni yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. PB matnlarining tuzilishida antitezaning o‘rni beqiyos. Antiteza nafaqat antonim so‘zlarning ishtiroki bilan, balki tushunchalarni o‘zaro parallel qo‘yish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Lekin, ko‘pincha, PBda antitetik ravishda qarama-qarshi qo‘yilgan so‘zlar yoki tushunchalar o‘rtasida qarama-qarshi munosabatlar mavjud bo‘lmaydi va ularning semantik aloqasi leksik antonimlar tushunchasi ostida umumlashtirilmaydi. Bunday jarayonda shunchaki ikki xil tushuncha antonimik tarzda taqqoslanadi. Buning natijasida kontekstli antonimiya hodisasiga yaqin bo‘lgan bir hodisa yuzaga keladi. Masalan, *Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir* [1]. A.Avloniyning ushbu aforizmida *hayot* va *o‘lim*, *najot* va *falokat* tushunchalari antonimik tarzda taqqoslangan. Bu kabi qarama-qarshilik PBlarning yaratilishi texnikasiga xos holatdir.

Zidlik tushunchasi, ko‘pincha, sifatlar asosida yuzaga keladi. Paremiyalardagi yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, kamtarlik va manmanlik kabi o‘zaro qarama-qarshi tushunchalar shular jumlasidandir. Masalan, *Besser ein magerer Vergleich als ein fetter Streit – Yaxshi janjaldan yomon murosa yaxshi.* Ushbu maqolda *yaxshi va yomon* sifatlari antitezani yuzaga chiqargan. Bundan tashqari, ot so‘z turkumiga oid *janjal va murosa* leksemalari ham o‘zaro qarama-qarshi tushunchalar sifatida maqolda ikki karra qarshilantirishning yuzaga chiqishiga sabab bo‘lgan. *Besser eine kluge Antwort lansam als eine dumme schnell – Shoshib ahmoqona javob bergandan ko‘ra aqlli javobni kechroq aytgan yaxshiroq; Besser arm in Ehren, als reich in Schanden – Nomussiz boydan, orli kambaġal yaxshi; Besser ehrlich gestorben als schändlich verdorben – Tiz cho‘kib yashagandan, tik turib o‘lgan afzal* kabi maqollarda qo‘llanilgan sifat so‘z turkumiga oid leksemalar o‘zaro qarshilantirish hodisasini keltirib chiqargan. Biz ko‘rib chiqqan antitezaning aksariyati sifat so‘z turkumi bilan yuzaga chiqqan. Lekin antiteza holati PB matnlarida sifatlardan tashqari fe’l, ot va boshqa so‘z turkumlarida ham kuzatiladi. *Ein Bild ist besser als tausend Wörter – Ming marotaba eshitgandan, bir marotaba ko‘rgan yaxshiroq*. *Ko‘z* va *quloq* o‘zaro qarshilantirilganda, dunyo haqida ma’lumotlar quloqqa (eshitishga) qaraganda ko‘z (ko‘rish)ning yanada ishonchliroq ekanligini ifodalaydi. Bu maqolning o‘zbek tilidagi ekvivalentida son so‘z turkumiga oid *ming* va *bir* so‘zlari hamda fe’l so‘z turkumiga tegishli *eshitmoq* va *ko‘rmoq* so‘zlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan. Nemis tilidagi ekvivalentida esa son so‘z turkumi bilan antiteza yuzaga chiqqan. Bunday misollar har ikkala tilda ham ko‘plab topiladi. Ayniqsa somatizmlar otlar “antonimiyasi”ning bu xususiyatini yaqqol namoyish etadi. Masalan, *Was man nicht im Kopf hat, muß man in den Beinen haben – Bosh aqlsiz*

bo‘lsa, oyoqqa jabr maqolidagi *bosh* va *oyoq* leksemalarini tananing yuqori va pastki qismlarini bildiruvchi oddiy antonimlar sifatida ham talqin qilish mumkin bo‘lsa-da, maqollarda ular, birinchi navbatda, “funksional” ma’nolarida namoyon bo‘ladi. *Bosh* – fikrlash vositasi sifatida, *oyoqlar* – jismoniy harakat bajarish vositasi sifatida tushuniladi. *Heute rot-morgen tot – Bugun unday – ertaga bunday* maqolida *heute- morgen, bugun-erta* kabi ravish so‘z turkumiga oid so‘zlar zidlikni keltirib chiqargan. Bundan tashqari, nemis xalqi bu paremani o‘lim kutilmaganda to‘satdan sodir bo‘lishi mumkinligini ifodalash uchun ishlatishadi. Undagi *“qizil”* leksemasi sog‘lom insonning yonoqlaridagi qizg‘ish rangni anglatadi va tiriklikning ramzi sifatida *tot* leksemasiga qarshi qo‘yilgan. Bu parema 1961-yilda sotsialistik GDRda devor qurilishiga qarshi antikommunistik norozilik shiori sifatida paydo bo‘ldi. O‘zbek tilidagi ekvivalentida qo‘llanilgan *unday-bunday* so‘zlari ham o‘zaro qarama-qarshi tushuncha sifatida tushuniladi. *Besser im Leben eine Brotrinde als nach dem Tod ein Denkmal – O‘lgandan so‘ng haykal qo‘yguncha, tirigida bir bor yo‘qla; Bal gewonnen, bald verloren – Oson kelgani, oson ketadi; Außen blank, innen stank – Usti yaltiroq, ichi qaltiroq; Außen fein, inwendig ein Schwein – Nomi ulug‘, surpasi quruq*; *Auf einen bösen Tag gehört ein guter Abend – Kun yomon o‘tgani bilan oqshom xayrli bo‘lishi mumkin, Oyning on beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u; Heute mir-morgendir – Tegirmon navbati bilan, Birovga erta, birovga kech*; *Heute groß, morgen bloß – Bugun bor, ertaga yo‘q; Besser zweimal fragen als einmal irregehen – Bir marta adashgandan ko‘ra ikki marta so‘ragan afzal; Beser einmal fett als allezeit mager – O‘n kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye* kabi nemis va o‘zbek tillaridagi maqol va matallarda sifat so‘z turkumidan tashqari ot, son, ravish va fe’l so‘z turkumlariga oid so‘zlar ishtirokida qarshilantirish hodisasini ko‘rish mumkin. Qarindosh bo‘lmagan ushbu tillardagi PBlarning ekvivalentlarida ham zidlikni ifodalovchi tushunchalar o‘rtasida deyarli farqlar topilmadi. Yuqorida ko‘rib chiqqan misollarimizdan tashqari, nemis va o‘zbek tillarida tabiiy holat asosida ham zidlikning yuzaga chiqishini kuzatish mumkin. Masalan, *Qo‘y bilan bo‘ri bir og‘ilda yashamas* PBlaridagi *qo‘y bo‘ri* tushunchalari tabiiy ravishda bir-biriga qarama-qarshi. *Arslonning bo‘kirgani – to‘ng‘izning o‘lgani; otning o‘limi – itning bayrami* kabi maqollar ham tabiiy holat asosidagi zidlikka misol bo‘ladi.

Antiteza yoki qarshilantirish ritorik shakl hisoblanadi. Antiteza ikkita bir xil sathdagi tushunchaning oppozitsiyasi orqali yuzaga chiqadi [2: 334]. Maqollarda paradoks ifoda usuli ko‘pincha antitezaning rivojlanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Paradoks falsafa va stilistikada ko‘rinishidan ma’nosiz, yolg‘on tasdiq sifatida namoyon bo‘ladi, ammo asosan, aforizm va sentensiyalarda aniq tahlil qilinganda yuqori darajadagi haqiqatga ishora qiladigan fikr hisoblanadi: *Allzu klug ist dumm – O‘ta aqllilik ham ahmoqlikdir; Allzu viel ist nicht genug – Qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yetmaydi; Eile langsam – Sekin-asta shoshil.* Ushbu maqollarda ifodalangan paradoks usulida jumla tarkibidagi tushunchalar bir-birini inkor etishini ko‘rishimiz mumkin. Antitezaning yuzaga chiqishida yana bir holat mavjud bo‘lib, unda sifatlovchi so‘z ishtirok etadi va bu sifatlovchi so‘z tilshunoslikda epitet atamasi bilan yuritiladi. Epitet (yunoncha: “*qo‘shilgan*”) narsa va hodisalarning xususiyatlari va sifatlarini yanada yaqqolroq ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Quyidagi paremalar bunga misol bo‘ladi: *Geteilte Freude ist doppelte Freude – Birga baham ko‘rilgan (bo‘lingan) quvonch ikki barobar (ikki karra) quvonchdir; Die besten Elternhabenoft ungeratene Kinder – Yaxshi ota-onadan ham yomon farzandlar tug‘iladi.* Bunday PBlarda ikki predmet yoki hodisa o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilib, xulosa beriladi.

Paremiya matnlarida antitezaning yana bir ko‘rinishi mavjud bo‘lib, bu turda tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro ichki qarama-qarshiliklar asosida antiteza kuzatiladi. Masalan, *oltin* qimmatbaho metallar orasida eng yuqori qiymat, *kumush* esa kamroq qiymat sifatida paremiya matnida qarama-qarshi qo‘yiladi: *Reden ist Silber, Schweigen ist Gold – Gapirish – kumush, jim turish – oltin.* Metallarni qarama-qarshi qo‘yib taqqoslashni xuddi shu turga kiritish mumkin (*oltin – temir*) – *Goldener Schlussel öffnet die Tür – Oltin kalit temir darvozani ochadi*.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, maqollarning aksariyati bitta emas, balki ikki yoki undan ortiq antitezalarga asoslangan bo‘lib, ularda yashirin qarama-qarshiliklar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘zbek tilidagi *Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshiroq. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshiroq* misollarida sifatning qiyosiy darajasi bo‘lgan *yaxshiroq* leksemasi *qarindosh* va *qo‘shni; quyruq* va *o‘pka* kabi tushunchalarini o‘zaro qiyoslash natijasida ulardan birining ikkinchisiga nisbatan potensialini ko‘rsatib beradi.

Har ikkala tilda ko‘rib chiqilgan qarshilantirish hodisasi PBlarda ko‘plab uchrashi aniqlandi. Antiteza nafaqat antonim so‘zlar orqali, balki tushunchalarning PB matnlarida qarama-qarshi qo‘yilishi orqali ham yuzaga chiqishi mumkinligi ko‘rib chiqildi. *Auf Leid kommt Freud’ – Qayg‘u bilan quvonch yonma-yon; Das Billigste ist immer das Teuerste – Arzon beillat emas, qimmat behikmat emas; Besser arm in Ehren, als reich in Schaden – Nomussiz boydan, orli kambag‘al yaxshi; Besser ein magerer Vergleich als ein fetter Streit – Yaxshi janjaldan yomon murosa yaxshi; Besser zweimal grafen, als einmal irregehen – Bir marta adashgandan, ikki bora so‘ragan afzal; Besser zu früh, als zu spät – Hechdan ko‘ra kech yaxshi; Einmal gesehen ist besser als zehnmal gehört – O‘n marta eshitgandan, bir marta ko‘rgan afzal* kabi maqol va matallarning ekvivalentlari qarindosh bo‘lmagan har ikkala tilda ham bir-biriga mutanosib ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2018. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/marifatparvar-adib-dramaturg-pedagog-noshir-va-jamoat-arbobi-abdulla-avloniy-tavallud-topgan-kunning-135-yilligi.html

2. Bußman H. Lexikon der Sprachwisssenschaft. – Stuttgart. Alfred Körner Verlag, 2008. – S. 46; Riesel E. Stilistik der deutsche Sprache. – Moskau & Hochschule, 1963. – S. 334

3. Imyaminova Sh., Komolova Sh. Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.

Наргиза МАДАМИНОВА,
старший преподаватель
Узбекского государственного
университета мировых языков

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИТОВ-СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ПОЭЗИИ АКМЕИСТОВ

Аннотация. В статье предпринята попытка анализа композитов-существительных в лирических произведениях ярких представителей Серебряного века Николая Степановича Гумилёва и Анны Андреевны Ахматовой.
Ключевые слова: композитообразование, композит, сложное слово, существительное, Николай Степанович Гумилёв, Анна Андреевна Ахматова.
Annotatsiya. Maqolada kumush asrning yorqin vakillari Nikolay Stepanovich Gumilyov va Anna Andreyevna Axmatovaning lirik asarlaridagi ot kompozitlarni tahlil etishga harakat qilingan.
Kalit so'zlar: kompozitsion shakllanish, kompozitsion, murakkab so'z, ot, Nikolay Stepanovich Gumilyov, Anna Andreyevna Axmatova.
Annotation. The article attempts to analyze noun-composites in the lyrical works of prominent representatives of the Silver Age Nikolai Stepanovich Gumilev and Anna Andreevna Akhmatova.
Keywords: composite formation, composite, compound word, noun, Nikolai Stepanovich Gumilev, Anna Andreevna Akhmatova.

Композитообразование (сложение) представляет собой один из продуктивных способов образования слов. В художественных произведениях авторы для выражения глубины лирического образа часто используют сложные слова (композиты) как узуального, так и окказионального характера. Не являются исключением и произведения поэтов серебряного века Н.С.Гумилёва и А.А.Ахматовой: оба автора – яркие представители акмеистического направления в русской литературе.

Акмеизм – это течение русской литературы первой половины XX века. В поэзии серебряного века данное направление играет особую роль, так как объединяет известных русских поэтов рубежа веков. Главная особенность акмеизма заключается в возврате к первичному значению слова, к ясности и точности образов, к изображению реального предметного мира и отказу от мистичности и туманности символизма.

Поэзия Николая Гумилёва в разные периоды его творческой жизни неодинакова. К заслугам поэта можно отнести создание собственной традиции, опирающейся на принцип особо строгого отбора поэтических средств. В свою очередь Анна Ахматова среди представителей акмеизма необычайно чётко расширила смысловое пространство текста. Несмотря на то, что оба автора принадлежали к одному поэтическому направлению, использование и образование сложных имён существительных в лирических произведениях поэтов имеют некоторые различия.

И Николай Гумилев, и Анна Ахматова в своём творчестве используют сложные слова, но если говорить о частоте использования, то Гумилёв прибегает к сложным именам существительным чаще Ахматовой. Так, при анализе композитов-существительных в стихотворениях Ахматовой было выявлено 67 слов-композитов, у Гумилёва 95 сложных имён существительных.

В лирических произведениях Гумилёва представлены следующие основные способы образования композитов-существительных: 1) чистое сложение; 2) сложение с суффиксацией; 3) сращение; 4) аббревиация.

Поэт не очень часто, но всё же использует композиты узуального характера, образованные способом **чистого сложения с опорным компонентом, содержащим глагольную основу**: *водоворот, ледоход, пароход* и др.

Сложение с опорным компонентом равным самостоятельному слову у поэта также не продуктивно и представлено такими словами, как *трагикомедия*, а также словами с первой частью пол-: *полубог, полумгла, полуночи.*

В его произведениях нужно обратить внимание на композит, образованный от производящей базы сложного слова: *средневековье* – от средн**е**-век-**ов**ый + ***-j-*** = суффиксация. *Слова новорождённый* (нов+о+рождённый) и *вагоновожатый* (вагон+о+вожатый) по структуре являются сложными, но по способу образования относятся к переходу одной части речи в другую (в данном случае имени прилагательного в существительное).

Среди композитов с интерфиксом в произведениях Гумилёва наиболее продуктивен сложно-суффиксальный способ. Так, рассматривая лирические произведения поэта, были обнаружены следующие композиты:

1) **образованные сложением с опорным компонентом, содержащим глагольную форму:** *богослужение, головокружение, землетрясение, коленопреклоненье (-енийj-/-еньj-); мореплаватель (-тель-): самоубийство (-ств-);* 2) **образованные сложением с опорным компонентом, содержащим основу существительного**: *белорученька (-еньк-); косноязычие, милосердие, славословие, славословья (-ийj-/-ьj-); чернокнижница (-ниц-); иноверец, сребролюбец (-ец-); столетник (-ик-).*

Очень часто поэт образует сложные существительный без интерфикса. Среди сложных существительных у Гумилёва можно выделить ряд слов с одинаковыми компонентами: **птица** – *птица-мальчик; Дева-птица*; **дева** – *дева-жрица, дева-птица, дева-тень, дева-ундина; ребёнок-дева*; **ребёнок** – *ребёнок-дева; царь-ребёнок*; **рыба** – *рыба-меч* (ср.: *в узусе меч-рыба*); **девушка** – *девушка-колдунья, девушка-чудо;* **мальчик** – *мальчик-птица / птица-мальчик, мальчишка-тритон;* **Бог** – *Бог-существо, бог-слово* (*окказ.*); **сказки** – *сказки-стихи; феи-сказки;* **чудо** – *чудо-мост; девушка-чудо,* **мост** – *чудо-мост, поясок-мост.*

Остальные композиты представлены единичными случаями: *волны-стены, галереи-леса, медведица-ночь, слон-пустынник, сёстры-лихорадки; Солнце-зверь, Христос-младенец* и др.

Способ сращения наименее продуктивен и представлен только одним словом в разных формах: *сумасшедш-ая/ий*.

В стихотворениях Гумилёв использовал также аббревиацию как узуального, так и окказионального характера: *Совнархоз* (подвид аббревиации слоговой) – *совет народного хозяйства, Петросоюз* (подвид аббревиации слого-словный) – *петроградский союз* и др. Способ не продуктивен.

В лирических произведениях Ахматовой, как и у Гумилёва, представлены практически все подспособы образования сложных слов на уровне имён существительных, кроме аббревиации.

На уровне чистого сложения с интерфиксом она использует **сложение с опорным компонентом, содержащим глагольную основу:** *водомёт, водопад, клинопись* и др. Анализ показал, что подобных слов узуального характера Ахматова использует чаще Гумилёва; **сложение с опорным компонентом, равным самостоятельному слову** представлено такими словами как *краснобай, чернозём* (с усечённой основой), *полуночи.* Сложение в сочетании с суффиксацией с интерфиксом представлено **сложением с опорным компонентом, содержащим глагольную форму**: самоубийство (-ств-). Данный способ у Ахматовой не продуктивен; **сложением с опорным компонентом, содержащим основу существительного**: *треуголка (-к-); иностранка (-к-); милосердие (-ийj-); чернокнижница (-иц-); чудотворец, самозванец (-ец); песнопение, сладострастье (-ийj-/-ьj-/-j-); лесопильня (-н-).*

Композиты с нулевым интерфиксом Ахматова использует не так часто, как Гумилёв. При анализе лирических произведений было обнаружено 15 сложных слов без интерфикса: это такие сложные существительные как *баб**ушк**а-татарка, дев**к**а-соседка, мальч**ик**-пастуш**ок**, муза-сестра, сплетницы-старухи* и др. Слов с одинаковыми первыми или вторыми компонентами у Ахматовой нет.

Сращение у Ахматовой, как у Гумилёва, представлено, одним словом *сумасшедший*. Аббревиация отсутствует.

Наиболее продуктивным способом образования сложных слов у Анны Ахматовой является сложение в сочетании с суффиксацией с интерфиксом.

Таким образом, при анализе сложных существительных в творчестве Н.С.Гумилёва и А.А.Ахматовой можно отметить, что оба автора при создании своих произведений прибегали к использованию сложных имён существительных.

В количественном соотношении сложных существительных у Гумилёва больше, чем у Ахматовой. Если говорить о частоте использования сложных существительных, то и здесь есть некоторые различия.

Гумилёв практически в одинаковом соотношении использует как сложно-суффиксальный способ, так и способ образования композитов без интерфикса. У Ахматовой же наиболее продуктивен способ сложения с суффиксацией.

На уровне способа образования сложных существительных без интерфикса у Гумилёва были отмечены слова с одинаковыми компонентами как в первой, так и во второй части слова; у Ахматовой повторяющихся компонентов нет. Аббревиация в стихотворных произведениях Ахматовой не представлена. Гумилёв, хоть и не часто, использует сложносокращенные слова. При этом у обоих авторов окказиональных сложных слов больше представлено в способе образования композитов с нулевым интерфиксом.

Использованная литература

1. Панькова М.И. Гендерный аспект в изучении языка современной русской поэзии. Тульский государственный педагогический университет им. Л.Н.Толстого, факультет русской филологии и документоведения. Тула, 2019.
2. Русская грамматика, т. 1. М.: Наука, 1980.
3. Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка, т. 1-2. М.: Русский язык, 1990.
4. Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Дис. … канд. филол. наук. Ташкент, 2011.

Murodjon Mustofayev,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” – TURKIY XALQLARNING BEBAHO XAZINASI

Annotatsiya. Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarining o‘ziga xos jihatlari va turkiy tilning rivojidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, umumiy tilning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni va mohiyatiga oid masalalar Turkiy davlatlar tashkiloti misolida ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: turkiy til, turkiy sivilizatsiya, turkiy xarita, umumturkiy lug‘at, Turkiy davlatlar tashkiloti.

Annotation. The article analyzes the features of the work of Mahmud Kashgari “Diwan-Lughat-At-Turk” and its significance in the development of the Turkic language. Also, using the example of the Organization of Turkic States, issues related to the role and essence of a common language in modern international relations are considered.

Keywords: Turkic language, Turkic civilization, Turkic map, common Turkic dictionary, Organization of Turkic States.

Аннотация. В статье анализируются особенности произведения Махмуда Кашгари “Дивану луготит тюрк” и его значение в развитии тюркского языка. На примере Организации тюркских государств рассмотрены вопросы, связанные с ролью и сущностью общего языка в современных международных отношениях.

Ключевые слова: тюркский язык, тюркская цивилизация, тюркская карта, общетюркский словарь, Организация тюркских государств.

Ilk turkiy ensiklopediya

Jahon tamadduni rivojiga yuksak hissa qo‘shgan va bir qancha ilmlarni o‘zida jamlagan asarlarga nisbatan “qomusiy" yoki "ensiklopedik” asar tushunchasi qo‘llanadi. Darhaqiqat, shunday asarlar borki, yillar va hattoki, asrlar uning qiymatini yanada oshirib, tuganmas bilim bulog‘i kabi yangidan yangi qirralarini, sahifalarini ochadi hamda o‘quvchilarni va ilm ahlini o‘ziga rom qilib kelaveradi.

Ana shunday noyob ilmiy durdonalaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari, hech shubhasiz, turkiy xalqlarning bebaho qomusi hisoblanadi.

Turkshunos olimlar Mahmud ibn Husayn Koshg‘ariy tavallud topgan milodiy minginchi yilning dastlabki o‘n yilligida deb taxmin qilishgan va “Devonu lug‘otit turk” asarining yozilishini 1068–1071-yillar deb belgilashgan.

Mazkur asar turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Undagi adabiy parchalar turkiylarning juda qadim zamonlardagi hayoti, tafakkur tarzi, urf-odatlari, tarixiy va adabiy-estetik qarashlarining ifodalari sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Asarda keltirilgan so‘zlar va iboralar tadqiqotchilarni XI asr muhitiga sayohat qilishga undaydi.

Mahmud Koshg‘ariy asar yozilishi to‘g‘risida to‘xtalar ekan, “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib aniqlab chiqdim” [1], – deb yozadi. Anglash mumkinki, u bu asarni yozish uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rgan va unda keltirilgan barcha dalillarni o‘zining kuzatishlari va olib borgan tadqiqotlari bilan asoslashga harakat qilgan.

Asarda olti yarim mingdan ortiq turkiy so‘zlarning izohlari keltirilgan. Muallif ushbu so‘zlarning turli qabilalarda turlicha qo‘llanishi va ularning shevalardagi shakllariga to‘xtalib o‘tgan. Asarda keltirilgan hikmatlar va “Bitta qarg‘a bilan qish kelmas”, “Asal yig‘adigan odam asalari nishiga chidashi zarur”, “Ikkita tuya jang qilsa, o‘rtada pashsha halok bo‘ladi” – kabi mazmundagi maqollar kitobning badiiy jozibadorligini ta’minlash bilan bir qatorda, turkiy xalqlarga xos donishmandlik, mehnatsevarlik, har qanday vaziyatda aql bilan ish tutish kabi fazilatlar, shuningdek, o‘sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy muhitni tasvirlashga imkon beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, “Devonu lug‘otit turk” asari tarix, lingvistika, geografiya, etnografiya va boshqa bilimlarni o‘z ichiga olgan ilk turkiy ensiklopediya hisoblanadi.

Turkiy tilni o‘rganish bo‘yicha hadis bormi?

Ma’lumki, VII asrdan boshlab Arab xalifaligining siyosiy mavqeyi kuchayib borishi fonida arablar tomonidan istilo qilingan hududlarda islom dini bilan bir qatorda, arab tili va yozuvining yoyilishi va qo‘llanishi keng tarqaldi. XI asrda arab tili rasmiy muloqot, adabiyot va ilm tili hisoblangan. Shu boisdan ham “Devonu lug‘otit turk”ning arab tilida yozilgani bejiz emas. Ijtimoiy siyosiy hayotda ham arab va fors tillarining mavqeyi yuqori hisoblangan. Turkiy tildan esa bozorlarda va hunarmandchilik rastalarida ko‘proq foydalanilgan. Chunki, turkiy xalqlarning ko‘pchiligini savdogarlar, hunarmandlar va harbiylar tashkil etgan.

Asarni tahlil qilar ekanmiz, Mahmud Koshg‘ariy o‘zi turkiy qavm vakili sifatida turkiy til – ona tilining arab va fors tillari kabi boy til ekanligini har tomonlama asoslashga harakat qilganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Koshg‘ariy turkiy tilni o‘rganishga ilmiy jihatdan yondashish bilan birga, din va hadis ilmlariga ham murojaat qilgan. Kitob muqaddimasida hamd-u salovatdan so‘ng muallif turkiy xalqlarning ulug‘vorligi, bu tilni bilishning ahamiyati haqida to‘xtalgan: “Alloh taolo saltanat quyoshini turklar burjiga ko‘tardi. Falakni ham shular burjiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi... Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar” deb turk tilini o‘rganishga e’tibor qaratadi. Fikrlarining tasdig‘i uchun Payg‘ambar (s.a.v.) hadislaridan dalil keltiradi: “Ishonchli

bir buxorolik olimdan va nishopurlik boshqa bir olimdan shunday bir xabar eshitgan edim: “Payg‘ambar (s.a.v.) turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi...” deb ta’kidlaydi [1]. Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi xulosa qilganidek, bu hadisning qanchalik sahih yoki sahih emasligi uni aytgan odamlar gardaniga havola. Biz xulosa qiladiganimiz esa, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni inobatga olsak, Mahmud Koshg‘ariy turkiy tilning faol jonkuyari, uni saqlab qolish va mavqeyini ko‘tarish uchun kurashgan chin ma’nodagi buyuk arbob bo‘lgan.

Yaponiya tasvirlangan ilk xarita

“Devonu lug‘otit turk”ning muhim o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, asar o‘sha davrda yashagan xalqlar, qavmlar va joy nomlari tasvirlangan xaritani ham o‘z ichiga oladi. Bu tarixdagi ilk yozma turkiy xarita hisoblanadi. Mahmud Koshg‘ariy ushbu xaritani tuzishda arab xaritashunoslari afzal ko‘rgan doira shaklidan foydalangan. Amerikalik olim Frederik Starr Koshg‘ariy tuzgan xaritaning farqli tomonlariga e’tibor qaratadi. Xususan, arab xaritashunoslari doira shaklidagi xarita markaziga Makka shahrini joylashtirishgan va bu bilan ushbu shaharni yer sharining markazi sifatida tasvirlashga harakat qilishgan. Mahmud Koshg‘ariy esa o‘z xaritasi markaziga ilk turkiy imperiyalardan bo‘lgan Qoraxoniylarning poytaxti Bolasog‘un shahrini joylashtirgan. Bu esa muallifning o‘sha davrdagi siyosiy vaziyatdan to‘liq boxabarligini hamda Qoraxoniylar davlatining kelajagiga umid bildirganini anglatadi.

Bundan tashqari, xaritada hozirgi Misr, Hindiston, Rossiya va Xitoy hududlari ham tasvirlangan, Yaponiya yarim aylana shaklda aks ettirilgan. Olimlarning fikricha, mazkur xarita ilk turkiy va Yaponiya tasvirlangan eng qadimgi geografik xarita ham hisoblanadi.

2024-yil – “Devonu lug‘otit turk” yili

Ma’lumki, “Devonu lug‘otit turk” asari Turkiya Respublikasi UNESCO ishlari bo‘yicha Komissiyasining sa’y-harakatlari bilan 2017-yilda Jahon Xotirasi Reyestiriga kiritildi. Asarning bizgacha yetib kelgan yagona nusxasi 1266-yilda Damashq shahrida Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfath Saviy Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, ushbu qo‘lyozma hozirgi kunda Istanbuldagi Millat kutubxonasida saqlanadi. O‘zbekistonda “Devonu lug‘otit turk”dan namunalarni ilk bor jadidchi olim Abdurauf Fitrat 1927–1928-yillarda e’lon qilgan.

Hozirgi kunda “Devonu lug‘otit turk”ni butun dunyo olimlari va tadqiqotchilari o‘rganmoqda. Asar UNESCO tomonidan 2024–2025-yillarda nishonlanadigan xalqaro tadbirlar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, 2024-yilda “Devonu lug‘otit turk”ning 950 yillik yubileyini keng miqyosda nishonlash belgilangan.

Umumturkiy lug‘at yaratish g‘oyasi

Tilshunoslik fanida tilga insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida ta’rif berilgan bo‘lsa, zamonaviy xalqaro munosabatlarda til davlatlar va millatlar o‘rtasidagi munosabatlar darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, bugun Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida keng ko‘lamda rivojlanib borayotgan qardosh turkiy xalqlar (o‘zbeklar, ozarboyjonlar, qozoqlar, qirg‘izlar, turklar, turkmanlar va vengerlar) o‘rtasidagi munosabatlar negizida til, tarix va madaniyatlar o‘rtasidagi yaqinlik yotadi.

Turkiy davlatlar tashkiloti 2009–2021-yillar oralig‘idagi rivojlanish bosqichida “Turkiy tilli davlatlar Kengashi” deb nomlangani ham bu tuzilmaning ta’sis etilishida turkiy til birlashtiruvchi muhim omil sifatida asosiy rol o‘ynaganini ko‘rish mumkin. Bu hamkorlikning ildizlarini esa XI asr-dayoq Mahmud Koshg‘ariy ilmiy jihatdan to‘liq asoslab berilgan edi.

2024-yil 24–25-iyun kunlari Bishkek shahrida Turkiy Akademiya tomonidan “Devonu lug‘otit turk”ning 950 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etildi. Ushbu tadbirda ishtirok etgan Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev asarning turkiy xalqlar tarixidagi ahamiyati haqida to‘xtalar ekan, bugun ham aynan davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun “Devonu lug‘otit turk” kabi qomusiy asarlarga ehtiyoj borligini ta’kidladi. Asar “Devonu lug‘otit turk” misolida zamonaviy “Umumturkiy lug‘at” yaratish tashabbusini igari surdi. Ilmiy nuqtayi nazardan ushbu tashabbusning qanchalik ahamiyatli ekanini turkshunos va tilshunos olimlar belgilasa-da, ammo zamonaviy xalqaro munosabatlar va diplomatiya nuqtayi nazaridan uning dolzarb ekanligini ta’kidlashimiz o‘rinli hisoblanadi.

Xotima

Tarix vaqt o‘tishi bilan o‘zining yangi sahifalarini yozishda davom etar ekan, xalqlar va millatlar o‘zlarining umrboqiyligini saqlab qolishga intiladi. Turkiy xalqlarning umrboqiyligi va buyuk sivilizatsiya egalari bo‘lgani XI asrdayoq “Devonu lug‘otit turk”da aks etgan. Birgina maqola bilan butun sivilizatsiyaning sarchashmasi hisoblangan asarni batafsil yoritish imkonsiz bo‘lgani kabi, bu nodir asarni o‘rganish orqali har bir tadqiqotchi va kitobxon alohida xulosaga kelishi ham tabiiy jarayon.

Asar turkiy xalqlar tili, tarixi va madaniyati haqida o‘tmishdan sado berib turishi bilan bir qatorda, unda turkiy sivilizatsiyaning haligacha kashf qilinmagan qirralari va yashirin chizgilari haqida chaqiriqlar ham bisyor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. – Toshkent: O‘zbekiston. 2022. – 608 b.
2. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. Samarqand – Toshkent, 1927.
3. Стар Ф.С. Утраченное просвещение. Золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлена. – Москва: ООО “Интеллектуальная литература”. 2017..

Xoliyor SAFAROV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘ZBEK JADID HIKOYALARIDA RAMZIYLIK

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshlarida vujudga kelgan o‘zbek jadid hikoyachiligi, uning o‘ziga xosligi, badiiyati va hikoyalarda qo‘llanilgan ramzlar tadqiq etilgan. O‘zbek jadid namoyandalarining hikoyalarida qo‘llanilgan ramzlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotdagi ramzlar bilan uyg‘unligi, ko‘proq detal, sarlavha, bosh qahramon va personajlar vositasida ifodalangani ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: jadid, hikoya, ramz, millat, milliylik, detal, sarlavha, bosh qahramon, personaj, erk, zulmat, ma’rifat.
Annotation. The article examines the Uzbek modern storytelling, its uniqueness, artistry, and the symbols used in the stories, which appeared at the beginning of the 20th century. The symbols used in the stories of the representatives of Uzbek modernism are consistent with the symbols of Uzbek folklore and classical literature. It is considered to be expressed through more details, title, main character and characters.
Keywords: jadid, story, symbol, nation, nationality, detail, title, protagonist, character, freedom, darkness, enlightenment.
Аннотация. В статье рассматриваются существовавшая в начале XX века узбекская джадидская повесть, ее особенности, своеобразие, художественность и присущие ей символы. Видные представители литературы джадидов Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Кадыри, Чулпан, Мунавваркари Абдурашидханов, Саид Ахрори, Элбек, Боту начали использовать в узбекской просветительской повести национальные символы, элементы узбекского устного народного творчества, а также известные литературные приемы, такие как деталь, заглавие, главные герои и персонажи.
Ключевые слова: джадиды, повесть, символ, нация, национальность, деталь, заглавие, главный герой, персонаж, свобода, невежество, просвещение.

Olamni ramzlar orqali idrok etish va tasvirlash inson tafakkuri tadrijining ilk bosqichlaridanoq shakllangan. Obrazli tafakkurning ko‘rinishlaridan bo‘lgan ramzning adabiyotdagi o‘rni beqiyos. Ramz – aniq tasavvur etish qiyin bo‘lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko‘z oldida yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Xalq og‘zaki ijodidan tortib, Alisher Navoiygacha va undan keyingi adiblar ijodidan ham ramziylikning go‘zal namunalarini uchratamiz. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda keng ko‘lamda qo‘llanilgan ramziy tasvir vositalaridan jadid adabiyotida ham unumli foydalanilgan. Buning ikki jihati bor. Jadid hikoyalaridagi ramzlar avvalo, go‘zal badiiy tasvir vositasi sifatida, qolaversa, o‘sha davr ijodkorlari uchun himoya vazifasini ham o‘tagan.

Ramz voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli hisoblanib, barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Adabiyotimiz tarixida asrlar davomida qo‘llanilayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud. Masalan, gul - go‘zallik, ma’shuqa, bulbul – oshiq, sariq rang - mahzunlik, qora rang - motam ramzi. Ijod ahli an’anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi biror bir hodisadan, quyosh, oy, yulduzlar, bulut, chaqmoq, shabboda, buloq kabi detallardan ramziy tasvir vositasi sifatida foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma’noga ega bo‘ladi.

Nemis faylasufi Erik Fromm ramzlarni uch turga bo‘ladi: an’anaviy, tasodifiy, umuminsoniy. Uning talqiniga ko‘ra, ranglar an’anaviy ramzlarga kiradi. Tasodifiy ramzlar individual tajribaga asoslanib yaratiladi. An’anaviy ramzdan farqli o‘laroq, tasodifiy ramz jarayonga bog‘liq holda kechadi. Umuminsoniy ramzlar esa ko‘proq badiiy did bilan bog‘liq bo‘lib, tashqi dunyoni ichki hissiy jihatdan bog‘laydi. His-tuyg‘ular va hissiy tajribalar uning asosini tashkil etadi. Jadid hikoyalarida an’anaviy hamda umuminsoniy ramzlar ko‘proq uchraydi.

Ramzlar jadid hikoyalarida qo‘llanilishiga qarab, bir necha turlarga ajratish mumkin.

Detallar orqali ifodalangan ramzlar.

Sarlavhada aks etuvchi ramzlar.

Bosh qahramon yoki personaj ifodalagan ramzlar.

1. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bir a’mo bolaning hasrati” tabdil - hikoyasi ramzlarga to‘la. Unda yorug‘lik istayotgan avlod iztiroblari yashiringan. Asarda inson ruhiyati tabiat tasvirlari bilan shu qadar uyg‘unlashib, yaxlit bir kompozitsiya, jadidona timsollarni taqdim etganki, bu asar g‘oyasining yuzaga chiqishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Hikoya qahramoni bo‘lgan Ona – ikki renessansni boshdan kechirgan Turkiston timsoli, bola esa davr farzandi. U dunyo lazzatlarini, inson bahra olishi mumkin bo‘lgan barcha jihatlarni tarozining bir tomoniga, Ona diydorini esa ikkinchi tomoniga qo‘yadi. “*Eshitarmanki, kun (oftob) ko‘b go‘zal… Nahr bo‘yinda, suvning ustida uzayib osilgan gullarning ko‘runishi ko‘b latif*” ekaniga, “*kechalari ko‘k yuzinda yoshurungon yoruqlar ko‘runar emish*”[1: 109] deya imon keltirayotgan bola ularning barchasidan Ona – Turkiston diydorini afzal ko‘radi.

Jadid hikoyalarida ayrim detallar ham ramziylik kasb etgan. Cho‘lponning “Qurboni jaholat” hikoyasida o‘g‘irlangan soat – boy berilgan vaqt ramzi. Turkiston xalqi, hatto boylari ham o‘zaro ichki nizolar, nifoqlar oqibatida kelib chiqqan urushlar, tinchlik hukmron bo‘lgan vaqtda tiriklik g‘ami, qo‘lga davlat kirganida esa maishatbozlik, xurofot sabab jaholatga botib, ma’rifatni boy berdilar. Oqibatda yurt halokat yoqasiga kelib qoldi. Uyda osig‘lik soat o‘tgan umr va boy berilgan vaqt – imkoniyatlarni ifodalaydi. Yozuvchining “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi to‘la ramziy asar. Unda detal, sarlavha, qahramonga xos ramzlar mujassam. Sarlavhaning o‘ziyoq buni tasdiqlaydi. Qor – qahraton qish ne’mati, ayni matnda qabohat ramzi. Lola - go‘zallik timsoli, hikoyada esa qor qo‘ynida o‘sganligi sabab – qurbonlik ramzi. Hikoya avvalida tasvirlangan, qizlar o‘ynayotgan “kichkina, qizil ipdan bezatilgan to‘p (kaptov)” – taqdir timsoli. Uning “aljib qochib ketib”, yerto‘la og‘ilning devoriga yondoshib o‘sgan yosh qantak o‘rikka borib tegib sakrab hovuzga tushib ketishida ham ramziylik bor. Hovuz – loyqa, chirkin, turg‘un jamiyat timsoli. Muallif bu yerda daryo yoki ariqni tasvirlamasdan, aynan hovuzni qalamga olishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Hovuzda esa suv aylanishi - yangilanish bo‘lmaydi. Bu manzara ayni hayotning badiiy ifodasi. Hikoya qahramoni Sharofat - Turkiston qizlari, Samandar aka – mavjud jamiyatdagi otalar, Qumribush – onalar, Eshon esa jaholat ramzi. Muallif

ularni ma'rifat orzusida emas, to'y tashvishida birlashtiradi va ayni zamon manzarasini namoyon etadi. Muallifning "Oydin kechalarda" hikoyasida oy – umid ramzi bo'lib kelsa, "Ayriliq yo'li"da bu "vazifa"ni tong ifodalaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning "Qanday qullik tushdi?", "Devpechak" hikoyalari ham ramzlar bilan to'yingan asarlar sirasiga kiradi. "Qanday qullik tushdi?" hikoyasida "Ko'm-ko'k maysalar, yaxshi sabzalar bilan o'ralgan keng, go'zal bir qirning ustida" yolg'iz o'tlab yurgan ayg'ir ot – ozodlik ramzi. Daladagi eng yaxshi narsalar unga edi. "Yeb, qorni to'yganidan keyin u yoq-bu yoqqa o'ynoqlab, kishnab yurar edi". Uning dalasiga ko'z tikkan va u yerdan ketishni istamayotgan ho'kiz – vayronakor dushman timsoli. Ota uni haydab yubora olmaydi. Unga yordam kerak. Bu ishni yolg'iz odam uddalaydi. Hikoyada Odam – hukmronlik ramzi. U shart qo'yadi: "*Ho'kizni quvib yuboraman, ammo tez quvlash uchun sening orqangga egar, og'zingga yugan solib, ustingga otlanishim kerak bo'ladi*" [2: 42] deydi. Ot shartga rozi bo'ladi. Odam ho'kizni qirdan quvib yuboradi, ammo otning og'zidan yuganini olmaydi. Tag'in oyog'iga kishan ham soladi. Endi u qayerga borsa, ot ustiga egar solib, minib boradi. Shu tarzda qullik paydo bo'ladi. Hikoyadagi detallar ham ramziy ifoda kasb etgan. Egar – taxt, yugan – tobelik, kishan – qullik ishorasini beradi.

Said Ahroriy hikoyalarida ham Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida kuzatilganidek tabiat manzaralari orqali ruhiy holatni aks ettirish, aniq voqealar tasviridan ko'ra, fasllar, ramzlar orqali maqsadga erishish yetakchilik qiladi. Muallif "Tong otqanda" hikoyasida tong – erk tasvirini "*Qop-qora qanotlaridan qayg'ular oqqan, aftidan qo'rquvlar tomg'an qorong'u tun bitdi. Sharqning ucha tog'larining tepalarida oppoq, yengil - pag'a bulutchalar yarqillay boshladi. Bular endi erkalanib yuzalar, erkalanib uchadilar. Ana reza-reza yulduzlar uyatchan qizlar singari qochishib, ketma-ket berkindilar*" [3: 35], tarzida ifoda etadi.

E'tiborlisi shundaki, 1923- yilda Elbek tomonidan tuzilgan "Go'zal yozg'ichlar" kitobiga kiritilgan aksariyat hikoyalarda to'rt devor, qorong'ulik, qora bulut, qora chiroq, qarg'alar – erksizlik va ojizlik ramzi. Gultagin – G'afurjon Rahimovning "Bahorning kelishi" hikoyasida inqilobdan keyingi voqealar tabiat tasviri o'laroq qalamga olingan bo'lib, unda bahor – ozodlik ramzi sifatida keladi. Qarg'alar va qora bulutlar – erksizlik sifatida eski tuzumni ifodalaydi. "*Burunlari uzun, tovushlari yoqimsiz qarg'alar chag'illashib o'tib ketdilar. Ko'k yuzini qoplab turg'uvchi qora bulutlar ko'klamning yoqimli shamollari tomonidan quvlanib, shimol yog'ig'a qarab qochdilar*" [4: 10]. Ularni ko'klam shamollari olislarga surib ketadi. Hikoyada varrak – erk ramzi bo'lib, fazolarda uchadi.

Erksizlik manzarasi Mirmulla Shermuhammadning "Turmush ko'runishlari" hikoyasida "Boyaqish Karima o'n yetti yoshida tiriklikning eng bir torli zamonlarida to'rt devor orasida qamalg'on edi", Saidalining "Tabiatda bahor" hikoyasida "...mening ustimda esa qo'rqinch qora bulutlar har nafasda guldurlab olov chaqnatadirlar", Muborak Yunusovaning "Tuyg'unoy" hikoyasida "Kuzning so'nggi kunlaridan biri; qorong'i kecha, barcha yoq jimjit..." tarzida beriladi. "Turmush ko'runishlari"da yana bir ramz borki, muallif uni "*Qo'lida bir parcha siniq ekmak (non)*" [5: 12] tarzida tasvirlaydi. Siniq non – yarim rizq. Bu ifoda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston xalqining iqtisodiy, ijtimoiy ahvolini ifodalaydi.

2. Jadid hikoyalaridagi yana bir jihat sarlavhada aks etgan ramzlardir. Sarlavha badiiy asarning muhim elementi bo'lib, unda asar "hayoti"ning mazmun-mohiyati to'la namoyon bo'ladi. "*Sarlavha badiiy asarning ma'naviy qatlamlari bilan botiniy aloqada bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy asar o'qilib, tushunilganidan so'nggina uning mohiyati oydinlashadi*" [6: 95]. Bu ramziylikning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Ramzga to'yingan sarlavhalar o'z davridayoq "u yonadur ham yondiradur" deya yuksak e'tirof etilgan Cho'lpon hamda Munavvarqori Abdurashidxonov hikoyalarida ko'plab uchraydi. Abdulhamid o'g'lining "Bahor avvallari", "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", Munavvarqorining "Devpechak" hikoyalari bunga yaqqol misoldir. Cho'lponning "Bahor avvallari" hikoyasi "*Qorong'u qish qora kun, qora tunlarin ustimizdan ko'tarub chiqub ketdi. Chiroylik, yorug'li, issiq oftob, shoirlarcha aytkanda, nozli qizday kulub turadir*" [7: 315], deb boshlanadi va inqilobdan ulgi olgan millat ruhiyati bahorga qiyoslanadi. Bunda qish - inqilobgacha bo'lgan davr, bahor esa yangi davr ramzi. "Qor qo'ynida lola" – ramzlar bilan to'yingan hikoyalarining eng go'zal namunasidir. Unda ikki tushunchaning ziddi o'laroq vujudga kelgan "tazod sarlavha" ijodkorning noyob poetik topilmasi bo'lib, hikoya har qanday oqim, har qanday metod orqali tahlil etilganda ham badiiy jihatdan yuksak ekani namoyon bo'ladi. Unda soflik va g'ayurlik, boylik va yo'qsullik, imon va nafs tajallisi, davr og'riqlari, qismatga ko'nikish, hayot sinovlari oldida ojizlik iztiroblari go'zal ifoda etilgan. Hikoya "Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n..." deya sanab, to'p sakratib o'ynayotgan qizlar tasviri bilan boshlanadi. "*Kichkina, qizil ipdan bezalgan to'p (kaptov) aljib qochib ketib, yerto'la og'ilning devoriga yondoshib o'skan yon qantak o'rikka borib tegdi-da, sakrab hovuzga "sho'p" etib tushib ham ketdi*" [7: 285]. E'tibor berilsa, Cho'lpon hikoyada to'p sakratib o'ynayotgan qizlarning yoshini aytmaydi. Ammo sanoq o'nda tugaydi va bu davr o'n gulidan bir guli ochilmagan millat ertasi – qizlarning umri kabi murakkablashib borishiga ishora beradi. Cho'lpon hikoyani ana shunday nozik dramatik tasvir bilan boshlaydi va "sahnadan sahnaga o'tish" orqali davr ruhiyatini, hayot og'riqlarini, umuman, Turkiston musibatini to'la namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
2. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – B. 198.
3. Ahroriy Said. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – B. 104.
4. Elbek. Go'zal yozg'ichlar. (Tabdil qilingan qayta nashr). Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – B. 144.
5. Elbek. Go'zal yozg'ichlar. Toshkent: O'zdavnashr, 1925. – B. 114.
6. Hamroyev K. Hikoya kompozitsiyasi. Toshkent: Nurafshon biznes, 2020. – B. 140.
7. Cho'lpon. Asarlar. 2-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1994. – B. 198.
8. Qodiriy A. Diyori bakr. Toshkent: Info Capital Group, 2017. – B. 576.
9. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. Toshkent: Info Capital Group, 2019. – B. 480.

Nasiba ERHANOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti doktoranti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA OID DOLZARB MASALALAR VA ULARNING YECHIMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha olib borilishi lozim bo'lgan metodik jarayonlar samaradorligini oshirish texnologiyalari yoritilgan.
Kalit so'zlar: malaka, nutq, lug'at, kompetensiya, faollik markazi, jarayon, yondashuv, interfaol, samaradorlik.
Annotation. This article highlights the technologies for improving the effectiveness of methodological processes for the formation of speech competencies of learners of preschool educational organizations.
Keywords: skill, speech, vocabulary, competence, activity center, process, approach, interactive, efficiency.
Аннотация. В данной статье освещены технологии повышения эффективности методических процессов по формированию речевых компетенций воспитанников дошкольных образовательных учреждений.
Ключевые слова: квалификация, речь, словарный запас, компетенция, центр активности, процесс, подход, интерактивный, эффективность.

Ravon nutq – bolaning maktabga tayyorgarlik indikatorlaridan eng asosiysi hisoblanadi. Ravon gapiruvchi bolalarda ijtimoiylashuv jarayonlari oson kechishi bilan birga, ular muloqot paytida yangi bilimlarga nisbatan tez qiziqish bildiradi. Fikrlarini erkin bayon eta oladigan bolada o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqini o'stirish masalasi shu sababli dolzarbdir.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishda muhim vositadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar bilan ishlashning mazmuni ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Guruhlarda tashkil etilgan kichik kutubxonalar tarbiyalanuvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqishni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Badiiy adabiyot orqali bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy faoliyat majburiyatlari bajarilsa, bir vaqtning o'zida jarayonni qiziqarli va samarali qilish, ta'lim faoliyatini diversifikatsiyalashga yordam beradi. Badiiy asarlarning ulkan imkoniyatlari bolaning ruhiy va hissiy jihatlarini "davolaydi", badiiy pedagogik faoliyatda hech narsa bilan taqqoslanmaydi, chunki boshqa biror-bir faoliyat turi bunday murakkab ta'sirni ta'minlay olmaydi.

Izlanishlarimiz natijasi o'laroq, nutq o'stirish mashg'ulotlari jarayonida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish faqatgina og'zaki faoliyat emas, balki aniq pedagogik texnikalar bilan olib boriladigan jarayon, degan xulosaga keldik. Shu sabab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o'stirish mashg'ulotlarini amaliy vazifalar hal etiladigan ta'limiy jarayon sifatida talqin etish tarafdorimiz. Ayni jarayonda nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy talablarni bajarishda quyidagi savollarga pedagog javob topishi zarur:

1. Nimani o'rgatish kerak? Bunda faol nutqiy ko'nikmalar va dunyoqarashni shakllantiradigan ertak, hikoya, she'r, maqol, topishmoqlar bolalar yoshiga mos holda tanlanishi zarur.

2. Qanday qilib o'qitish kerak? Nutqni rivojlantirish uchun qo'llanadigan shakllar, vositalar, usullar bolalar uchun qiziqarli, oson va sodda bo'lishi kerak.

Zamonaviy metodikada bolalar tomonidan badiiy asarlar bilan tanishish ularning izchil nutqi, kommunikativ ko'nikmalari rivojlanishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Badiiy asarlar – fikrlash va bilish vositasi. Bu intellektual faoliyatni rivojlantirishga imkon beradi. Badiiy asarlarga til orqali fikrni shakllantirish usuli sifatida qaraladi.

Nutq mantiqiy bilish vositasidir; aynan shu nutq oddiy so'zlashuv bilan birga, badiiy asarlar vositasida bolaning fikrlash qobiliyati rivojlantirib boriladi. Boshqa tomondan, nutq tafakkurga asoslangan. Ushbu jarayonda bolalarbop badiiy asarlarning sodda tili, qiziqarli epizodlari tarbiyalanuvchilarni bevosita mushohadaga chorlaydi. Natijada nutq ham, fikrlash ham yanada rivojlanadi.

Mashg'ulotlarni olib borishga amaliy tayyorgarlik ta'limning barcha darajalarida samarali sanalganidek, badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirishda ham o'ziga xos qiymatga ega. Badiiy asarlar bilan tanishtirishda ham turli xil va samarali usullardan foydalangan holda, didaktik muloqotni tashkil etish bir butun kompleks ta'limiy jarayonni o'z ichiga oladi. Bunda barcha nazarda tutiladigan vazifalar an'anaviy ravishda 4 ta blokka birlashtirilishi mumkin:

1) bolaning nutqini badiiy asarlardagi adabiy til

me’yorlariga muvofiq moslashtirish, notanish so‘zlarni tushunishga va anglashga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni paydo qilish;

2) didaktik og‘zaki aloqa jarayonini paydo qilish va bunda ma’lum bir o‘rganilayotgan asar bo‘yicha tushunchalar sxemasi, o‘rganish zarur bo‘lgan jihatlar xaritasini rejalashtirish;

3) didaktik o‘yinlar vositasida o‘rganilayotgan asar yuzasidan muloqot jarayonini tashkil etish va shu orqali bolalar e’tiborini jalb qilish, ular bilan emotsional aloqa o‘rnatish, nutq faoliyati uchun turtki berish, ijtimoiy va idrok etish qobiliyatlari, nutqni o‘zlashtirish va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati, bolalar bilan muloqot jarayonida birgalikda ijod qilish muhitini yaratish;

4) kommunikativ harakatni bolaning nutqini rivojlantirish uchun samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish va olingan natijalarni umumlashtirish.

Izlanishlarimiz davomida badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirishda tarixdagi pedagogik tizimlarni o‘rgandik. Bunda bolalarga badiiy asarlar tog‘ridan to‘g‘ri o‘rgatilganini ko‘rish mumkin. An’anaviy ish shakllarida asarni tahlil qilish, tushunish va zamonaviy sharoitlarda qo‘llash kuzatilmaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish muhim, degan taklifni ilgari suramiz. Bu bo‘yicha eksperimental uslublarni yaratish va individual uslubiy metodlarning samaradorligini oshirish borasidagi maqsad izlanishlarimiz asosini tashkil etdi.

Bugungi zamonaviy pedagogikada badiiy asarlarni quruq shaklda emas, balki AKT vositasida vizual o‘rgatish o‘zini oqlamoqda. Vizual usullardan ko‘pincha ham bevosita, ham bilvosita shaklda foydalaniladi. Bevosita usullarda ertak yoki she’riy parcha bir paytning o‘zida o‘rganiladi va savol-javob qilinadi. Bilvosita usullar tasviriy vizualizatsiyadan foydalanishga asoslangan. Masalan, o‘yinchoqlar, rasmlar, fotosuratlar, rasm va multimedia resurslari, tasvirga qarab hikoya qilish bo‘lishi mumkin. Ular bilimlar, so‘z boyligini mustahkamlash, so‘zning umumlashtiruvchi funksiyasini rivojlantirish va izchil nutqni o‘rgatishda asqatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida badiiy asarlarni o‘qish va aytib berish, yodlash, takrorlash, suhbatni umumlashtirish an’anaviy usul sifatida eng jo‘n va ortiqcha tayyorgarliksiz olib boriladigan ta’lim shakli sifatida o‘tmishda qolishi kerak. Boisi vizual materialga tayanmasdan aytib berilgan asar turli gadjetlardan yorqin tasvir va ma’lumotlarni olib o‘rgangan bolalarni qiziqtirmasligi turli tajribalarda aniqlangan. Aksincha, amaliy metodlarga ko‘ra turli didaktik o‘yinlar, dramatizatsiya o‘yinlari, didaktik mashqlar, yaratuvchanlikka undovchi metodlar tarbiyachilar faoliyatida ustunlikka ega bo‘lishi kerak. Sababi badiiy adabiyot bolalarning lug‘at boyligi, nutqi, fikrlash qobiliyatini o‘stirish, savodga tayyorlashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqiy faolligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bir qator kompetensiyalar qatorida nutq va muloqot ko‘nikmalari rivojlangan bolagina maktab ta’limiga tayyor hisoblanadi. Bu boradagi vazifalarni amaliyotda to‘laqonli bajarish va innovatsion texnologiyalar va badiiy adabiyotlardan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy faolligini oshirishning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda, ammo hamma amaliyotchilar ham ta’limiy jarayonda undan to‘g‘ri foydalana olmaydilar. Bolalarning rivojlanishini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, nutqiy faollik noan’anaviy ta’lim sharoitida boshqa faoliyat turlariga qaraganda samaraliroq rivojlanadi, shuning uchun tarbiyalanuvchilarni keng nutqiy faoliyatga kirishishga undaydigan badiiy adabiyotlarni zamonaviy pedtexnologiyalar asosida o‘rgatish metodikasiga tayanish tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirishdagi eng muhim usul hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar – pedagogik faoliyat natijasiga samarali erishishni ta’minlaydigan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’limiy munosabatlarning yangi usullari va uslublaridir. Bunday ta’limiy muhit zamonaviy sharoitlarda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o‘zgarishlar tufayli ijobiy natijaga erishishga qaratilgan ta’limiy usullar, metodlar, vositalarni o‘z ichiga oladi. Aynan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi nutq o‘stirish jarayonida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosligini e’tirof etgan holda, badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o‘rgatishning samaradorligi yuqori ekanini kuzatdik.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko‘p jihatdan quyidagilarni to‘g‘ri hal etish bilan bog‘liq:

– nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachining ma’lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o‘qib yoki aytib beriladigan ertak, she’r, qo‘shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;

– ta’limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etilishi;

– ta’limiy o‘yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo‘lishini ta’minlash.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

– har bir bolaning individual qobiliyatini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;

– hamkorlikka asoslangan ta’lim munosabatlarida bolani faollashtirish;

– nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o‘yinli vaziyatlar yaratish.

Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e’tibor qaratish kerak:

– texnologiyani o‘qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirish, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo‘naltirish;

– har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish bolaning shaxsiyatini shakllantirish va uni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi va quyidagi rivojlanish sohalarini ta'minlaydi:

1. Muloqot. Nutqni rivojlantirish bolalarga tengdoshlari, oila-a'zolari va atrofdagi odamlar bilan oson muloqot qilishiga yordam beradi. Ular o'zlarining fikrlari, ehtiyojlari va his-tuyg'ularini erkin ifoda etadilar va boshqalarning gapiga tushunadilar. Bu ota-onalar, tarbiyachilar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

2. Kognitiv rivojlanish. Nutqning rivojlanishi bolalarning diqqat, xotira, fikrlash va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular o'z bilimi va tajribasiga tayangan holda ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni o'rganadilar.

3. Akademik muvaffaqiyat. Yaxshi rivojlangan nutq – muvaffaqiyatli o'qish uchun asos. Fikrini aniq va to'g'ri ifodalay oladigan bolalar yangi materiallarni o'rganish, pedagoglar bilan muloqot qilish va savollar berishda o'zini erkin tutadi. Shuningdek, ular o'rganganlarini yaxshiroq tushunadilar.

4. Ijtimoiy ko'nikmalar. Nutqning rivojlanishi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Ular atrofdagilarni tinglash, hamkorlik qilish, o'z fikrlari va his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalash, nizolar va muammolarni hal qilishni o'rganadilar.

5. O'z-o'zini hurmat qilish va ishonch. Muloqot qila oladigan va qarashlarini bamalol ifodalay oladigan bolalarning o'ziga bo'lgan hurmati va ishonchi yuqori bo'ladi. Ular boshqa odamlar bilan muloqot qilishda o'zlarini ishonchli his qiladilar va hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moraru A. Maktabgacha ta'lim muassasasida tashkiliy rivojlanish dasturi. – Ruminiya: WCES, 2020.
2. Konja A. Maktabgacha ta'lim istiqbollari. – Turkiya: Kayseri, 2021.
3. Babayeva D. Nutq o'stirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. Berdaliyeva G. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish: Ped.fan.bo'y.diss...avtoref. – Toshkent, 2022.
5. Karlidag I. Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida ta'limiy muhitni yaratish. – INASED, 2021.
6. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Istiqlol, 2006.

Surayyoxon KIPCHAKOVA,
Andijon viloyati Izboskan tumanidagi
18-umumta'lim maktabining
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

"BALIQ OVI"NI O'RGANAMIZ

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qamchibek Kenjaning 7-sinflar uchun amaldagi "Adabiyot" darsligida berilgan "Baliq ovi" hikoyasini o'rganish haqida gap boradi. Dars jarayonini qanday tashkil etish, buning uchun qanday interaktiv metodlardan foydalanish kerakligi ko'rsatib berilgan. Qolaversa, o'qituvchi va o'quvchilar uchun kerakli manba va mavzuga aloqador qiziqarli tavsiyalar ham bor.

Kalit so'zlar: "Akvarium", "Musiqiy shlyapa", "Buzilgan narvon", "Suratli lug'at", "Psixolog maslahati", "Kim ekan?" metodlari, jamoaviylik, tahliliy-tanqidiy fikrlash.

Annotation. This article examines the study of the story "Fishing" given by Kamchibek Kendzhey in the current textbook "Literature" for the 7th grade. It shows how to organize the learning process and what interactive methods should be used for this. In the meantime, there are also interesting recommendations for both the teacher and students that relate to the desired resource and topic.

Keywords: "Aquarium", "Musical hat", "Broken ladder", "Picture dictionary", "Psychologist's advice", "Who is this?" methods, teamwork, analytical and critical thinking.

Аннотация. В данной статье рассматривается рассказ Камчибека Кенджаева "Рыбалка", данный в действующем учебнике "Литература" для 7-го класса, показано, как организовать учебный процесс и какие интерактивные методы для этого следует использовать. Даются полезные рекомендации как для учителя, так и для учеников.

Ключевые слова: методы "Аквариум", "Музыкальная шляпа", "Сломанная лестница", "Словарь в картинках", "Совет психолога", "Кто это?", работа в команде, аналитико-критическое мышление.

Bugungi rivojlanib borayotgan davrda har bir sohada yangilanish, o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu, albatta, ta'lim jarayonida ham aks etmoqda. Yurtimizda ushbu soha rivojiga yuksak e'tibor qaratilayotgani zamirida o'zida xush xulqni, yuqori did va saviyani shakllantirgan madaniyatli o'g'il-qizlarni voyaga yetkazish maqsadi mujassam [1]. Bunga erishish, avvalo, pedagoglar saviyasining yuqori bo'lishi va darslarning o'quvchi hayotidagi o'rniga bog'liq. Darsni turli interaktiv metodlar orqali tashkil etish esa uning sifatli va samarador bo'lishiga yordam beradi. O'quvchining diqqatini jamlaydi, faollashtiradi, mavzuning yanada yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlab beradi. Quyida shunday dars ishlanmani tavsiya etamiz.

Darsning mavzusi: Qamchibek Kenjaning "Baliq ovi" hikoyasi [2]. Asar matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

– ta'limiy: o'quvchilarning "Baliq ovi" hikoyasi bo'yicha olgan bilimlarini yanada boyitish;

– tarbiyaviy: oilaga, yaqinlariga bo'lgan muhabbatni yuksaltirish, samimiy tuyg'ularni qadrlashga o'rgatish;

– rivojlantiruvchi: o'quvchilarni erkin fikrlashga, tahliliy-tanqidiy qarashlarini bayon eta olishga yo'naltirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: kutubxonalardan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish va ulardan foydalanish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: Vatanni sevish, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

Dars usuli: noan'anaviy

Dars uchun kerakli jihozlar: darslik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, suratlar.

Dars shiori: Adabiyotga e'tibor – kelajakka, ma'naviyatga e'tibor.

I. Darsning borishi:

– salomlashish;

navbatchilik, sinf tozaligi va davomatni nazorat qilish;

– kirish suhbati, o'quvchilarda darsga nisbatan motivatsiya uyg'otish;

– sinfni guruhlarga bo'lish.

II. "O'tilgan mavzuni so'rash".

"Musiqiy shlyapa" usulidan foydalanamiz. Buning uchun bizga shlyapa va musiqa kerak bo'ladi. Birinchi partadagi o'quvchi shlyapani kiyadi va qo'shiq boshlanishi bilan uni keyingi sherigiga kiydiradi. Sherigi esa ortidagiga kiydiradi. Shu tariqa davom etayotgan paytda musiqa o'chiriladi, shlyapa boshida qolgan o'quvchi tezkor savolga javob beradi.

O'yin davomida quyidagicha savollar berilishi mumkin:

Komil nechanchi sinfda o'qirdi?

Komron nimaga ishqiboz edi?

Qayerda baliq mo'l bo'lardi?

Qaysi qahramon ilondan qo'rqmasdi?

Komronga yoqmaydigan mehmon uni qanday ism bilan chaqirar edi?

Komronning opasi kim?

Nima uchun uy egalariga baliqxo‘r mehmon yoqmasdi?

Komil nima uchun o‘zi xohlamasa ham baliq ovlagani borar edi?

Komilga mehmonlar qanday ta’rif berardi?

Do‘stlari Komronga qaysi vaqtda havas qilishardi?

O‘quvchilarning har bitta javobidan so‘ng guruhlar (3 ta bo‘lishi tavsiya etiladi) uchun ajratilgan akvariumga bittadan baliqchalar (sun’iysi) solib boriladi. O‘yin tamom bo‘lganidan so‘ng, 3 nafar o‘quvchi asardan parcha so‘zlab berishi kerak. So‘ng asarni yanada chuqur o‘rganishga kirishamiz.

III. Darsni 4 ta bosqichda olib boramiz:



“Buzilgan narvon” bosqichidan boshlaymiz. Doskada ko‘rgazma – narvon surati bo‘ladi. Uning pog‘onalariga hikoya voqealaring rivoji noto‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir guruhdan ikkitadan vakil chiqadi va voqealarni tartib bilan narvon zinalariga joylaydi. Shart bajarilgach, o‘qituvchi ularni tekshirib, baholaydi. Buzilgan, ya’ni noto‘g‘ri ketma-ketlik quyidagicha bo‘lishi mumkin:



To‘g‘ri javob:

Otam mehmonlarni katta uyga joylashtirdi.

Dadam: “Issiqroq kiyinvol, o‘g‘lim”, – dedi.

Akam uyga kirdi-yu, o‘zini sandalga urdi.

“Suratli lug‘at” bosqichini boshlaymiz. Ushbu usulimizda guruhlarga lug‘at (asarimizga oid) taqdim etiladi. Shuningdek, suratlar ham. O‘quvchilar lug‘atdagi so‘zning ro‘parasiga unga mos suratni yopishtirishlari kerak. Shart oson bo‘lib qolmasligi uchun asardan iloji boricha kamunum so‘zlar tanlanadi. Vazifa bajarilgach, har bir guruhdan bitta vakil chiqib, rasmlarni ko‘rsatgan holda so‘zlarning ma’nosini izohlab beradi. Javoblardan kelib chiqqan holda o‘qituvchi akvariumga yana baliqlarni soladi.

Bu usulda quyidagi suratlardan foydalanish mumkin:

ZOVUR

SHOLIPOYA

ZOG‘ORABALIQ

“Psixolog maslahati” bosqichiga o‘tamiz. Har uchala guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib, bilet tortadi va unda yozilgan topshiriqqa o‘z sheriklari bilan tayyorgarlik ko‘radi. Bu usulda o‘quvchilar tahliliy-tanqidiy fikrlarini namoyon etishadi. Avvaldan tanlab olin-gan uch o‘quvchi esa Bo‘ronbek aka, baliqxo‘r kishi, Komilning onasi obrazlarida sinfxonaga kirib kelishadi. Komilning ota-onasi “Voy bolam”lab, yig‘lab turadi. Baliqxo‘r kishi esa ularga beparvo qarab turaveradi. O‘quvchilarga quyidagi biletlar taqdim etiladi:

Bo‘ronbek akaning Komilning o‘limida o‘zini aybdor deb bilishi, sizningcha, to‘g‘rimi?	
Unga qanday so‘zlar bilan dalda bergan bo‘lardingiz?	Xuddi psixolog kabi unga maslahatlar berib, uni qiyin vaziyatdan olib chiqing.

Komilning onasi nima uchun turmush o‘rtog‘iga qarshi bora olmadi?	
Farzandidan ayrilgan onaga qanday so‘zlar aytgan bo‘lardingiz?	Daftaringizga uning ko‘nglini ko‘taradigan gaplarni yozing.

“Baliqxo‘r odam” sizda qanday tasavvur uyg‘otdi? Sizningcha, fojiada uning aybi bormi?	
Unga qanday gaplaringiz bor?	Unga atalgan so‘zlaringizni aytib bering.

Guruhlar yana bilet tortgan holda qahramon tanlashadi va tanlangan qahramonga o‘z so‘zlarini aytadilar. Ularning javoblariga ko‘ra akvariumga yana baliqlar solinadi.

IV. Mustahkamlash. O‘tilgan mavzuni yanada mustahkamlash uchun **“Kim ekan?”** usulidan foydalanamiz. Bunda o‘quvchilarga asardagi qahramonlarning jihatlari aytiladi, ular esa ta’riflar orqali gap kim haqida ekanini topadilar. Bunda bizga ko‘rgazma kerak bo‘ladi. Misol uchun, quyidagicha bo‘lishi mumkin:



So‘roq belgisi ortida quyidagi ta’riflar bo‘ladi:
U 7-sinfda o‘qirdi.
Oriq, novcha, semiz, mo‘ylovli, mo‘ylovsizlar.
U baliq tutishga ishqiboz edi.
U ilondan qo‘rqmasdi.
Chuvillashib Komronning izidan ergashardi.
Ular odatda 3 – 4 ta bo‘lib kelishardi.
Gavdasi beso‘naqay, rangi sovuq, mo‘ylovi labining ikki chetida osilib turadi.
Epchil, chaqqon, uloqqa tushadi.
Izohlarga javoblar olinib, baliqchalar taqdim etiladi.

V. Uyga vazifa. Ekranda Jaloliddin Usmonovning “Sirdaryo” qo‘shig‘ining klipi qo‘yib beriladi. O‘quvchilar klipni tomosha qilinganidan so‘ng, ularga asardagi hamda klipdagi voqelikni solishtirib, taassurot yozib kelish vazifasi beriladi.

VI. Baholash. Dars so‘ngida har bir guruhning akvariumdagi baliqlari sanalib, g‘olib jamoa aniqlanadi. Qolgan jamoa ishtirokchilari darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Dars lideri aniqlanib, unga badiiy kitob sovg‘a qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov A. Ta’limga e’tibor – kelajakka poydevor // Yoshlik, 2016. №8.
2. Kenjayev Q. Baliq ovi. https://www.ziyouz.com//portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/qamchibek-kenja-1946/qamchibek-kenja-baliq-ovi-hikoya.

Turg‘unoy KAZIYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

MATNNI ANGLASHDA GERMENEVTIK DIALOG AHAMIYATI VA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada matnni o‘rganishda germenevtik dialogning o‘rni va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, inson omili kommunikantlarining o‘zaro munosabatlari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: badiiy matn, germenevtika, dialog, ko‘nikma, matnni tushunish, fikrlash, o‘rganish.
Annotation. The article describes the role of hermeneutic dialogue in studying the text, the development of independent thinking skills, and the interaction of human factor communicators.
Keywords: artistic text, hermeneutics, dialogue, skills, understanding the text, thinking, learning.
Аннотация. В статье описывается роль герменевтического диалога при изучении текста, развитии навыков самостоятельного мышления, взаимодействии человеческого фактора коммуникаторов.
Ключевые слова: художественный текст, герменевтика, диалог, умения, понимание текста, мышление, обучение.

Shaxs muloqot jarayonida emotsional yoki passiv, mushohadali yoki mushohadasiz, muloyim yoki serjahl jihatlarini namoyon etar ekan, dialogik muloqotning borishini nazorat qiladi, boshqaradi, ikki shaxs o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘ra aloqa-aralashuvni yuzaga chiqaradi. Tilshunoslikda shaxs omili xususida so‘z ketganida uni harakatga keltiruvchi o‘ziga xos model to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish darkor. Reynvald: “Shaxs faqat muloqot jarayonida shakllanadi va namoyon bo‘ladi” [1], – deb aytar ekan, sotsial psixologiya nuqtayi nazaridan olib qaraganda, u “shaxslararo munosabatlar modeli” asosida ro‘yobga chiqishini ta’kidlaydi. Shaxs faqat muloqot aktida aynan dialogda namoyon bo‘ladi. Dialog – suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi. Nutqning bu turi o‘ziga xos qator belgi-xususiyatlarga ega. Nikolay Obozov dialoglarda inson omili kommunikantlarning o‘zaro munosabatlari asosida namoyon bo‘lishini va muloqot munosabatlarning reallashishidan iborat ekanini ta’kidlaydi [2].

Jahon tilshunosligida M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, V.V.Odinsov kabi olimlar L.Tolstoy, A.S.Pushkin, N.Gogol asarlaridagi dialoglar orqali bu turdagi nutqning matnni o‘rganishdagi ahamiyatini tahlil qilib bergan.

Ma’lumki, kishi o‘zini to‘la anglab yetishi uchun dialogga ehtiyoj sezadi. Professor V.I.Tolstixning yozishicha, inson o‘z qobiliyati va hayotdagi o‘rni qay darajada ekanini to‘la tushunib yetishi uchun dialog zarur bo‘ladi, ya’ni unga ehtiyoj sezadi. Ehtiyoj esa bilim olishga undaydi. O‘zbek tilshunosligi yoki adabiyotshunosligiga murojaat qilar ekanmiz, dialogga oid materiallar mukammal ishlashga muhtoj ekanini his qildik. Chunki bir qancha asarlar tahlil qilinar ekan, ushbu masala asosan dramatik asarlarga tegishli ekanligi isbotlanganini ko‘rdik.

Milliy o‘quv dasturining “Til va adabiyot fanlari orqali o‘quvchida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar”ida o‘quvchilarda fanga oid, shuningdek, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. Unga ko‘ra, vazifa “til va adabiyot fanlari bloki yo‘nalishidagi fanlar orqali o‘quvchida o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini-o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallagan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda, davlat tili hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirishda, mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantirish” [3] lozim. Shunday ekan, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ijodiy fikrlash ko‘nikmasini hosil qiluvchi matnlar ustida ishlash, uni talaba muloqoti orqali, dialoglar orqali ifoda etish yo‘llarini ko‘rsatib berish maqsadga muvofiq. Talaba mavzularni o‘rganar ekan, kommunikatsiya nimaligi (dialog kommunikatsiyada shakllanadi) va uni qanday amalga oshirish mumkinligi bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lishi, uni tushuna olishi mumkin bo‘ladi. Kommunikatsiya – so‘zlashuv, muloqot; ma’lumotlar, xabarlar, g‘oyalar bo‘yicha fikr almashinuv bo‘lib, insonlarning mehnat va ongli faoliyati davomidagi o‘ziga xos aloqa-aralashuv shaklidir. Kommunikatsiya insonning ijtimoiy shaxs sifatida kamol topishida asosiy mexanizmlardan sanaladi. Ana shu fikr almashinuv qanday amalga oshadi? Albatta, bu voqelik kommunikantlar bir-birlarini tushungan va tushuna olgan taqdirdagina amalga oshadi. Shuning uchun ham har bir ona tili o‘qituvchisi dialogning germenevtikaga oid ekanini tushunishi va uni tushuntira olishi lozim bo‘ladi. Ma’lumki, inson aql-zakovati tufayli ilm-fanda buyuk kashfiyotlar qilingan, uning yuzaga kelishini ta’minlovchi asosiy omil esa ta’lim tizimidir. Ta’limni tashkil etishda esa germenevtikaning qanday o‘rni bor, degan savol tug‘iladi. Germenevtika – borliq haqidagi qonun-qoidalarni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta’limot bo‘lib, filologiya, huquqshunoslik, ilohiyotshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metod va qoidalar to‘plami. Shuningdek, matnni tushunish va talqin etish san’ati interpretatsiya to‘g‘risidagi ta’limotdir. U ilohiy, tarixiy, madaniy matnlar bilan bir qatorda, yuridik va adabiy-badiiy matnlar bilan ham shug‘ullanadi. Germenevtika tarixan ilohiy matnlar talqini (interpretatsiyasi) bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik tarixiy manbalar va san’at asarlari, shu bilan birga, har qanday ijod hamda mehnat mahsuli sifatida e’tirof etiladi. Germenevtik ta’limotni talqin qilar ekanmiz, Mixail Baxtin kashf etgan dialog nazariyasi ko‘proq ta’limga tegishli ekanini aytib o‘tish kerak. U dialogni tafakkur namunalari tahlili asosida tushuntiradi. U izohlagan dialog nazariyasi falsafa, estetika, adabiyotshunoslik, tilshunoslik tarixidagi an’anaviy dialog nazariyalaridan tubdan farq qiladi. Baxtinning dialog nazariyasi ijtimoiy-psixologik, falsafiy-badiiy fenomenga nisbatan tamomila yangicha yondashuv mahsuli edi. Uning ilmiy va amaliy, ta’limiy ahami-

yati ham shunda. Bu adabiy tanqidchiga qadar dialog hodisasi asosan ikki qarama-qarshi qutblar orasidagi o‘zaro munosabatning dialektik birligi deb tushunilgan. Bunda dialogik vaziyatdagi qarama-qarshi ta’sir va buning natijasida paydo bo‘ladigan harakatga urg‘u berilgan. Osmon Yer bilan, ezgulik yovuzlik bilan, kun tun bilan, suv olov bilan doimiy ziddiyatda yashaydi, borliqdagi barcha katta-kichik harakatlar, faoliyatlar ayni qonuniyat asosida maydonga keladi, degan yagona konsepsiya ilgari surilgan. Baxtin dialog nazariyasining yangiligi shundaki, u ayni hodisaning yagona qutb doirasida voqe bo‘lish qonuniyatini badiiy asar va undagi inson obrazi tahlili asosida ochib berdi. Ya’ni juftlik hodisalar o‘zaro zid holatda dialogiklik kasb etgani holda, yakka holatida ham (Yer, ezgulik, kun, suv kabi) ichki dialogik struktura va mazmunga ega. Jamiyatda (yoki badiiy asar dunyosida) muqarrar antipodiga ega odam neytral holatda ham o‘zining botiniy antipodi bilan yashaydi. Bu hodisa badiiy asarda ichki dialog (mikrodialog) tarzida kuzatiladi. Inson tabiatan tushunish va tushuntirishga intiladi. Bu shunday san’atki, u insonning qanday yashashini o‘rgatadi, dunyoqarashida aks etadi. Inson o‘zi tushunganicha borliqda yashaydi va o‘z imkoniyatiga ko‘ra borliqni tushuntiradi.

Shaxs diskursda faol yoki nofaolligi, emotsional yoki noemotsionalligi, mushohadali yoki mushohadasizligi, yumshoq yoki serjahlligi va boshqa jihatlarini namoyon etar ekan, muloqotning borishini nazorat qiladi, boshqaradi, suhbatdoshi o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘ra aloqa-aralashuvni yuzaga chiqaradi. Jumladan:

Naqldurki, Ja’fari Sodiq Abu Hanifadan:

– Oqil kim? – deb so‘radi.

– Oqil yaxshi va yomonning farqiga boradi, – deb javob berdi.

Ja’fari Sodiq dedi:

– Bu jonivorlarda ham bor sifat: ursa – yomon ko‘rar, o‘t bersa – yaxshi ko‘rar.

Abu Hanifa dedi:

– Sizningcha, oqil kim?

Javob berdi:

– Oqil shundayki, ikki yaxshilik va ikki yomonlik orasidan, yaxshilikdan yaxshirog‘ini va yomonlikdan yaxshisini ajratadi [4].

Mazkur dialog yordamida turli maqsadlarni (grammatik bilim berish, kompetensiyaviy, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi) amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Masalan, sifat so‘z turkumi, otlashgan so‘zlarni topish va uni belgilash, qo‘shma fe’llar va tinish belgilari ustida ishlash kabi grammatik amallarni bajarish mumkin. Savollar beriladi: *1. Jonivorlarda kuzatiladigan sifatlarning qaysi birlari insonlarda ham mavjud? 2. Yaxshilikdan yaxshirog‘ini va yomonlikdan yaxshisini qanday ajratish mumkin?* “Mazkur gaplarda takror so‘zlar qanday vazifa bajarmoqda, bahs so‘ngida ushbu naqlga oid hikmatli so‘z va maqollar aytng hamda uni yozing” deb topshiriq beriladi. Shuningdek, kimnidir suhbatga tortish uchun nimalar qilish lozimligi o‘qituvchi tomonidan singdiriladi. Ya’ni matnnni ifodalashda germenevtikaning har bir talabiga rioya qilingan holda ish tashkil qilinadi. Shleyermaxerning germenevtik metodiga ko‘ra, gumanitar tafakkurni dialoglashtirish, grammatik bilim bilan psixologik bilimning uzviy aloqadorligi yoki, boshqacha aytganda, matnni tushunishda butun va bo‘lakning germenevtik aloqadorligi bo‘ladi.

Germenevtikani o‘rganishda dialog ahamiyatli bo‘lib, u savol-javob asosida yanada konkretlashadi:

1. Germenevtika qanday muammolarni o‘rganadi?
2. Tarixiy kontekstda germenevtikaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarni sanab bering.
3. Nima uchun germenevtikaning tadqiqot obyekti o‘zgaruvchan xususiyatga ega?
4. Germenevtik talqinga muhtoj qanday tarixiy, badiiy asarlarni bilasiz va ular qaysi jihatiga ko‘ra talqinga muhtoj?
5. Nima uchun fan (ilmiy bilim va tafakkur) germenevtika uchun asosiy tadqiqot obyekti bo‘la olmaydi?
6. Ma’noni mantiqiy jihatdan qanday his qilganingizni tushuntirib bering.
7. Hayotda hamma narsani tushunib va tushuntirib berishning imkoni bormi? Fikringizni misol bilan asoslang.
8. Germenevtika alohida fan bo‘lishi uchun nima to‘sqinlik qiladi?
9. Dialog muloqotning mohiyatini ochib bera oladimi?

Ta’lim ona tilida bo‘lgan har bir mashg‘ulotda ta’lim oluvchilar o‘z ona tilining lug‘aviy boyliklari, ifoda vositalari, tasviriy imkoniyatlari bilan tanishib, ularni muttasil egallab boradi, ya’ni ona tilidan ta’lim oladi, ona tilida yosh xususiyatlarga mos ravishda yaratilgan tarbiyaviy-mafkuraviy, axloqiy-adabiy, badiiy va hatto ilmiy adabiyotlarning eng sara hamda ommaviy ko‘rinishlari bilan tanishadi, ona tili imkoniyatlaridan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini oshirib boradi. Ta’lim ona tiliga asoslanganida bu ta’limi oldiga alohida, maxsus maqsad qo‘yilmaydi (chunki alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitilmaydi), lekin butun ta’limning maqsadi ta’lim oluvchining ona tilida fikrlashi va o‘z fikrini ona tilida bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Mana shu maqsad o‘z-o‘zidan ona tili o‘quv predmeti sifatida o‘qitilmasligini to‘la-to‘kis qoplaydi va ta’lim ona tilida olib boriladigan o‘quv dargohida bu predmet alohida o‘qitilsa, uning oldida o‘ziga xos muayyan maqsad turishidan dalolat beradi. Shunga ko‘ra, “ona tili ta’limi” bilan “ona tilida ta’lim” tushunchalari bunday yondashuvda nafaqat o‘zaro kesishadi, balki bir-biriga singadi ham.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рейнвальд Н. Психология личности. – Москва, 1987. – С. 197.
2. Обозов Н. О трехкомпонентной структуре межличностного взаимодействия // Психология межличностного познания. – Москва, 1981. – С. 84.
3. Ona tili fani milliy o‘quv dasturi (2022/2023-o‘quv yillari uchun). ttps://uzbmb.uz/upload/file/pdf/qabul2025/dasturlar/1. Ona%20tili%20va%20adabiyot/10-sinf-Ona%20tili%20fanidan%20o‘quv%20dastur.
4. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom monidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 35–36-betlar.
5. Сухих С. Языковая личность в диалоге // Вопросы строя немецкой речи. – Владимир, 1973. – С. 82.
6. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: Durdona, 2021.

Саодат ИСМАИЛОВА,
Азиза БЕДИЛОВА,
старшие преподаватели Ташкентского государственного экономического университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГР ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматривается использование игр при изучении русского языка, делается акцент на способности игры представить трудный материал в увлекательной форме, создать непринужденную и доверительную атмосферу между преподавателем и студентами, указываются сложности при использовании игр в учебном процессе, перечисляются виды эмоционального и интеллектуального стимулирования студентов.
Ключевые слова: игра, игровая деятельность, игровое задание, эмоциональное стимулирование, интеллектуальное стимулирование.
Annotatsiya. Maqolada rus tilini o‘rganishda o‘yinlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqiladi, o‘yinning qiyin materialni qiziqarli tarzda taqdim etish, o‘qituvchi va talabalar orasida qulay va ishonchli muhit yaratish jihatiga e’tibor qaratiladi, o‘quv jarayonida o‘yinlardan foydalanishdagi qiyinchiliklar ko‘rsatilgan, talabalarni hissiy va intellektual rag‘batlantirish turlari sanab o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: o‘yin, o‘yin faoliyati, o‘yin vazifasi, hissiy rag‘batlantirish, intellektual rag‘batlantirish.
Annotation. The article examines the use of games in learning the Russian language, focuses on the ability of the game to present difficult material in an exciting way, create a relaxed and trusting atmosphere between the teacher and students, indicates the difficulties in using games in the educational process, lists the types of emotional and intellectual stimulation of students.
Keywords: game, game activity, game task, emotional stimulation, intellectual stimulation.

Игры имеют немаловажное значение в духовном формировании студента, по ним можно судить о личности, характере, интересах, склонностях человека, использование их на уроках русского языка играет большую роль в учебно-воспитательном процессе. В играх наиболее полно проявляются такие особенности воспитания как естественность, непрерывность, массовость, комплексность, завершенность.

Наверное, нет преподавателя, который не использовал бы игру в своей работе. Однако последовательное использование игровых заданий требует определенного навыка. Игра позволяет создать между преподавателем и группой и между членами группы особые отношения доверительности, как и любая другая форма приятной и полезной деятельности, требующая взаимопонимания и взаимодействия участников и предполагающая межличностные контакты. Совместная деятельность укрепляет положение преподавателя как организатора учебного процесса, повышает его профессиональный авторитет, сплачивает учебную группу, создает в ней непринужденные дружеские и одновременно деловые отношения.

Игра позволяет обычно даже трудный для студентов материал представить в увлекательной для них форме. По разнообразию игровые задания нельзя сравнить ни с какими другими приемами обучения: практически преподаватель имеет возможность неограниченного выбора, позволяющего максимально индивидуализировать учебный процесс с учетом уровня и особенностей личности студентов. Игра помогает студентам по-новому увидеть себя, партнера и предмет обучения, поэтому использование игры положительно влияет и на все остальные аспекты учебного процесса.

Преподаватель должен руководить игрой, т.е. сохранять свое доминирующее положение в игре. Он не может руководить игрой без тесного взаимодействия с группой. Если преподаватель хочет использовать игровые задания, ему нужно постараться понять, что представляет собой каждый студент как личность, и найти то, что может вызвать его собственный интерес к учащимся. Это обязательное условие, без которого всё теряет смысл.

Если преподаватель не собирается использовать все игровые задания последовательно, а планирует их эпизодически, он должен выбрать определенную тактику поведения, которая позволяла бы в нужный момент перейти к игре. Если преподаватель держится подчеркнуто официально, то неожиданный переход к игре обескуражит студентов, игровое задание не даст положительного эффекта. С другой стороны, если преподаватель слишком поддается настроениям группы, то игровое задание отвлечет студентов от задания. Поэтому преподавателю рекомендуется соблюдать некоторые тактические правила:

1) не быть однозначным в поведении; делать иногда то, что для студентов неожиданно. Например, задавать неожиданные вопросы, высказывать мысли по ассоциации, шутить;

2) быть внимательным и благожелательным к студентам;

3) быть авторитетным и уверенным в своих методических поступках и решениях.

Назовем основные виды эмоционального стимулирования.

1. Игровое задание можно давать как отдых. Этот прием особенно удобен при эпизодическом использовании игровых заданий.

2. Игровое задание преподносится преподавателем как незапланированное.

3. Игровые задания вводятся с привязкой к конкретной ситуации, к конкретному студенту, но сам переход к заданию неожиданный.

4. Преподаватель постоянно поощряет студентов.

5. Смена и разнообразие ролей являются самостоятельным стимулирующим фактором, и здесь особенно важен индивидуальный подход.

6. Победителей игр-соревнований поздравляет вся группа.

Игра позволяет создавать положительные эмоции, но и сама нуждается в предварительном эмоциональном настрое студентов. Его можно создать искусственно, например, шуткой. Если студенты в данный момент устали, подавлены, то предложение участвовать в игре может вызвать у них отрицательную реакцию.

Перечислим основные виды интеллектуального стимулирования.

1. Переход от традиционных форм учебной работы к игре должен быть и неожиданным для студентов, и мотивированным с точки зрения целей данного урока или цикла занятия.

2. Игра – всегда проблема. Задачи, которые ставятся перед студентами, не должны быть слишком простыми, но в то же время должны быть посильными для них.

3. Можно стимулировать интеллектуальную деятельность студентов вопросами. Хорошо действует и такой прием, как таинственность тона и другие способы интонационного воздействия.

В процессе работы могут возникнуть трудные ситуации.

1. Студенты не вступают в игру или вступают в нее формально. Это отмечается на начальном этапе работы с коммуникативными играми и в случае, если игровые этапы учебной работы не подготовлены преподавателем: студенты не верят в свои силы, стесняются, не знают, как реализовать свою роль. Поэтому преподавателю следует тщательно готовить игровой этап урока: проигрывать самую трудную роль самому; выбрать инициативных и подготовленных исполнителей, дать список слов, диалоги-образцы, иллюстрации на доске; объяснить студентам тактику игры.

2. Игра затягивается, поскольку студенты не могут найти правильного решения. Преподаватель вводит дополнительные обстоятельства, помогающие студентам достичь цели, или подсказывает ответ.

3. Игра затягивается из-за того, что участники отвлекаются в своих действиях на другие (второстепенные) цели – преподаватель повторно формулирует задачу.

4. Игра затягивается из-за того, что участники не могут наладить взаимоотношения – преподаватель уточняет их роль.

5. Игра заканчивается слишком быстро, поскольку участники игры идут к цели кратчайшим и самым простым путем – преподаватель ставит дополнительные условия, которые заставляют студентов более активно пользоваться речью.

6. Игра переходит в конфликтную ситуацию (например, спор переходит в ссору) – преподаватель разрешает конфликт, ликвидируя предмет спора (дает решение в готовом виде и указывает правильные моменты в позициях обоих участников), или вводит в игру новых участников, которые нейтрализуют участников конфликта.

7. Студенты не включаются в игру, а только симулируют игровую деятельность – дефект, который не всегда удается исправить в ходе самой игры. Иногда этот недостаток можно преодолеть переформулировав цели участников; иногда следует завершить неудачную игру, сменить одного или нескольких участников. Случается, что преподаватель останавливает игру, заново формулирует и мотивирует игровую установку и подкрепляет общий положительный эмоциональный фон.

8. Наиболее сложным в ведении занятий с использованием игр является то, что в них функция преподавателя как руководителя учебного процесса трансформируется. Если преподаватель будет постоянно корректировать действия участников игры исходя из своего представления о том, что должно происходить, студенты откажутся от самостоятельного поиска решений. Если же преподаватель вообще не будет управлять ходом игры, то возникнет угроза невыполнения задания или его неправильного выполнения. В этом случае преподаватель рискует потерять контроль над группой.

Несмотря на все трудности, игра дает преподавателю такие возможности, такой творческий подъем и такое удовлетворение, что пользоваться ею стоит.

Использованная литература

1. Акишина А.А., Каган О.Е. Учимся учить. М.: Русский язык, 2005.
2. Арутюнов А.Р. и др. Игровые задания на уроках русского языка. М.: Русский язык, 2002.
3. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. М.: Русский язык, 2000.

Nozimaxon MAMAJANOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INGLIZ TILIDAGI “GUESS WHAT!” DARSLIKLARIDA FONETIK INTERFERENSIYA HODISASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun joriy qilingan ingliz tili darsliklarida fonetik materiallar va interferensiyani yuzaga keltiradigan holatlar tahlil qilinib, interferensiya turi va kelib chiqish sabablari izohlangan.
Kalit so‘zlar: interferensiya, fonetik interferensiya, tillararo interferensiya, til ichki interferensiyasi.
Annotation. In this article, phonetic materials and situations that cause interference are analysed in the English language textbooks introduced for elementary school students, as well as the nature of the interference and its causes are explained.
Keywords: interference, phonetic interference, interlingual interference, intralingual interference.
Аннотация. В статье анализируются фонетические материалы и ситуации, вызывающие интерференции, в учебниках английского языка, вводимых для учащихся начальной школы, и объясняются типы интерференции и ее причины.
Ключевые слова: интерференция, фонетическая интерференция, межъязыковая интерференция, внутриязыковая интерференция.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishiga muhim urg‘u berilmoqda. Dunyo hamjamiyati miqyosida erishilayotgan fan yutuqlaridan doimo xabardor bo‘lishlarini nazarda tutgan holda, magistratura yo‘nalishida o‘qishni davom ettirish istagini bildirgan talabalardan til bilish darajasini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlardan birini topshirish zaruriy hujjatlar ro‘yxatiga kiritildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yilning 20-dekabridagi Murojaatnomasida ham ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qator rejalar haqida alohida to‘xtab o‘tilgandi [1]. Unga ko‘ra, har bir bitiruvchi o‘quvchi biror hunarni, bitta xorijiy tilni va kompyuter texnologiyalarini bilishi shartligi ta’kidlangan. Ushbu vazifalar xalq ta’limi xodimlari oldiga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan samarali ishlarni tashkil etishni taqozo etdi.

Asosiy vazifalardan biri xorijiy tillarni puxta o‘rganish bo‘lib, bu yo‘nalishda samarali va salmoqli ishlar yo‘lga qo‘yildi. Bularning sirasiga 2022–2023-o‘quv yilidan boshlab Kembrij tajribasi asosida yaratilgan yangi “Guess what!” 1–6-sinflar uchun, “Prepare” 7–11-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ingliz tili darsliklarini kiritish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan darsliklar o‘quvchi kitobi, ish daftari, o‘qituvchi kitobi, audio va videolar jamlangan disk va test generatorni o‘z ichiga oladi. Darslik orqali ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar o‘qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini hamda grammatika va leksika birliklarini har bir bo‘limda egallab boradilar. Dars berish davomida shunga amin bo‘ldikki, har bir mavzuni puxta o‘rgangan o‘quvchi qo‘shimcha darslarsiz xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritishi mumkin.

Ushbu maqolada biz mazkur darsliklarda fonetik interferensiya hodisasiga qay darajada e’tibor qaratilganini tahlil qilmoqchimiz. Avvalo, interferensiya hodisasiga izoh bermoqchimiz. Interferensiya hodisasi bu – ikkinchi tilni mukammal bilmaydigan bilingv, ya’ni ikki til sohibi bo‘lgan o‘quvchilar nutqidagi til me’yorlaridan chekinish holatidir.

Interferensiya hodisasi turli tillarni o‘rganish bilan bog‘liq holda keng o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchilar ushbu hodisaga o‘z nuqtayi nazarlaridan turlicha ta’rif berganlar. Jumladan, arab tilini o‘rganishda ona tili interferensiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan Kamola Qodirova jamiyatda ko‘pincha ko‘p tillilik va ikki tillilik mavjud bo‘lishi, ikki yoki undan ko‘p tillarning o‘zaro harakati natijasida u yoki bu til me’yorlaridan chekinishlar sodir bo‘lishini interferensiya deb ataydi [2: 7]. Ingliz tilini o‘rganishda o‘zbek tilining ta’siri masalalarini o‘rgangan S.Misirov fikricha esa, interferensiya bu – ikki tilni mukammal bilmaydigan bilingv nutqida me’yordan chekinishdir [3: 72]. Til materiallari to‘qnashuvidan kelib chiqadigan salbiy ta’sirning keng ko‘lamliligi va til sathlariga bevosita bog‘liqligidan kelib chiqib, odatda lingvistik interferensiya uch turga bo‘linadi: fonetik, grammatik va leksik [4: 17–21].

Fonetik interferensiya ona tilida egallagan nutq ko‘nikmalarini ikkinchi tildagi yangi nutq ko‘nikmalariga salbiy ta’siri natijasida namoyon bo‘ladi [5: 152]. Haqiqatan ham, ikkinchi xorijiy tilni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida eng katta qiyinchilik fonetik interferensiyada kuzatiladi, chunki til o‘rganuvchi dastlab o‘zga til tovushlar tizimi bilan to‘qnashadi.

Ikkinchi tilni o‘qitishda tipik fonetik xatolarni tahlil etish jarayonida talaffuz me’yorlaridan chekinishning uch xil ko‘rinishi mavjudligi aniqlandi:

a) transpozitsiya (malakalarning ijobiy ko‘chishi), bunda tovush o‘zgarishi so‘z ma’nosiga ta’sir etmaydi;

b) approksimatsiya (so‘z ma’nosi o‘zgarmaganda, ikkinchi til tovushlari me’yorlaridan yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan darajadagi chekinish);

d) interferensiya (bunda tovushlarning o‘zgarishi turli darajadagi xatolarga olib keladi) [2: 16].

Maqolada asosiy e’tibor interferensiyaning yuqorida qayd etilgan talaffuz me’yorlaridan chekinish ko‘rinishiga qaratilgan. Tovush shakli va ma’nosiga ta’sir etayot-

gan fonologik xarakterdagi xatolar nafaqat muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, balki uni buzib ham yuboradi [6: 108–110]. Til birliklarining o‘xshashlik hamda nomuvofiq xususiyatlarini solishtirish asosida interferensiyaning ichki va tashqi turlari ajratiladi [7: 371]. Interferensiya hodisasi bir til doirasida yuz bersa, ichki interferensiya yoki til ichki interferensiyasi deb, o‘rganilayotgan xorijiy yoki ikkinchi tilga ona tilining salbiy ta’siri esa tashqi interferensiya yoki tillararo interferensiya hodisasi deb ataladi. Ichki interferensiyada bir tilning o‘zida keyin o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalarning dastlab hosil qilingan ko‘nikmalar ta’sirida xato qo‘llanish holati ko‘zda tutiladi.

Yuliya Tregubova ta’lim oluvchilar nutqida yuz beradigan ko‘plab xatolar ichki interferensiya yuzaga kelishining muhim omili hisoblanishini ta’kidlaydi [8: 13]. Masalan, ingliz tilida otlarning ko‘plik shakli asosan birlikdagi otga *-s* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi *(place – places)*. Ammo ba’zi otlarning *(man – men, foot – feet, woman – women)* ko‘plik shakli ichki fleksiyalar hisobiga o‘zak o‘zgarishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida *think* (o‘ylamoq) so‘zidagi [ɵ] tovushi bilan, *sink* (cho‘kmoq) so‘zidagi [s] tovushining talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo bular ma’nosi turlicha bo‘lgan alohida-alohida so‘zlar hisoblanib, o‘zbek va rus tillarida [ɵ] tovushining mavjud emasligi so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz etilishiga va ifodalanayotgan ma’noning o‘zgarib ketishiga olib keladi.

Mavzuga oid nazariy ma’lumotlarni o‘rgangach, lingvistik interferensiyaning turlari 1–4-sinf ingliz tili darsliklarida qay darajada yoritilganini avvalgi “Kid’s English” darsligiga qiyoslagan holda tahlil qilib chiqamiz. Buning boisi shundaki, bizning ilmiy tadqiqotlarimiz avvalgi “Kid’s English” ingliz tili darsligi asosida tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqot ishimizda ko‘rsatilgan kamchiliklar va tavsiyalar amaldagi darsliklarda o‘z yechimini topganligini aniqladik. Jumladan, avvalgi “Kid’s English” darsligi orqali 1-sinf o‘quvchilari bir yil davomida harf va tovushlarni o‘rganmaganliklari bois, 2-sinfda so‘zlarni o‘qishga qiynalganlarini tajribadan o‘tkazdik. Shuning uchun so‘zlarni faqat eshitish orqali emas, balki harfiy ifodasini ko‘rsatgan holda tanishtirib o‘rgatishni tavsiya qilgan edik. Amaldagi “Guess What!” darsligida 1-sinfdan boshlab tovushlarni harflari bilan taqdim etish metodikasi joriy etilgan. Quyidagi jadvalda “Guess What!” darsligida 1–4-sinf o‘quvchilariga taqdim etiladigan fonetik materiallar ketma-ketligi berilgan:

T/r	Fonetik mavzular	Interferensiya turi	Yuzaga kelish sababi
1-sinf [9]			
1.	P . A pink and a purple panda.	-	-
2.	B. A bear with a blue book.	-	-
3.	T. A turtle with two bears.	-	-
4.	D. A dolphin in a red desk.	-	-
5.	A. An ant with an apple. [æ]	Tillararo	O‘zbek tilida bunday tovush mavjud emas
6.	I. An inguana with pink ink. [i]	-	-
7.	E. An elephant with ten eggs. [e]	-	-
8.	U. An umbrella bird can jump up. [ʌ]	Tillararo	O‘zbek tilida ushbu harf bunday tovushni ifodalamaydi
9.	O. An octopus in an orange box. [o]	-	-
2-sinf [10]			
10.	R and L. The rabbit can run. The lion is lazy.	-	-
11.	G and H. A gorilla on the grass. A hippo on the house.	-	-
12.	F and V. A fox with a fish. A vulture with vegetables.	-	-
13.	J and Y. Jackals don’t like jello. Yaks don’t like yogurt.	-	-
14.	M and N. Meerkats have mouths. Newts have noses.	-	-
15.	S and Z. A seal in the sun. A zebra in the zoo.	-	-
16.	C and K. A camel with a camera. A kangaroo with a kite.	-	-
17.	Qu and X. A quick queen bee. An ox with an X-ray.	-	-
18.	W and Wh. A wolf in the water. A white whale with a wheel.	Tillararo	-
3-sinf [11]			
19.	A, ai. Snakes, tails. [ei]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
20.	Ee, ea. Chimpanzees, eat. [i:]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
21.	I, igh. Tigers, night. [ai]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas

22.	Oa, ow. Goats, snow. [ou]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
23.	Ue, ew, oo. Blue, chew, food. [u]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
24.	Th. Panthers, three. [ɵ]	Tillararo	O‘zbek tilida bunday tovush mavjud emas
25.	Sh. Sharks, fish. [ʃ]	-	-
26.	Ch. Chipmunks, pouches. [tʃ]	-	-
27.	Ph, f. Dolphins, fish. [f]	-	-
4-sinf [12]			
28.	Ou, ow. Owls, sound, down. [au]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
29.	Oy, oi. Royal, coil, soil. [oi]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
30.	Ur, ir. Turtles, whirl, surf. [ɵ]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
31.	Cr. Crabs, crawl, across. [kr]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
32.	Fr. Frog, fruit. [fr]	-	-
33.	Ar. Aardvarks, dark. [a:]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
34.	Sp. Spiders, spin, special. [sp]	-	-
35.	Ck. Black, duck, rocks. [k]	Tillararo	Digraflarning ifodalanishi diftonglar talaffuziga mos emas
36.	Nd. Elands, and, land. [nd]	-	-

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, 1-sinfda o‘quvchilarga 4 ta undosh va 5 ta unli, 2-sinfda 18 ta undosh harf va ular ifodalaydigan tovushlar taqdim etiladi. 3- va 4-sinfda esa digraflarni ifodalaydigan diftonglarni talaffuz qilish o‘rgatiladi. 1-sinfda tillararo interferensiya hodisasi 2 ta mavzuda yuzaga kelishi mumkin. Chunki bu tovush o‘zbek tilida yo‘qligi sababli o‘quvchilar to‘g‘ri talaffuz qilishga qiynalishlari mumkin. 2-sinfda esa 1 ta holatda yuzaga keladi. Chunki o‘zbek tilida bunday harf va tovush mavjud emas. 3- va 4-sinflarda tillararo interferensiya holatlari juda ko‘p uchraydi. O‘zbek tilida bitta harfni bitta tovush ifodalashi, ingliz tilida esa 1 ta unli harf 4 ta tovushni, shuningdek, bir qator digraflar yozilgani kabi o‘qilmasligi o‘zbek tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradi. Ushbu holat, o‘z navbatida, orfografik va orfoepik interferensiyani yuzaga keltiradi.

Tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, amaldagi ingliz tili darsligida har bir harf va tovushning alohida taqdim etilishi o‘quvchilarning talaffuz va o‘qish malakalarini oshiradi. Tillararo interferensiyaning oldini oladigan va bartaraf etadigan samarali mashqlar va topshiriqlarni muntazam ravishda berib borish natijasida yuzaga kelgan xatolarni tuzatish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2022. https://president.uz/oz/lists/view/5774.
2. Кодирова К.С. Преодоление фонетической интерференции при обучении арабскому языку в узбекской аудитории. Дис... канд. пед. наук. – Ташкент, 2008.
3. Misirov S. Chet tilni o‘rgatishda til tajribasi haqida // Til va adabiyot ta’limi, 2001. №12.
4. Шепель Ю.А. Виды интерференции как следствие двуязычия // 7-я Международная научно-практическая Интернет-конференция “Альянс наук: ученый-ученому”, Украина, 2012. http://www.confcontact. com./2012_03_15/fl_shepel/php
5. Шехтман Э.Н. Интерференция в методике обучения иностранным языкам в вузе. Коллективная монография. – Тамбов: Бизнес–Наука–Общество, 2014.http://www.tsutmb.ru/fond-nekommercheskix-programm-%C2%ABdinastiya%C2%BB-provodit-otkryityij-grantovyij-konkurs.
6. Колбышева Ю.В. Проявление фонетической интерференции в речи студентов, изучающих английский язык как второй иностранный в 2-х ч., ч. 2 // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2014, №5 (35).
7. Джусупов М.Д. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. – Ташкент: Фан, 1991.
8. Трегубова Ю.А. Социолингвистический аспект интерференции при неконтактном двуязычии (на материале русского и английского языков). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2009. http://www.aspirant.vsu.ru/pdf/autoreferats/1345.
9. Susannah Reed. Guess What! Teacher’s book 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
10. Susannah Reed. Guess What! Teacher’s book 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
11. Susannah Reed. Guess What! Teacher’s book 3. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
12. Susannah Reed. Guess What! Teacher’s book 4. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

Mohira XALIKOVA,
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori, falsafa doktori, dotsent

VUCA-DUNYO VA LIFELONG LEARNING TA’LIM MODELLARI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada VUCA-dunyo va lifelong learning ta’lim paradigmalari kontekstida XXI asr kompetensiyalarining reprezentatsiyasi, axborot jamiyatiga xos bo‘lgan asosiy trendlar, shaxs va jamiyat transformatsiyasi muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lifelong learning, axborot jamiyati, postgloballashuv, VUCA-dunyo, to‘rtinchi sanoat inqilobi, paradigma, kompetensiya, metadissiplinarizm, soft skills, ta’lim.

Annotation. The article analyzes the representation of the 21st century competencies in the context of the VUCA-world and the lifelong learning paradigms, the main trends of the information society, the problems of transformation of the individual and society.

Keywords: lifelong learning, information society, post-globalization, VUCA-world, the fourth industrial revolution, paradigm, competence, metadisciplinarism, soft skills, education.

Аннотация. В статье анализируются репрезентация компетенций XXI века в контексте VUCA-мира и парадигм lifelong learning, основные тенденции, присущие информационному обществу, проблема трансформации личности и общества.

Ключевые слова: lifelong learning, информационное общество, постглобализация, VUCA-мир, четвертая промышленная революция, парадигма, компетенция, метадисциплинаризм, soft skills, образование.

Ma’lumki, muvaffaqiyatli ta’limning eng muhim xususiyati jamiyat va insoniyat taraqqiyoti talablariga javob bera olishidir. Uchinchi mingyillikning ijtimoiy voqeligi – axborotlashuv, eksponensiallik, to‘rtinchi sanoat inqilobi, VUCA-dunyo inson, jamiyat hamda ta’lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi, xususan, ta’lim-tarbiya metodologiyasini o‘zgartirish, yangicha ta’lim paradigmasini yaratishni taqozo etdi.

Postmodernistik axborot jamiyatining global maqsadlaridan kelib chiqib, bugungi kun ta’limi insonlarning ma’naviy-axloqiy va professional qiyofasi tez sur’atlarda o‘zgarib borayotgan dunyoning konseptual talablariga mos bo‘lishiga yo‘naltirilmoqda. Mazkur ijtimoiy-pragmatik voqelik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan *lifelong learning* – hayot davomida ta’lim paradigmasini dunyo ta’lim tizimlariga faol tatbiq etishni taqozo etadi [1: 8–13].

Sohaga oid tadqiqotlarning tahlili muammoning murakkab va ko‘p qirrali xususiyati mavjudligiga ishonch hosil qilishimizga imkon beradi. “Kompetensiya” metadissiplinar tushuncha bo‘lib, turli fan sohalarining (pedagogika, andragogika, sotsiologiya, menejment) obyekti sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, fanda *kompetensiya* tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emasligini ta’kidlash zarur. Kompetensiya muammosining ilk tadqiqotchilaridan biri Massachusets texnologiya instituti (AQSh) professori, lingvist, sotsiolog Noam Xomskiy kompetensiyani lisoniy kompetensiya kontekstida “ko‘p omilli sharoitda rivojlanadigan intellektual qobiliyatlar, bilim va qarashlar tizimi” [2], deya ta’riflaydi. Ingliz olimi, Edinburg universitetining faxriy professori Jon Raven uni “ma’lum bir sohada muayyan bir harakatni bajarish uchun zarur bo‘lgan hamda sohaviy bilimlar, fanga doir ko‘nikmalar, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni anglash kabilarni o‘z ichiga olgan xususiy qobiliyat” [3: 396] sifatida talqin qiladi. Hozirgi ta’lim paradigmasi kontekstida **smart-**kompetensiyalar, *soft skills,* muloqot, raqamli kompetensiyalar [4] faol tadqiq etilmoqda.

Pedagogik-andragogik amaliyotda “kompetentlik” ta’lim oluvchining kasbiy-ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun tayyorgarligiga avvaldan qo‘yilgan talablarni anglatadi hamda shaxsning ijtimoiylashuv darajasi, intellektual salohiyati hamda nazariy-amaliy bilimlari bilan belgilanadi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda kompetensiyalarni o‘rganish bo‘yicha to‘rtta ilmiy maktab va yondashuvlar faoliyat olib bormoqda (ingliz, fransuz, nemis maktabi, Avstriya yondashuvi). Amerika maktabi kompetentlikning xulq-atvor, harakat, faoliyatga yo‘naltirilgan xususiyatlarini o‘rganishga ahamiyat beradi. Tadqiqotchilar kompetensiyaning ko‘p komponentli hodisa ekanini ta’kidlaydilar [5].

VUCA-dunyoning konseptual voqeligi kontekstida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va kompetentligi muhim o‘rin tutadi. Kompetentlik nafaqat kasbiy-nazariy, balki metabilimlar sirasiga kiruvchi psixoemotsional, verbal, reflektiv, ijtimoiy bilimlarni ham egallash zaruriyatini taqozo etadi.

Dunyo amaliyotida kompetensiyalarning universal tipologik tasnifini hamda modelini yaratishga bo‘lgan urinishlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, hozirgacha yaxlit bir tizim, yagona tasnif yo‘q. Yevropa Kengashi tayanch kompetensiyalar tasnifini, xususan, chet tillarni o‘rganish sohasida CEFR – umumyevropa kompetensiyalarini taklif qildi. Buyuk Britaniya to‘rtta tayanch kompetensiyani ilgari suradi. Yevropa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) “Ta’lim – 2030” loyihasi kasbiy kompetensiyalarning universal modelini ishlab chiqish bo‘yicha jahon ta’lim dasturlarining qiyosiy tahlilini olib bormoqda.

Asrlar davomida ish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar to‘plami juda standart va statik (o‘zgarmas) bo‘ladi deb taxmin qilingan va ta’lim dasturlari atrof-muhitning yuqori murakkabligi, nostabillik *(Volatility)*, noaniqlik *(Uncertainty)*, murakkablik *(Complexity)*, o‘zgaruvchanlik *(Ambiguity)* xususiyatlarini namoyon qiluvchi VUCA-dunyo sharoitiga moslashuvchanlik, shaxsiy rivojlanish kabi ijtimoiy maqsadlarni ko‘zlamagan edi.

Global Education Futures va *Future Skills* ekspertlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga sezilarli ta’sir ko‘rsa-

tadigan mehnat bozori tektonikasi yaqin kelajakda qanday bo‘lishi, axborot jamiyatiga xos asosiy – XXI asr ko‘nikmalariga doir ijtimoiy trendlarni quyidagicha ifodalaydi:

1. **Texnologik transformatsiya** hayotning barcha sohalarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish, murakkab jismoniy va kognitiv harakatlarga qodir avtonom tizimlarning rivojlanishi ta’sirida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida inson mehnatining rolini o‘zgartiradi.

2. **To‘rtinchi sanoat inqilobi**. Sanoat rivojlanib borgan sari muhim texnologik sakrash bosqichlarini bosib o‘tadi, ular odatda sanoat inqiloblari deb ataladi.

3. **“Yashil iqtisod”.** Barqaror rivojlanish asnosida biznes va iqtisodda ekologik metaforalarning keng qo‘llanilishi kuzatilmoqda.

5. **Polilingvizm va multikulturalizm.** Tobora xalqaro oflayn va onlayn ish rejimi sharoitida nafaqat chet tilni bilish, balki milliy-madaniy xususiyatlarini anglash ham foydali bo‘ladi.

6. **Sohalararo kollaboratsiya, metadissiplinarizm**. Turli sohalar kooperatsiyasi mutaxassislardan o‘z sohasiga aloqador bo‘lmagan tarmoqlarda mavjud texnologiyalar, jarayonlar to‘g‘risida bilim, tushuncha va kompetensiyalarni talab qiladi.

Dunyo amaliyotida XXI asrning muhim kompetensiyalar tizimini yaratishga ilmiy urinishlar mavjud. 2002-yilda XXI asr ko‘nikmalari yo‘lida hamkorlik tashkilotining (Partnership for 21st Century Skills, P21) loyihasi doirasida Berni Trilling (Bernie Trilling) va Charlz Fadel (Charles Fadel) tomonidan 7C – kompetensiyalar tizimi ishlab chiqildi: tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik qilish, axborot va media-savodxonlik, AKT savodxonligi, hayot va kasb uchun zarur kompetensiyalar [6].

O‘zbekiston milliy ta’lim tizimida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha kompetensiyalarni ishlab chiqish va ta’lim standartlariga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kiritish hamda hayot davomida ta’lim paradigmasi kontekstida shaxsda XXI asrning eng muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim strategiyasini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ta’lim tizimiga xorijiy tajribalar, modellar, metodikalar, forsayt-tahlillarning ilg‘or natijalari faol tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o‘rta, oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining kompetensiya yondashuviga asoslangan ta’lim standartlari hamda davlat talablari ishlab chiqilgan va ta’lim faoliyatiga faol tatbiq etilgan. Shu bilan birga, tahlillar ta’lim dasturlarida jamoaviy ishlash, nostandart vaziyatlarda boshqaruv yechimlarini topish qobiliyati, fanlararo metadissiplinarizm va moslashuvchanlik, nizolarni boshqarish ko‘nikmalari o‘z aksini yetarlicha topmaganini ko‘rsatadi.

XXI asrning ajralmas xususiyatlari bo‘lgan raqamli iqtisod, turbulentlik, global xalqaro raqobat, iqtisodiy sikllarning qisqarishi, oltinchi texnologik uklad, tovar va xizmatlarni yetkazib berishning yangi usullarining paydo bo‘lishi tufayli har qanday ma’lumot, mahsulot, vositalar va kompetensiyalar juda katta tezlikda eskiradi. Mazkur vaziyatda shaxsning hayotiy muammolarini (ijtimoiy, shaxsiy, umumkasbiy, iqtisodiy) hal qilish, umumiy ijtimoiy kompetensiyalarini maqsadli shakllantirish zaruratini taqozo etadi. Tadqiqotchi tomonidan tahlillar, tadqiqot natijalari asosida hayot davomida ta’lim paradigmasi aspektida XXI asr kompetensiyalari tizimiga quyidagilarni kiritish taklif etiladi:

1. VUCA-ko‘nikmalar – liderlik, strategik maqsad va vazifalarni belgilash, prioritetlarni to‘g‘ri tanlash, resurslarni samarali boshqarish, nizolarni boshqarish, stress-menejment, taym-menejment, rejalashtirish, komandani shakllantirish, loyihalarni boshqarish qobiliyati.

2. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – madaniyatlararo muloqot, multikulturalizm, konstruktiv dialog olib borish, turli madaniyatlar orasidagi farqlarni anglash, yangi g‘oyalar va qarashlarga ochiqlik, boshqa shaxslar bilan til topishga tayyorlik.

3. Ekologik tafakkur va tejamkor ishlab chiqarish shakliga o‘tish ko‘nikmalari – barqaror rivojlanish maqsadlariga javob beruvchi sanoatning istalgan sohasidagi barcha turdagi chiqindilarni yo‘q qilishga asoslangan jarayonlarni boshqarish ko‘nikmalari.

4. Tanqidiy tafakkur – faktlarni tahlil qilish, sharhlash va baholash, obyektiv qarorlar qabul qilish hamda axborotning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash ko‘nikmalari.

5. Axborot ko‘nikmalari – axborotni yaratish, tanlash qobiliyati, katta hajmli axborot oqimini filtrlash, kerakli ma’lumotlarni ajratib olish va natijalarga erishish uchun uni qayta ishlash qobiliyati, axborot xavfsizligi va axborot tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalari.

6. Konflikt-menejment, nizolarni samarali hal qilish qobiliyati – shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy hayotning etnik, irqiy, milliy, oilaviy, mehnat, tijorat, g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga oid masalalarida yuzaga kelgan nizolarni samarali bartaraf etish, stressga chidamlilik ko‘nikmalari.

7. Gender sensitivlik – gender tengligining erkaklar va ayollarning ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat tomonidan modellashtirilgan tafakkur, xulq-atvor xususiyatlari, turmush tarzi meyorlari va qadriyatlarni anglash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalikova M.K. Lifelong learning paradigmasi diskursida andragogikaning kompetensiyaviy imperativlari // Zamonaviy ta’lim, 2022, №11(120).
2. Хомский Н. Язык и мышление. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 122 с.
3. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – Москва, 2002. – 396 с.
4. Шарипова О.М. Модель компетенций для персонала в условиях цифровизации и Индустрии 4.0 // Креативная экономика, 2019, Том 13. №12. – С. 2411–2420.
5. Божко Е.М., Ильнер А.О. Компетентностный подход в России и за рубежом: исторические и теоретические аспекты // Мир науки. Педагогика и психология / World of Science. Pedagogy and psychology, 2019, №1, Том 7. https://mir-nauki.com/issue-1-2019.html.

Саодат МАГДИЕВА,
кандидат филологических наук,
доцент Ташкентского государственного педагогического
университета имени Низами

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ СТРАТЕГИИ РЕФЛЕКСИИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ЛИТЕРАТУРЕ В ВУЗЕ

Аннотация. В статье рассматривается принцип образовательной рефлексии в практике преподавания литературы в вузе. Образовательная рефлексия является важным элементом в личностно-ориентированном обучении, так как способствует раскрытию индивидуальной личности студента и позволяет развить навыки анализа литературного текста.

Ключевые слова: образовательная рефлексия, личностно-ориентированное обучение, литературный текст, медиатекст, индивидуальный подход.

Annotatsiya. Maqolada universitetda adabiyotni o‘qitish jarayonida tarbiyani aks ettirish tamoyili ko‘rib chiqiladi. Tarbiya o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limning muhim elementi hisoblanadi, chunki u o‘quvchining individual shaxsini ochishga yordam beradi va unda badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: ta'limni aks ettirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, adabiy matn, mediamatn, individual yondashuv.

Annotation. The article examines the principle of educational reflection in the practice of teaching literature at a university. Educational reflection is an important element in personality-oriented learning, as it helps to reveal the individual personality of the student and allows developing the skills of analyzing a literary text.

Keywords: educational reflection, personality-oriented learning, literary text, media text, individual approach.

Известно, что образовательный процесс сопровождается его рефлексивным осознанием субъектами образования (субъектно-субъектные отношения).

Рефлексия – это осознание способов деятельности, обнаружение ее смысловых особенностей. Обучающийся осознает не только сделанное, но и способы деятельности, т.е. то, как это было сделано на занятии.

Существуют разнообразные формы образовательной рефлексии: письменное и устное обсуждение проблемы, создание модели объекта изучения, анкетирование, графическое изображение происходящих изменений и пр.

Создание рефлексивной среды – необходимое условие для того, чтобы студенты и преподаватель видели модель (схему) организации образовательной деятельности, конструировали ее в соответствии со своими целями и задачами, осознавали возникающую проблематику и пути ее решения.

В нашем случае мы основываемся на принципе образовательной рефлексии, который применяем при ведении занятия по дисциплине «Анализ литературного текста и выразительное чтение» для студентов 2-го курса направления «Русский язык и литература в иноязычных группах» высшего педагогического образовательного учреждения.

Почему мы выделяем данный принцип (принципы личностно-ориентированного обучения: личностного целеполагания, выбора индивидуальной образовательной траектории, метапредметных основ образовательного процесса, продуктивности обучения, первичности образовательной продукции обучающегося, ситуативности обучения, образовательной рефлексии)? По нашему мнению, именно принцип образовательной рефлексии выражает основы организации личностно-ориентированного обучения на уровне подготовки отдельного студента как субъекта образовательной среды.

Личностно-ориентированное обучение нацелено на раскрытие индивидуальности личности обучаемого через учение и признание его самобытности, самоценности, субъективного опыта в рамках содержания образования. Речь идет не об ограниченности деятельности студента в рамках требований учебной программы, а о его развитии и безграничном совершенствовании.

В этой связи мы хотели бы отметить идеи гуманистической психологии, появившиеся в середине XX века (К.Роджерс, А.Маслоу, А.Комбс, Р.Мей, В.Франкль, Р.Берне и др.), которые основывались на модели «Я-концепция», предусматривающей поведение обучаемого как внешнее проявление его внутреннего мира. По мнению этих ученых, причины поведения обучаемых заключаются в их эмоциях и убеждениях, надеждах, ценностях и устремлениях. Внутренний же мир обучаемого формируется прежде всего в условиях семьи, ближайшего социального и природного окружения. Обучение будет успешным только тогда, когда учитывается реаль-

ная Я-концепция студента; этот фактор может быть и стимулирующим. Модель «Я-концепция» предусматривает изначальную ценность личности обучаемого как уникальной.

Позднее идеи данной модели находят продолжение в работах ученых К.А.Абульхановой, И.С.Кона, А.В.Мудрика, А.Б.Орлова, В.В.Давыдова, В.Е.Зинченко, И.С.Якиманской, В.В.Серикова и др., в которых представлены инварианты толкования понятия «личностно-ориентированное»: «индивидуальный подход», «индивидуализация обучения», «субъектный опыт». Однако неоспорим тот факт, что при наличии различных вариантов определения все они идентичны понятию «личностно-ориентированное» и по функциям нацелены на модель «Я-концепция».

Создание на занятиях литературы ситуации успеха – одна из приоритетных задач личностного обучения, для создания которого в аудитории преподавателю необходимо постоянно развивать свои способности к перцептивному общению (перцептивное общение предусматривает умение преподавателя проникнуть во внутренний мир студента, понять мотивы его поведения, почувствовать его психическое состояние в каждый отдельный момент).

Интенсивное вхождение преподавателей в проблему личностно-ориентированного образования предполагает использование нетрадиционных форм обучения, в числе которых интерактивный метод «В творческой мастерской» как особая форма диалога студентов друг с другом и преподавателями, в котором каждый из них чувствуют себя уникальной личностью, творцом.

Данная стратегия предусматривает создание атмосферы открытости, доброжелательности, сотворчества в общении; пробуждение в каждом обучаемом интереса к изучаемой теме; нахождение новых путей решения проблемы, а не получение готовых ответов; равное со всеми положение при совместном сотрудничестве.

Самореализация личности студента может проходить стихийно, если не создавать для этого условий и не управлять этим процессом. В соответствии с возможностями, склонностями и интересами студента мы выделяем два аспекта личностно-ориентированного образования: мотивационно-ориентационный и оценочно-результативный, неразрывно связанные с учебной деятельностью студента на занятии.

Таким образом, чтобы сделать процесс обучения личностно-ориентированным, нужно признать право каждого студента на индивидуальное мнение и стремление применять свои знания в интересной для него деятельности.

Рассмотрим наши положения на практике.

До проведения семинарских занятий по дисциплине «Анализ литературного текста и выразительное чтение» студентам предлагается завести рабочую тетрадь, в которой записываются задания: прочитать тексты, представленные в календарно-тематическом плане, провести анализ по определенной модели.

После проведения шести занятий (первый рейтинговый контроль) студенты делают определенные записи в тетрадях, опираясь на вопросы такого содержания: Что интересного я открыл для себя в процессе анализа определенного знакового текста? Какой эпизод я выделил бы для выразительного чтения и почему?

При изучении драматических произведений (пьеса «Гроза» А.Н.Островского) студенты получают задание прочитать монолог главной героини Катерины. О чем она говорит? С каким чувством героиня произносит свой монолог? Какая черта характера героя проявилась в ее речи? Выразительно прочитайте монолог от лица героини.

На занятии мы используем также стратегию «Разбор медиатекстов» для достижения студентами продуктивного результата (самоутверждения себя как творческой личности). Например, при изучении художественного творчества И.А.Бунина студенты получают задание найти информацию, связанную с творчеством писателя, и в форме медиатекста презентовать в аудитории. Каждый подготовленный текст сопровождается музыкой и комментариями студентов, создавших свой медиатекст в электронном образовательном пространстве. Студентам можно предложить сайты http://www.e-kniga.ru/; http://poet.da.ru/ и др., которые окажут практическую помощь в создании «своего» медиапродукта.

Первая сигнальная презентация медиатекста нацеливает обучаемых на последующие действия медиаобразовательного модуля: овладение ключевыми словами медиатекста и на этой основе составление глоссария по сюжету текста, т.е. студенты создают собственную медиапродукцию для самоутверждения своего «Я». Например, при демонстрации слайдов с изображением косарей (идентичная картина вырисовывается и в рассказе «Лапти» И.А.Бунина) студенты не только продумывают музыку, сопровождающую иллюстрацию, но и параллельно составляют «книгу цитат и выражений» (из речи литературных персонажей), передающих смысл изображаемых эпизодов («Косари убирают пшеницу», «Косари отдыхают», «Косари радуются урожаю» и пр.). В «книгу цитат…» студенты записывают слова поэта Сергея Есенина «Каждый труд благослови, удача!», «Эти волосы взял я у ржи…». Обучаемые решают новую проблему, требующую от них самостоятельного поиска дополнительной информации и корректировки ее в рам-

ках своих размышлений и «открытий»: что общего они нашли в творчестве Ивана Бунина и Сергея Есенина.

Активный характер занятия по литературе в контексте представленной модели обучения литературе обеспечивается субъектно-субъектным взаимодействием участников образовательного процесса, систематическим контролем знаний и разнообразными видами самостоятельной работы студентов.

Изменение взгляда студента на анализ текста – это не просто следствие перехода к личностно-ориентированному обучению, а скорее, наоборот, современное понимание обучаемым нового подхода к осмыслению текста на основе собственного опыта (если он имеется у него) и выразительному его чтению.

Творческий подход студента к тематике текстов, представленной в рабочей программе ВОУ, указывает и на параметры, по которым можно отслеживать личностный рост каждого из них: самодеятельность, саморазвитие («Я-концепция»), целостность поведения, особенности мотивационной (и шире – эмоционально-ценностной) сферы личности, адаптивность (уникальность).

Содержание личностно-ориентированного занятия, основывающегося на принципе образовательной рефлексии, чаще всего должно строиться на выбранной преподавателем модели, причем приходится вносить коррективы в содержание учебного материала для большего соответствия занятия личностно-ориентированной направленности концептуальному замыслу.

Использованная литература

1. Андреев О.А. Учимся читать выразительно. Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.
2. Андриянова В.И. Основные ориентиры современной образовательной политики. В кн.: «Проблема развития когнитивно-творческих способностей обучающихся в современных условиях». Ташкент, 2012.
3. Бек З.Ч., Муштавинская И.В. Развитие критического мышления на уроке. М., 2004.
4. Магдиева С.С. Современные технологии преподавания русского языка и литературы / Учебное пособие для студентов педагогических вузов. Ташкент: Фан ва технология, 2014.
5. Магдиева С.С. Организация учебного процесса по литературе в контексте образовательной модели РКМЧП / Методические рекомендации для преподавателей академических лицеев и профессиональных колледжей. Ташкент: ТГПУ имени Низами, 2017.
6. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. М.: Сентябрь, 1996.